

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 338.45.(575.1)

KADIROV ABDUMALIK MATKARIMOVICH

**SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYASI

Ilmiy maslahatchi:
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor A.U.Burxanov

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	13
§1.1. Korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari	13
§1.2. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning ilg'or mamlakatlar tajribasi	32
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	49
II-BOB. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI	51
§2.1. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholashga nazariy yondoshuvlar	51
§2.2. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash uslubiyoti	60
§2.3. O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholash natijalari	70
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	86
III-BOB. O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	88
§3.1. Makro darajada iqtisodiy barqarorlikni baholash indikatorlari	88
§3.2. O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanish holati tahlili	109
§3.3. O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	125
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	144
IV-BOB. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	146
§4.1. Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari	146
§4.2. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqaror faoliyatini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	158
§4.3. Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli	170
To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar	185
Xulosalar	186
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	200
Ilovalar	205

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon kimyo sanoati global iqtisodiyot va ta'minot zanjiri tarmog'ining murakkab va muhim qismidir. Kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish qazib olinadigan yoqilg'i, suv, minerallar, metallar va boshqa xomashyolarni biz bilganimizdek, zamonaviy hayot uchun muhim bo'lgan o'n minglab turli xil mahsulotlarga aylantirishni o'z ichiga oladi. 2021-yilda jahon kimyo sanoatining umumiy daromadi 4,7 trillion AQSh dollaridan ortiqni tashkil qildi¹. 2021-yilda kimyoviy moddalar bozorida eng yirik hududlar Osiyo-Tinch okeani, G'arbiy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Yaqin Sharq va Afrika mintaqalari hisoblanadi. Jahonda "Sanoat-4.0" inqilobi davrida kimyo sanoat korxonalarining yangi tizimga transformatsiyalashuv jarayoni davom etmoqda.

Jahonning kimyo sanoati rivojlangan davlatlarida mazkur tarmoqda umumiy kimyoviy mahsulotlar, bosma siyohlar, gigiena vositalari, sovun va tozalash aralashmalari, yopishtiruvchi moddalar, bo'yoq va qoplamalar, pestitsid va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalari, kimyoviy o'g'itlar, sintetik kauchuk va tolalar, plastmassa materiallar va qatronlar, etil spirti, organik va noorganik kimyoviy mahsulotlari, metanol, etilen oksidi va propilen oksidi bo'yicha texnologik ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda mahsulot assortimentini kengaytirish va tannarxini pasaytirish; kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish, kimyo tarmog'ini modernizatsiyalash, boshqarish tizimida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish yo'nalishlarida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy yondashuvlar asosida ta'minlashning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor

¹ <https://www.statista.com/topics/6213/chemical-industry-worldwide>.

qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Kimyo va gaz-kimyosi sohasini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash “sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligi” tushunchasi mazmunini hamda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash uslubiyotini takomillashtirish, kimyo sanoati korxonalarini ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga kompleks yondashuv asosida kontrolling tizimini joriy etish, sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta’minlash mexanizmi tarkibini moliyaviy zaxirani shakllantirish asosida takomillashtirish, kimyo sanoati tarkibidagi korxonalar iqtisodiy barqarorligining uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2016-yil 22-dekabrda PQ-2692-son “Sanoat tarmoqlari korxonalarining jismoniy ishdan chiqqan va ma’naviy eskirgan mashina-uskunalarini jadal yangilash, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022. – № 4 (1024). – 11-22-b.

rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, jumladan, UNIDO, University of Tokyo, World Bank, Bank of America Corporation, Federal Financial Institutions Examination Council’s (FFIEC), The United Nations, DePaul University, University of Minnesota (AQSh), Swansea University, University of Cambridge, University of Nottingham, Nottingham Trent University, University of Greenwich, The University of Sheffield (Buyuk Britaniya), Deloitte, Ernst & Young (EY), and Price water house Coopers (PwC), Klynveld Peat Marwick Goerdeler (KPMG), University of Göttingen, University of Augsburg, McKinsey & Company, (Germaniya), Laval University, McMaster University, HEC Montreal (Kanada), University of Southern Queensland, Griffith University (Avstraliya), Jiangnan University, Chengdu University (Xitoy), Lund University (Shvesiya), University of Hong Kong (Gonkong), Delft University of Technology (Niderlandiya), Universiti Sains Malaysia (Malayziya), Institute of Management Technology (Hindiston), Allameh Tabataba’i University (Eron), Universidade Federal de Uberlândia (Braziliya), King Abdulaziz University (Saudiya Arabistoni), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi (O‘zbekiston) singari oliy o‘quv yurtlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.unido.org/>; <https://www.sdsu.edu/>; <https://www.worldbank.org/>; <http://www.bankofamerica.com/>; <https://www.ffiee.gov/>; <https://www.un.org/>; <https://www.depaul.edu/>; <https://www.umn.edu/>; <https://www.swansea.ac.uk/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.nottingham.ac.uk/>; <https://www.ntu.ac.uk/>; <https://www.gre.ac.uk/>; <https://www.sheffield.ac.uk/>; <https://www2.deloitte.com/>; <https://www.pwc.com/>; <https://home.kpmg/>; <https://www.uni-goettingen.de/>; <https://www.uni-augsburg.de/>; <https://www.mckinsey.com/>; <https://www.ulaval.ca/>; <https://www.mcmaster.ca/>; <https://www.hec.ca/>; <https://www.lunduniversity.lu.se/>; <https://www.hku.hk/>; <https://www.tudelft.nl/>; <https://english.jiangnan.edu.cn/>; <https://en.cdu.edu.cn/>; <http://www.usm.my/>; <https://www.imt.edu/>; <https://atu.ac.ir/>; <https://www.usq.edu.au/>; <https://www.griffith.edu.au/>; <https://ufu.br/>; <https://www.dbs.com.sg/>; <https://www.kau.edu.sa/>; <http://tsue.uz/>; <https://tfi.uz/>; <https://bfa.uz/> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

Dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan, jumladan: yashil sanoat siyosatining yashil innovatsiyalarga ta'siri tadqiq etilgan (Xitoy), yashil kreditning korxonadagi ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ikki tomonlama ta'siri aniqlangan, innovatsion elektromobillar, uchuvchisiz avtotransportning namunaviy assortimentidan foydalanish samaradorligi hisoblangan (Ukraina), korxonalar iqtisodiy xavfsizligining miqdoriy qiymatlarini tezlashtiruvchi (sekinlashtiruvchi) hisoblangan ko'rsatkichlari o'rganildi (Rossiya), siyosiy noaniqlik sharoitida ayrim mamlakatlardagi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sanoatida investitsiyalar va texnik investitsiyalarni kamaytirishga moyilligi isbotlandi (Yevropa, Xitoy). Bundan tashqari, davlat budjetidan sog'liqni saqlashni moliyalashtirish sohasining monopoliyaga olib kelishi hamda tibbiy xizmat sifatiga ta'siri o'rganilgan.

Dunyodagi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro tadqiqot institutlarida nazariy-metodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlar jumladan: jahondagi sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligi, jahonda Covid-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz oqibatlarini yumshatish, yashil sanoat siyosatining samaradorligini aniqlash, jahonda Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, korxonalar iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash uslubiyotini ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va ilmiy jihatlari I.Ansoff, R.Bellman, P.F.Druker, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, R.Kaplan, T.Kouplend, T.Koller, Dj.Murrin, D.Norton, B.Rayan, Y.A.Shumpeter⁴ singari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

⁴Ансофф И. Новая корпоративная стратегия (The New Corporate Strategy). – Питер, 1999. – 416 с. – ISBN 5-314-00105-2, 0-471-62950-2; Беллман, Р. Принятие решений в расплывчатых условиях / Р. Беллман, Л. Заде // Вопросы анализа и процедуры принятия решения. – М.: Мир, 1976. – С. 172–215; Друкер П.Ф. Менеджмент. Вызовы XXI века – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2012 – с. 256 – ISBN 978-5-91657-365-7; Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2-х т. / Пер. с англ. 13-го изд.: Учеб – Т.1. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 974 с.; Каплан Р., Нортон Д. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей: пер.с англ. –

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish masalalari Ye.N.Viborova, O.V.Zetkina, G.B.Kleyner, Yu.A.Kojevnikova, Z.V.Korobkova, M.A.Makarova, S.Yu.Pleshkov, G.V.Saviskaya, N.A.Savinskaya, S.V.Sokolov, A.D.Sheremet⁵lar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan.

Sanoat korxonalari iqtisodiyoti va moliyasi, iqtisodiy barqarorligi muammolari mahalliy iqtisodchi olimlar – E.A.Akramov, N.M.Maxmudov, M.A.Ikramov, R.I.Nurimbetov, M.L.Tursunxodjayev, M.A.Maxkamova, A.U.Burxanov, E.X.Mahmudov, A.Ortiqov va Z.N.Qurbanov⁶lar tomonidan qisman tadqiq etilgan.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamiga qaramay, mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, shuningdek, iqtisodiyotning faol erkinlashuvi, jahon

М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2005. – 416 с.; Коупленд Т., Коллер Т., Муррин Дж. Стоимость компаний: оценка и управление. пер. с англ. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2008 – с. 576 – ISBN 978-5-9693-0119-1; Райан Б. Стратегический учет для руководителя. / Пер. с англ. Под ред. Микрюкова В.А. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1998. – 615 с.; Шумпетер Й.А. История экономического анализа: перевод с англ. – М.: Экономическая школа, 2008. – С.98.

⁵Выборова Е.Н. Методологические особенности сравнительной диагностики экономического состояния субъектов хозяйствования // Экономический анализ: теория и практика. - 2007. - № 24 (105). - с. 15-19; Зеткина О.В. Об управлении устойчивостью предприятия. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2003, с. 128; Клейнер Г.Б., Тамбовцев В.Л., Качалов Р.М. Предприятия в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. – М.: Экономика, 1997. – 288 с.; Коробкова З.В. Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации // Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения: сб. науч. тр. – Новосибирск, 2006. – С. 57-58; Макарова М.А. Факторы экономической устойчивости нефтяной компании / М.А. Макарова // Маркетинг. - 2004. - №3(76). – С.93-97; Плешков С.Ю. Разработка механизма повышения уровня экономической устойчивости деятельности строительного предприятия / С.Ю. Плешков.: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Екатеринбург, 2010. – с. 18; Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 288 с.; Савинская Н.А., Багиева М.Н. Риски и устойчивость предприятия. – СПб.: Издательство СПбГУЭФ, 1999. – 104с.; Соколов С.В. Совершенствование механизма устойчивого развития экономики предприятия (на примере горного машиностроения) /С.В. Соколов :Автореф. дис. ... канд. экон. наук. - Екатеринбург, 2002. – 24 с.; Шеремет А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 415 с.

⁶Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. - T.: "Moliya", 2003. – 224 b.; Maxmudov N.M. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o'sishni muhim sharti // Iqtisodiyot va ta'lim. № 2. 2017. – 7-11 bet.; Ikramov M.A. Tendentsii razvitiya politiki vneshneekonomicheskoy deyatelnosti // <http://www.novapdf.com>; Nurimbetov R.I., Ahmedov S.I. Ishlab chiqarish menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2008. – 112 bet.; Maxkamova M.A. Formirovaniye organizatsionno-ekonomicheskogo mexanizma upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu na promyshlennyykh predpriyatiyax Respubliki Uzbekistan. Avtoref. Diss...dok.ekon.nauk. – T.: 2004. – 34 с.; Burxanov A.U. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi. Monografiya. –T.: "Fan", 2009. –216 b; Mahmudov E.X. Korxonona iqtisodiyoti. - T.: TDIU 2004. - 208 bet.; Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2014 – 85 bet.; Qurbanov Z.N., Isaev F.I. Iqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil – 1-8 betlar.

iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi va jahonda Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorlik darajasini kompleks baholash va tahlil qilish bo'yicha metodologik yondashuvlar korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170926232-sonli "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi intellektual hamkorlikni shakllantirish va qo'llash" (2019–2021-yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va iqtisodiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“barqarorlik” va “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasi va mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish asosida kimyo sanoati korxonalariga mos tushunchani shakllantirish;

sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligi darajasini baholash bo'yicha mavjud uslubiyotlarni tahlil qilgan holda kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini baholash uslubiyatini ishlab chiqish;

mamlakatimizda sanoat tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari, kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini baholash va tahlil qilish;

kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

milliy kimyo sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish strategiyasi bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O'z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalar olingan.

Tadqiqotning predmeti sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini

ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar davomida tizimli tahlil, sintez, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligi" tushunchasining mazmuni korxonaning rentabelligini va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi hamda hozirgi kunda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning ta'siridan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beruvchi iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini saqlab turish qobiliyati jihatidan takomillashtirilgan;

sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash uslubiyoti yangi mezonlar [25 dan yuqori – "yuqori"], [15 dan 25 gacha – "o'rtachadan yuqori"], [5 dan 15 gacha – "o'rtacha"], [0,5 dan 5 gacha – "past"], [0,5 dan past – "kritik"] asosida takomillashtirilgan;

kimyo sanoati korxonalari ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga kompleks yondashuv asosida kontrolling tizimini joriy etishda tezkorlik va mobillik funksiyalarining amaliy ta'sirini kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorligini ta'minlash taklifi asoslangan;

sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmi tarkibiga tez o'zgaruvchan muhitda "moliyaviy zaxirani shakllantirish" bo'limini kiritish va uni xarajatlarni minimallashtirish bo'yicha moliyaviy zaxirani sof daromaddan 10 foizgacha chegarada belgilash asosida takomillashtirish taklifi asoslangan;

"O'z kimyosanoat" AJ tarkibidagi korxonalar iqtisodiy barqarorligining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ARIMA modeli asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligi tushunchasiga muallif tomonidan korxonaning rentabelligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi hamda hozirgi kunda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning amal qilishi to'xtatilgach,

ularga dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beruvchi iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini saqlab turish qobiliyati sifatida yondashish taklif etilgan;

sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda rivojlangan davlatlar kompaniyalari tajribasidan O'zbekiston kimyo sanoati korxonalarini faoliyatida foydalanish mexanizmlari asoslangan;

kimyo sanoati korxonalarini balansidagi foydalanilmayotgan va ixtisoslikka ega bo'lmagan aktivlarni ommaviy savdolarida xususiy mulkka sotish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

kimyo sanoati korxonalarini ustav kapitallaridagi davlat ulushini kamaytirish maqsadida investorlarga sotish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

milliy kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash metodologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi milliy kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadan olingan ilmiy xulosalardan ushbu yo'nalishdagi uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish hamda ulardan istiqbolda kimyo sanoati korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarida zamonaviy boshqaruvning usul va mexanizmlarini joriy qilish hamda kimyo sanoati iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mazkur soha xodimlarining malakasini oshirish hamda Oliy o'quv yurtlarining "Sanoat iqtisodiyoti", "Tarmoq

iqtisodiyoti”, “Ishlab chiqarishni tashkil etish” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra korxonaning rentabelligini va barqaror rivojlanishini ta‘minlab beruvchi hamda hozirgi kunda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning ta‘siridan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beruvchi iqtisodiy parametrlar ko‘rsatkichlarining muayyan darajasini saqlab turish qobiliyati jihatidan takomillashtirilgan “sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligi” tushunchasining mazmuni oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Iqtisodiy xavfsizlik” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalari hamda bo‘lg‘usi mutaxassislarda kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligi hamda uni ta‘minlash bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash uslubiyotini yangi mezonlar [25 dan yuqori – “yuqori”], [15 dan 25 gacha – “o‘rtachadan yuqori”], [5 dan 15 gacha – “o‘rtacha”], [0,5 dan 5 gacha – “past”], [0,5 dan past – “kritik”] asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil 9-martdagi 22-2684-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida undan “O‘zkimyosanoat” AJni rivojlantirish strategiyasidan foydalanish va iqtisodiy barqarorligini oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

kimyo sanoati korxonalari ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga kompleks yondashuv asosida kontrolling tizimini joriy etishda tezkorlik va mobillik funksiyalarining amaliy ta‘sirini kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash taklifi “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil 9-martdagi 22-2684-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy

yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Farg‘onaazot” AJda 2021-yilda asosiy faoliyatdan olingan foydani 2020-yilga nisbatan 23,1 foizga, “Navoiazot” AJda esa 2021-yilda aksiyalar sonini 2020-yilga nisbatan qariyb 4,0 marotabaga oshirish imkoni yaratilgan;

sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta’minlash mexanizmi tarkibiga tez o‘zgaruvchan muhitda “moliyaviy zaxirani shakllantirish” bo‘limini kiritish va uni xarajatlarni minimallashtirish bo‘yicha moliyaviy zaxirani sof daromaddan 10 foizgacha chegarada belgilash asosida takomillashtirish taklifi “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil 9-martdagi 22-2684-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Farg‘onaazot” AJda 2021-yil yakunida kelgusidagi xarajatlar va asosiy faoliyatdan olingan foydaning 8,0 foiz miqdorida, “Navoiazot” AJ esa 2,2 foiz miqdoridagi mablag‘lardan moliyaviy zaxirani shakllantirish imkoni yaratilgan;

“O‘zkimyosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar iqtisodiy barqarorligining ARIMA modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil 9-martdagi 22-2684-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zkimyosanoat” AJning 2021–2025-yillarda rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish hamda tarmoq faoliyatini istiqboldagi rivojlantirish parametrlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, 13 ta, shu jumladan 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, OAK e’tirof etgan milliy jurnallarda 10 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 227 betni tashkil etadi.

I-BOB. KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi iqtisodiy soha bozorlarining rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalar endilikda bir mamlakat ko'lamidan dunyo miqiyosidagi davlatlarga ko'cha boshladi. Dunyoda tarmoqlar orasidagi raqobat kurashi jadallashib borilayotgan bir sharoitda, sanoat korxonalariga yangidan-yangi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi bozorga chiqishga intilayotgan sohalar uchun raqobatchilik kuchaymoqda. Raqobat kurashi kuchayib borishi jarayoni bilan bir qatorda raqobat kurashida ustunlikka erishishning yangi manbalarini izlash zaruratga aytanib bormoqda. Mazkur jarayondagi xalqaro miqiyosdagi ekspertlarning fikricha, eng katta iqtisodiy inqirozlar – bu katta yoki xalqaro darajadagi inqirozlar bo'lsa, mamlakat miqiyosidagi milliy va sohadagi iqtisodiy inqirozlar eng jiddiy inqirozlar sanaladi. Shu bilan birga sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va tovar harakatini boshqarishda turli xil va zamon talablariga mos samarali mexanizmlarini shakllantirish, mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan yuqori daraja samarali foydalanishni taqozo etadi. Global iqtisodiy inqiroz davrida bunday funksiyalar yanada dolzarb ahamiyat kasb etgani bois iqtisodiy barqvarorlik bilan bog'liq muammolarga yechim topish ancha murakkablashadi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirishda innovatsiyalarni yo'naltiriltirish – iqtisodiyotni isloh qilishning dolzarb va muhim va vazifalaridan hisoblanadi. Sanoat sohasida ishlab chiqarish tizimlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash esa inqiroz tufayli iqtisodiyotda kuzatilayotgan turg'un vaziyatni yengish imkonini beradi va butun iqtisodiy rivojlantirish katalizatori hisoblanishi mumkin.

Bugungi kunda bozor munosabatlari rivojlanishida ichki hamda tashqi bozorlarda chegarasiz raqobatning kuchayishi ortidan ishlab chiqaruvchi korxonalar, birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori, ya'ni drayver sanalgan iglab chifvarish korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ushlab qolishning yangi

manbalarini izlash muammosi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi butun davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir qilib, uning iqtisodiy salohiyatini ushlab turadi va shu orqali korxonalarda ishlab chiqarishning sifat jihatdan o'sishini, yangi raqobatbardosh mahsulot bilan xalqaro bozorlarda o'rin egallashini ta'minlaydi. Iqtisodiy tizimlarda sanoat ob'ektlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashni ta'minlaydigan ilmiy tarmoqlar yo'nalishlari yuqori emas edi. Birinchi marta "iqtisodiy barqarorlik" tushunchasini 1973 va 1979 yillar global energetika inqirozi davrida resurslarni chegaralanganligi muammolariga yechim izlash davrida yuzaga kelgan⁷.

Sanoat 4.0 inqilobining yangi bosqichiga turtki bo'lib, tizimlarning o'zaro bog'liqligiga katta e'tibor qaratdi va qo'shimcha ishlab chiqarish kabi buzuvchi texnologiyalarni keltirdi. Buning ustiga, so'nggi bir necha o'n yilliklarda qo'shimcha ishlab chiqarish texnologik evolyutsiya va raqobatchilarni quvib o'tish uchun farqlovchi omillarni oshirish zarurati tufayli ko'rinishga ega bo'ldi. Shu bilan birga, firmalarning raqobatbardoshligi va raqobatbardoshligining oshishi, mijozlar talabi va xilma-xilligining ortishi hamda sanoat iqtisodiyotidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish kabi hodisalar yangi biznes modellarining paydo bo'lishiga olib keladi. Biroq, qo'shimcha ishlab chiqarishning biznes imkoniyatlariga qaramay, adabiyotda qo'shimcha ishlab chiqarishning biznes strategiyasiga ta'sirini tahlil qilish modeli holatni to'liq tasvirlab bera olmaydi⁸.

Iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq masalalarni B.Venturi, P.Gerstner, F.Laytner, S.Pozani, L.Abalkina, I.Aleshina, A.Borodina, E.M.Korotkova, D.Kovaleva, T.Suxorukova, Z.V. Korobkova, A.D.Sheremet, Y.Shumpeter, Yu.V.Maslenko, N.A.Kulbaka va boshqa G'arbiy iqtisodchi olimlar hamda mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar davomida o'tkazilgan tahlillarga asoslanib bugungi kunga qadar "iqtisodiy barqarorlik", "raqobatdagi ustunlik", "raqobatbardoshlilik"

⁷ Радионова Л.Н., Абдуллина Л.Р. Устойчивое развитие промышленных предприятий: термины и определения // Нефтегазовое дело. – 2007. – № 5.

⁸ Soraya Dias, Pedro Espadinha-Cruz, Florinda Matos. A Porter's Five Forces Model Proposal for Additive Manufacturing Technology: A Case Study in Portuguese industry. <https://doi.org/10.1016/j.procs.2022.12.212>

tushunchalari va atamalni bo'yicha yagona tushunchalar tizimi shakllanmagan deyish mumkin. Korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir qiladigan ichki va tashqi omillarning yagona hamda barcha korxonalar uchun xos bo'lgan umumiy tasnifi, iqtisodiy barqarorlikni va o'zaro raqobatbardoshlik bilan bog'liqligini baholashga yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Ushbu jarayon barqarorlik tushunchalari bilan iqtisodiy faoliyat miqdor jihatdan baholanmaganligi holda iqtisodiy barqarorlikni boshqarish uslubiyati ishlab chiqilmagan.

Ushbu yondashuvlarni, ishlab chiqaruvchi korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. E.M. Korotkov⁹, D. Kovalev va T. Suxorukova, Z.V.Korobkova, A.D. Sheremet¹⁰, Y. Shumpeter¹¹ kabi qator iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra korxonalarining iqtisodiy barqarorligi aniqlashda uning moliyaviy ahvoli hisobga olinishi bilan belgilangan. Iqtisodchi olimlarning ko'plab tadqiqotlarida iqtisodiy barqarorlik tushunchasi korxonada ixtiyoridagi resurslarning iqtisodiy holati va tashqi muhitning o'zgarishi bilan ko'plab beqarorlashtiruvchi omillarning ta'siri bilan bog'liq deb hisoblaydi. Xususan, N.A.Kulbakaning tadqiqotlarida, iqtisodiy barqarorlik tushunchasi iqtisodiy resurslarning o'zgarmasligi, ya'ni bir xil muvozanatlangan holati bilan tavsiflanadi¹².

O.N.Zaysevaning tadqiqotlarida, korxonada faoliyatiga tashqi muhit salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatda ham samarali faoliyat yuritish olish va barqaror progressiv rivojlanish qobiliyati saqlab qolishi bilan belgilanadi¹³.

⁹ Коротков Э.М. Антикризисное управление. – М.: Инфра – М, 1998.

¹⁰ Шеремет А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. – М.: ИНФРА-М. – 415 с.; Ковалев Д., Сухорукова Т. Экономическая безопасность предприятия // Экономика Украины. – 1998. – №5. – С. 48–52; Коробкова З.В. Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации / Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения: сб. науч. тр. / под ред. В.В. Титова, В.Д. Марковой. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2006. – С. 57–68; Коробкова З.В. Устойчивое развитие промышленных предприятий в глобализированной экономике / Совершенствование институциональных механизмов в промышленности: сб. науч. тр. / под ред. В.В. Титова, В.Д. Марковой. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2005. – С. 90–101

¹¹ Шумпетер Й.А. История экономического анализа: пер. с англ. – М.: Экономическая школа, 1998

¹² Кульбака Н.А. Сущность и факторы экономической устойчивости предприятия. – Донецк: Донецкий национальный техн. ун-т, 2002

¹³ Зайцев О.Н. Оценка экономической устойчивости промышленных предприятий: автореф. ... канд. экон. наук. – Хабаровск: ГОУ ВПО «Тихоокеанский гос. ун-т», 2007.

Muallifning fikricha, moliyaviy barqarorlik holatida korxonalar daromadlari xarajatlardan barqaror ravishda ko'p bo'lishini aks ettiradi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish jarayoni uzluksizligini ta'minlashga ko'maklashadi va korxonaning iqtisodiy barqarorligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi anchagina keng bo'lib, avvalambor raqobatbardoshlik raqobat muhiti, korxonaning texnik-texnologik, ishlab chiqarishni tashkil etishni, boshqaruv tizimini hamda innovatsion jihatlarini tavsiflaydi.

Afsuski, bugungi kunga qadar "barqaror faoliyat yuritish", "barqaror rivojlanish" kabi ilmiy tushunchalar bo'yicha yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchalari bo'yicha MDH iqtisodchi olimlardan V.V.Andreev, T.A.Andreeva va O.A.Zingerning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Ularning fikricha, barqaror faoliyat ko'rsatishda tashqi muhitdagi o'zgarishlar bilan bog'likligini ifodalangan. Ular o'z ilmiy ishlarida korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi muhit ta'sirida korporativ resurslardan samarali boshqarish konsepsiyasini ilgari surishgan¹⁴. Olimlar fikricha, korxonalar barqaror rivojlanishi tashqi va ichki omillarning salbiy ta'sir etishiga qaramasdan moliyaviy barqarorlikni, bozordagi barqaror o'rnini, resurslar muvozanatini hamda korxonalar missiyasiga erisha olish qobiliyatidir¹⁵.

Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy tizimning tashqi ta'sirlar natijasidagi barqarorligi tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan tezkor va aniq choralari ko'rishi hisobiga ta'minlanadi.

Buyuk ilmiy maktab namoyandasi Shu bois Adam Smitning nisbiy ustunlik nazariyasi raqobatdagi ustunlik nazariyasi rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

¹⁴ Андреев В.В., Андреева Т.А. Анализ факторов устойчивого функционирования предприятия. – Новосибирск, РФ: НГУ, 2010

¹⁵ Зингер О.А. Формирования стратегии устойчивого развития промышленного предприятия: автореф. ... канд. экон. наук. – Пенза: Пензенский гос. ун-т, 2010.

XXI-asrda esa zamonaviy raqobatdagi ustunlik tushunchasiga birinchi bo‘lib taniqli Amerikalik iqtisodchi olim M. Potter o‘zining mashxur “raqobatdagi 5 kuch” nazariyasida asos solgan¹⁶.

M.Potter o‘z ilmiy tadqiqotlarida birinchi bo‘lib “raqobatdagi ustunlik” tushunchasini kiritadi. Uning konsepsiyasiga muvofiq, “raqobatdagi ustunlik” raqobatchi korxonalariga qaraganda ancha kam xarajatda yoki narx o‘zgargandagi qo‘shimcha qiymatdan yuqori bo‘lgan ustamali narxni nazorat qilishda ifodalanadi”¹⁷. Iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlilik o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida qaralgan. Raqobatbardoshlilikka korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta’sir qiladigan tashqi va ichki omillar bo‘yicha masalalarini o‘rganish o‘zgacha ahamiyat kasb etishi ta’kidlagan.

Biznes strategiyasi kontsepsiyasi o‘nlab yillar davomida mavjud bo‘lib, kompaniya strategiyasini ishlab chiqishda foydalaniladigan modellar va jarayonlar har bir biznes maktabida o‘qitiladi.

Biznes strategiyasi kompaniya qanday raqobatlashishini, uning maqsadlari qanday bo‘lishini va ushbu maqsadlarga erishish uchun qanday siyosatlarni qo‘llab-quvvatlashini belgilaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, kompaniya strategiyasi o‘z mijozlari, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qanday qiymat yaratishini tasvirlaydi. Kompaniyaning biznes strategiyasini ishlab chiqish va yangilash ulardan biri kompaniyaning rahbar xodimlarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Biz korxonada darajasidagi jarayonni tashvishga soladigan masalalarni muhokama qilishni ishbilarmonlarning biznes strategiyasi haqida qanday gaplashishidan boshlaymiz. Bu jarayonlarni keyingi muhokama qilishimiz uchun kerak bo‘ladigan bir qator atamalarni o‘rnatadi. Biznes strategiyasini ishlab chiqish uchun yuqori lavozimli rahbarlar o‘z kompaniyalari va uning raqobatchilarining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olishlari kerak. Shuningdek, ular raqobatdosh sohadagi tendentsiyalar, tahdidlar va imkoniyatlarni, shuningdek, kompaniya

¹⁶ Портер М.Э. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с.

¹⁷ Портер М.Э. Конкуренция: учеб. пособие: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2000. – 495 с.

faoliyat yuritadigan kengroq ijtimoiy, siyosiy, texnologik va iqtisodiy muhitlarni hisobga olishlari kerak.

Biznes strategiyasining turli maktablari mavjud. Ba'zilar strategik tahlilga juda tizimli yondashadigan rasmiy jarayonni yoqlaydi, boshqalari esa kamroq rasmiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ba'zilar dunyo shu qadar tez o'zgarimoqdaki, kompaniyalar o'zlarining yuqori martabali rahbarlarining instinktlariga bog'liq bo'lishi va tezda yangi lavozimlarni rivojlantirishlari kerak, deb ta'kidlaydilar.

Biznes strategiyasini tahlil qilish va ishlab chiqishga rasmiy yondashuv ko'pincha Garvard biznes maktabi bilan bog'liq. 1980-yilda nashr etilgan va hozirda 60-nashrida "Raqobat strategiyasi" so'nggi yigirma yil davomida eng ko'p sotilgan strategiya darsligi bo'ldi. Porterning yondashuvi yaxshi ma'lum va u bizga strategik menejment adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lganlar orasida yaxshi o'rnatilgan modellarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Bugungi kunda bir qator xorijiy va mamlakatimiz olimlarining raqobatbardoshlikka va korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiladigan tashqi va ichki omillarning ta'siri bo'lyicha berilgan tahlillar bo'yicha ilmiy yondashuvlar mavjud. M. Porterning raqobatdagi ustunlikka ta'sir qiladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan omillarni asoslovchi nazariyasining ulkan amaliy ahamiyatini qayd etish lozim. M. Porterning fikricha raqobatbardoshlik nazariyasi 1993 yilda chop etilgan "Xalqaro raqobat" va 2000 yilda e'lon qilingan "Raqobat" monografiyalarida bayon etilgan¹⁸.

Porterning ta'kidlashicha, "raqobat strategiyasini shakllantirishning mohiyati kompaniyani atrof-muhit bilan bog'lashdir". Porterning raqobat strategiyasidagi eng mashhur diagrammalardan biri biz 2.2-rasmda tasvirlangan diagrammadir. Porter diagrammasi, unda rahbarlar raqobatni qanday kontseptsiyalashtirgani haqida ko'p ma'lumotlarni birlashtiradi.

¹⁸ Paul Harmon. Chapter 2 - Strategy, value chains, business initiatives, and competitive advantage. Business Process Change (Fourth Edition) A Business Process Management Guide for Managers and Process Professionals 2019, Pages 27-50

Ular strategiyani ishlab chiqadilar, xalq orasida "besh kuch modeli" deb ataladi. Porter kompaniyani biznes strategiyasini o'zgartirishga majbur qilishi mumkin bo'lgan raqobat muhitidagi beshta o'zgarishlarni aniqlaydi. Ishbilarmonlik raqobatining yuragi, shubhasiz, sanoatni o'z ichiga olgan raqobatdosh kompaniyalar to'plamidir. Kompaniya va uning raqobatchilari:

- Sanoatdagi raqobatchilar. Raqib kompaniyalar harakat qilganda, kompaniya javob berishi kerak. Xuddi shunday, kompaniya o'z raqiblarini noqulay ahvolga solib qo'yish uchun o'z-o'zidan o'zgartirishlar kiritishni tanlashi mumkin. Porter bir necha boblarni kompaniyalarning sohada raqobatlash usullarini tahlil qilish uchun sarflaydi va biz bir zumda bunga qaytamiz. Sanoatni tashkil etuvchi kompaniyalar o'rtasidagi raqobatdan tashqari, sanoatdagi barcha kompaniyalarga potentsial ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhitda o'zgarishlar mavjud.

- Xaridorlar. Xaridorlar yoki mijozlar kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini iloji boricha arzonroq sotib olishni xohlashadi. Ba'zi omillar sotuvchiga ustunlik beradi: agar mahsulot kam bo'lsa, agar kompaniya mahsulotning yagona manbai yoki mahsulotning yagona mahalliy manbai bo'lsa yoki kompaniya allaqachon mahsulotni raqobatchilarga qaraganda arzonroq sotayotgan bo'lsa, sotuvchi uning narxlarini yaxshiroq nazorat qilishga moyil bo'ladi. Bu kabi omillarning teskarisi mijozga ko'proq savdolashish imkoniyatini beradi va kompaniyani uning hajmini kamaytirishga majbur qiladi. Agar bir-biri bilan raqobatlashayotgan ko'plab etkazib beruvchilar bo'lsa yoki xaridorlar uchun xarid qilish oson bo'lsa, narxlar pasayadi.

- Yetkazib beruvchilar. Shunga o'xshab, etkazib beruvchilar har doim o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini yuqori narxga sotishni xohlashadi. Agar etkazib beruvchilar kerakli mahsulotning yagona manbai bo'lsa, agar ular uni raqiblariga qaraganda tezroq etkazib bera olsalar yoki nisbatan kam mahsulotga talab ko'p bo'lsa, etkazib beruvchilar ko'proq savdolashish qobiliyatiga ega bo'ladilar va narxlarni oshiradilar. Aksincha, agar etkazib beruvchining mahsuloti keng tarqalgan bo'lsa yoki boshqa birovdan arzonroq bo'lsa, kompaniya (xaridor) ustunlikka ega bo'ladi va uni majburlashga harakat qiladi.

- O‘rinbosarlar. Har bir sohadagi kompaniyalar, shuningdek, kompaniya sotadigan mahsulot yoki xizmatlarning o‘rnini bosuvchi mahsulot yoki xizmatlar mavjud emasligini ko‘rishlari kerak. Hech bo‘lmaganda o‘rnini bosuvchi mahsulot kompaniya narxlarini pasaytiradi. Eng yomon holatda, yangi mahsulot kompaniyaning joriy mahsulotlarini eskirishiga olib kelishi mumkin. 20-asrning boshlarida ichki yonuvli avtomobillar yoki chizilgan aravalarni almashtirgandan so‘ng, qamchi ishlab chiqaruvchilar bankrot bo‘lishdi. Xuddi shunday, mavjudligi plastik mahsulotlarning ko‘payishi metall, shisha, qog‘oz va yog‘och mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni o‘z mahsulotlarini turli yo‘llar bilan o‘zgartirishga majbur qildi¹⁹.

Biq qator xorijiy olimlar D.J.Robinson, E.Chemberlen, P.Samuelson, A.Smit, Y.Shumpeter va boshqalar raqobatni tadqiq etishda ishlab chiqarishdagi ustunlikka ta’sir qiladigan tashqi va ichki omillarni o‘rganishga e’tibor qaratishib, omillarni mahsulot raqobatbardoshligiga ta’sir qiladigan va xo‘jalik yurituvchi sub’ektning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladigan omillarga ajratishgan.

Boshqa bir guruh olimlar esa A.Tompson, A.E.Striklend, V.N.Fomin, P.S.Zavyalova, D.Krevens, K.V.Pivovarovlarning fikricha raqobatbardoshlikka narx, xizmat xarajatlari, marketing xarajatlari, kompaniyaning bozordagi imiji va brendi kabi omillar ta’sir qiladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, mahsulot raqobatbardoshligining yakuniy mezonini – bu mazkur mahsulot egallaydigan bozor ulushining hajmi sifatida e’tiborni qaratgan²⁰.

Iqtisodchi olim D.Krevens²¹ tadqiqotlarida omillarni funksional jarayonlarning yo‘nalishiga qarab tashqi va ichki omillarni guruhilarga ajratishni

¹⁹ Paul Harmon. Chapter 2 - Strategy, value chains, business initiatives, and competitive advantage. Business Process Change (Fourth Edition) A Business Process Management Guide for Managers and Process Professionals 2019, Pages 27-50

²⁰ Фомин В.Н. Квалиметрия. Управление качеством. Сертификация. – М.: ЭКМОС, 2000; Завьялов П.С. Маркетинг в схемах, рисунках, таблицах: учеб. пособие. – М.: Инфра-М, 2001; Кревенс Дэвид В. Стратегический маркетинг: пер. с англ. – 6-е изд. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2003; Маркова В.Д., Кузнецова С.А. Стратегический менеджмент: Курс лекций – М., Новосибирск: ИНФРА-М: Сибирское соглашение, 2001; Пивоваров К.В. Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций. – 2-е изд. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2005; Томпсон-мл. А., Стрикленд А. Дж. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации для анализа: пер. с англ. – 12-е изд. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2003.

²¹ Кревенс Дэвид В. Стратегический маркетинг: пер. с англ. – 6-е изд. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2003

taklif qilgan. Tashqi jarayonlar korxonaning tashqi muhit bilan bog'lagan holda qayta aloqani ta'minlagan holda tashqi aloqalarni shakllantiradi. Ichki jarayonlar esa iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligini bilan ifodalagan.

Iqtisodiy barqarorlik bo'yicha o'rganilgan ilmiy asarlarni tahlil qilish natijasida korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladigan omillarning eng asosli jihatlari Artur A. Tompson, A.J.Striklend, Devid Krevens va Ye.P.Golubkovning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Boshqa mualliflarning ko'plab ilmiy ishlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keltirilgan yondashuvlaridan foydalanilib, barqarorlik tushunchalari rivojlantirilgan va aniqlashtirilgan. M. Porterning klasik nazariyasi va yuqorida tilga olingan iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarining tahlillariga asoslangan holda, korxonaning raqobatbardoshligi va iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiladigan tashqi omillarni to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan omillar va bilvosita ta'sir qiladigan omillarga ajratish mumkinligi bilan izohlanadi.

Korxonaning faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi omillarga mijozlar, raqobatchilar, yetkazib beruvchilar va tartibga solish tizimi kiradi. Kompaniyaning iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lmagan ya'ni bilvosita omillarga bozorning geografik chegaralari iqtisodiyotning umumiy holati, mamlakatning siyosiy holati, ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar darajasi, mehnat bozori va malakali mutaxassislarining mavjudligi kiradi. Bu omillar korxonaning faoliyatiga to'liq bog'liq emas. Shu bois ularni korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillar sinfiga kiritish mumkin. Xulosa qilish mumkinki, korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiladigan ichki omillarni baholashga qadar yagona yondashuv to'liq shakllanmagan.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida raqobatbardoshlikning ichki omillari birinchi navbatda korxonani rivojlantirish uchun to'g'ri tanlangan strategiyasi, korxonaning boshqaruv samaradorligi va o'zini

o‘zi rivojlantirish moliyaviy ta‘minlanganlik imkoniyati, ya‘ni o‘z iqtisodiy faoliyati hisobidan iqtisodiy o‘shish bilan belgilanishi sifatida xulosaga kelish mumkin²².

Taniqli xorijiy iqtisodchi olim O.A.Zinger barqaror rivojlanishni moliyaviy strategiya hamda moliyaviy va investitsion menejment samaradorligi bilan bog‘laydi, marketing, ishlab chiqarish va innovatsion barqarorlikni o‘rganadi²³. Uning so‘zlariga ko‘ra, raqobatdosh ustunlik boshqa ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga qaraganda past narxlarda namoyon bo‘ladi - bu raqobatning asosidir. Kompaniyalar ichki omillarni boshqarish hisobiga o‘z resurslaridan samarali foydalanish orqali raqobatdosh ustunlikni ta‘minlaydi. Mahsulotning raqobatbardoshligi iqtisodiy barqarorlikning asosi hisoblanib, mahsulotning ushbu bozorda iste‘molchilarni qoniqtiradigan xususiyatlarini aks ettiradi. Shundan kelib chiqib, korxonaning raqobatdagi ustunligini shakllantiradigan va ilmiy asoslangan ishlab chiqarish barqarorligiga ta‘sir qiladigan ichki omillar tasnifini taklif etadi.

Kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi ularning moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini tavsiflaydi. Kadrlar barqarorligi - bu xodimlar tarkibining barqarorligi va xodimlarning qobiliyat potentsialini anglatadi. Korxonaga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillar o‘zaro bog‘liq - bir tomondan, tashqi omillar ichki omillarga ta‘sir qilsa, ikkinchi tomondan, ichki omillar tashqi omillarga sezilarli darajada ta‘sir qilishini ko‘rish mumkin.. boshqaruv jarayonidagi omil.

Shunday qilib, kompaniya o‘z faoliyati davomida tashqi omillarga ta‘sir qila olmaydi, lekin tashqi omillarning salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun ichki omillarni nazorat qilishi mumkin. To‘g‘ri boshqaruv orqali kompaniya tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslasha oladi va barqarorlik holatini saqlab qoladi.

1930-yillarda raqobatning rivojlanishida bozor munosabatlariga o‘tish katta rol o‘ynadi. “Iste‘molchi-ishlab chiqaruvchi” munosabatlarida iste‘molchining roli ortdi, ishlab chiqaruvchi bozorning mavhum sharoitlarida omon qolish yo‘llarini

²² Андреев В.В., Андреева Т.А. Анализ факторов устойчивого функционирования предприятия. – Новосибирск, РФ: НГУ, 2010

²³ Зингер О.А. Формирования стратегии устойчивого развития промышленного предприятия: автореф. ... канд. экон. наук. – Пенза: Пензенский гос. ун-т, 2010

izlashi kerak. Klassik iqtisodchi I. Ansoffning fikricha, muvaffaqiyatga erishish uchun ishlab chiqaruvchi yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqish va sohadagi tez o'zgarishlarni kuzatib borishi kerak. Shu tariqa, bozor ehtiyoji va talablariga ko'p jihatdan javob berishga intilish hisobiga korxonaning ham tashqi, ham ichki muhitida sezilarli rivojlanish yuz berishi, mavjud boshqaruv tizimlari esa buni uddalash imkoniyatiga ega emasligini kuzatish mumkin²⁴.

Boshqaruv ob'ekti va ish muhitining haddan tashqari murakkabligi muammosiga echimlarni izlash moslashuvchan boshqaruv yondashuvining rivojlanishiga olib keldi. Shu sababli, moslashuvchan boshqaruv raqobatning ta'sirini hisobga olish va barqarorlikning ichki omillarini samarali boshqarish tufayli kompaniya barqarorligini ta'minlash uchun dastlabki choralarni ko'rish zarurligiga javob sifatida paydo bo'ldi. Shuning uchun moslashuvchan boshqaruv kompaniyaning barqaror ishlashi va rivojlanishini ta'minlashning bir usuli sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Iqtisodiy barqarorlikning har bir qismi moslashuvchan boshqaruv ob'ekti bo'lishi kerak.

Holbuki har qanday tadbirkorlik sub'ekti faoliyatining asosiy maqsadi yuqori daromad olish ekan, korxonada faoliyatini baholash nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan yondoshuvlar yetarli bo'lsada, iqtisodiy barqarorlikni baholash ko'rsatkichlari asosida avvalambor moliyaviy ifodasida hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlar bo'lishi lozim.

Jumladan, sanoat tarmoqlarida menejment strategiyasini amalga oshirishda iqtisodchi olimlar V. Kattakishiev, I. Mamayusupov tashkilotning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, strategiyani amalga oshirishdagi o'zgarishlarga menejmentning tayyorgarligi, taklif etilayotgan strategiyani biznesning ichki va tashqi qatnashchilariga, shuningdek, kompaniyaning jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga ta'sirini hisobga olish zarur ekanligini ko'rsatib o'tgan²⁵.

Samaradorlik korxonada faoliyatining umumiy natijalarining ahamiyatini aks ettiradi, iqtisodiy barqarorlik esa korxonada xo'jalik faoliyatini tahlil qilish asosida

²⁴ The Essential Drucker: The Best of Sixty Years of Peter Drucker's Essential Writings on Management (2001).

²⁵ Kattakishiev B., Mamayusupov I. Strategik menejment fanidan praktikum. – T.: Fan va texnologiyasi, 2008. – 232 bet.

ishlab chiqarish iqtisodiyoti, moliyaviy va iqtisodiy faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi.

Ehtimol, bu yondashuvlarning har biri o'zining afzalliklariga ega, ammo ularning mantiqiy tahlili ba'zi kamchiliklarni aniqlaydi. Masalan, M. Makarovaning ta'rifiga ko'ra²⁶, u qisman o'ziga zid keladi. Bu shuni anglatadiki, muallifning fikricha, korxonalarining iqtisodiy barqarorligi - bu barqaror foydani ta'minlovchi va foyda va kapitalning o'sishiga asoslangan ekstensiv takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning zaruriy sharti bo'lgan resurslar balansi holati. hisob qaydnomasi hisobning ichki resursi. va tashqi omillar.

Bir tomondan, u uzoq muddatli istiqbolda barqaror foyda olishni nazarda tutadi.

Boshqa tomondan, bu daromadning oshishini anglatadi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday kompaniyaning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin, chunki integratsiyalashgan va beqaror bozor sharoitida tashqi ta'sirlar kompaniyaning barqaror rivojlanishiga turtki bo'lolmaydi.

Fikrimizcha, sof foyda sanoat korxonasi faoliyatini o'lchash uchun eng muhim ko'rsatkich bo'lib, u korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash imkoniyati bilan belgilanadi.

Ye.V.Shevrinaning fikricha²⁷, iqtisodiy barqarorlik salohiyatni saqlash va oshirish qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu yondoshuv muallif tomonidan istiqbolli yondoshuv deb e'tirof etiladi, biroq u yoki bu sohada to'plangan salohiyati yuqori bo'lgan korxonalar ulardan samarasiz foydalanish natijasida har yili o'z ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini pasaytirishi mumkin.

Jumladan, iqtisodchi olimi Qosimova D.S. fikricha, sanoat iqtisodiyotida tovarlar bozorlari o'rni muhim ahamiyat kasb etadi va unga quyidagi yondashuvni beradi: sanoat uchun mo'ljallangan tovarlar bozori – boshqa tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida menejment va boshqa iste'molchilarga sotilgan tovar

²⁶Макарова М.А. Факторы экономической устойчивости нефтяной компании / М.А. Макарова // Маркетинг. - 2004. - №3(76). – С.93-97.

²⁷Шеврина Е.В. Оценка экономической устойчивости сельскохозяйственных предприятий (на примере Оренбургской области) / Е.В. Шеврина: Автореф. дис. ... канд. экон.наук. - Челябинск, 2000. – 23с.

va xizmatlar sotib oluvchi shaxslar hamda tashkilotlar yangiligidir. Tovar nomenklaturasi va pul oboroti hajmi jihatidan sanoat uchun mo'ljallangan tovarlar bozori keng iste'mol tovarlari bozoridan ustun bo'ladi deya ta'kidlagan²⁸.

Shu o'rinda, korxonaning iqtisodiy barqarorligi tushunchasining mohiyati va mazmunini ko'rib chiqish jarayonida O.A. Zaysev quyidagicha ta'rif beradi: iqtisodiy barqarorlik – bu korxonaning tashqi muhitning salbiy ta'sirida samarali faoliyat ko'rsatishi va barqaror progressiv rivojlanish qobiliyatini saqlab beraoladigan holatidir²⁹.

Ushbu muallifning ishlarida korxonalar o'z-o'zini boshqariladigan tizim sifatida o'rganilib, u ikkita o'zaro bog'langan kichik tizimlar – boshqaradigan, boshqaruvning kichik tizimlari va boshqariladigan, ya'ni boshqarish ob'ektidan iborat.

Ichki va tashqi barqarorlik o'zaro aloqadorlikda butun korxonaning iqtisodiy barqarorligini shakllantiradi. Bir tomondan, tashqi muhit korxonaning ichki barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan – ichki barqaror holatning mavjudligi tashqi barqarorlikda aks etadi, bu esa korxonaning yuqori raqobatbardoshligini ta'minlaydi va biznes sohasida tegishli nufuzini ta'minlaydi.

Shu o'rinda, E.M. Korotkov³⁰, D. Kovalev va T. Suxorukova³¹, Z.V. Korobkova³², A.D. Sheremet³³, Y. Shumpeter³⁴ shu kabi olimlar korxonaning iqtisodiy barqarorligini moliyaviy holat bilan tenglashtirib, unda korxonaning zarar bo'lib ishlashi asosiy rol o'ynaydi, bankrotlik esa korxonalarning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun mo'ljallangan institutlardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

²⁸ Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: Darslik. – T.: Tafakur Bo'stoni. 2011. – 336 b.

²⁹ Зайцев О.А. Оценка экономической устойчивости промышленных предприятий (на примере производства строительных материалов) / О.А. Зайцев: дис. канд. экон. наук. – Хабаровск, 2007. – С.17.

³⁰ Коротков Э.М., Антикризисное управление. М.: ИНФРА-М, 2007. – С. 68.

³¹ Ковалев Д., Сухорукова Т. Экономическая безопасность предприятия // Экономика Украины. – 1998. – №5. – С.48-52.

³² Коробкова З.В. Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации // Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения: сб. науч. тр. – Новосибирск, 2006. – С. 57-58.

³³ Шерemet А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 415 с.

³⁴ Шумпетер Й.А. История экономического анализа: перевод с англ. – М.: Экономическая школа, 2008. – С.98.

O.V. Zetkinaning fikricha³⁵, iqtisodiy barqarorlik – bu ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va korxonani boshqarish samaradorligini oshirish hisobiga rentabelli ishlab chiqarish-tijorat faoliyatini ta'minlash, aktivlar tarkibini yaxshilash hamda dinamik holda rivojlanayotgan tashqi muhit sharoitlarda o'z-o'zini moliyalashtirish hollarda korxonaga quvvatini barqaror rivojlanish va jamoaning ijtimoiy rivojlanishi hisobiga barqaror moliyaviy holatini ta'minlashdir.

Iqtisodiy barqarorlik bankrotlik xavfiga bardosh bera olish qobiliyatini nazarda tutadi degan fikr to'g'ri, ammo faqatgina iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik tenglashtirilgan hollarda. Shu bilan birga ko'plab olimlarning fikricha “korxonaning iqtisodiy barqarorligi” uning moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur fikrga mahalliy olimlar T.S. Malikov, O.O. Olimjonov³⁶, M.K. Pardaev, B.I. Isroilov³⁷, N. Xasanov, S. Najbiddinov³⁸, P.T. Jalilov³⁹ qo'shilmoqda.

A.I. Romanovava S.V. Sokolov yondoshuvlari biz uchun qiziqarli hisoblanadi. Xususan, A.I.Romanovanning fikricha iqtisodiy barqarorlik – vaqt makonida harakatlanuvchi ishlab chiqarish tizimining har qanday tashqi va ichki ta'sirlarda o'z harakatlanish yo'lidan og'ishmay faoliyat ko'rsatish qobiliyatidir⁴⁰. S.V. Sokolovning hisoblashicha, korxonaning iqtisodiy barqarorligi – korxonada sodir bo'lgan yoki kelajakda ko'zda tutilgan o'zgarishlarga moslashuvdir⁴¹.

Birinchi yondoshuvni tanlaganda “ishlab chiqarish tizimining harakati” toifasini aniqlashda qiyinchilik paydo bo'ladi, aniqrog'i qaysi harakati maqbul hisoblanadi va kimning nuqtai nazardan.

³⁵Zetkina O.V. Об управлении устойчивостью предприятия. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2003, с. 128

³⁶Маликов Т., Олимжонов О. Молиявий менежмент. Т.: “Академия”, 1999. – 192 б.

³⁷Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Молиявий таҳлил (Услугий кўргазмалар ва тавсиялар альбоми). –Т.:“Иқтисодийёт ва ҳуқуқ дунёси”, 1999. – 234 б.

³⁸Хасанов Н., Нажбиддинов С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш. -Т.:“Иқтисодийёт ва ҳуқуқ дунёси”, 1999. – 224 б.

³⁹Жалилов П.Т. Энергетика корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари. Иқтисод фанлари номзоди дисс...автореферати. –Т.:ЎзР БМА, 2007. – 20 б.

⁴⁰Романова А.И. Экономическая устойчивость предприятия: постановка проблемы / А.И. Романова // Известия вузов: Строительство - 2002 - №7 – С. 62–72.

⁴¹Соколов С.В. Совершенствование механизма устойчивого развития экономики предприятия (на примере горного машиностроения) /С.В. Соколов :Автореф. дис. ... канд. экон. наук. - Екатеринбург, 2002. – 24 с.

Ikkinchi yondoshuvda “moslashuvi” atamasi qo‘llanilib, u “barqarorlik” bilan birga murakkab semantik yukga ega. Biroq moslashuv, ko‘pincha, korxonaning tashqi muhitining o‘zgarishi ostida moslashish qobiliyatini aks ettiradi⁴², iqtisodiy barqarorlik esa, korxonaning ichki holatini ham aks ettiradi.

Keltirilgan tahlil asosida shunday xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy barqarorlikning asosiy tavsiflarining biri sanoat korxonasi o‘z faoliyatidagi asosiy ko‘rsatkichlarining, masalan foydaning oshishida ifoda etadigan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlaydigan muayyan holatni saqlash hisoblanadi.

1.1.1-jadval

Bugungi kunda “barqarorlik” va “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlar tahlili⁴³

Mualliflar	“Barqarorlik” va “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlar
A. Vald, L. Valras, P. Samuelson, Dj. R. Xiks va boshqalar ⁴⁴	“Barqarorlik” – bubozor muvozanati va ularga erishish sharoitini o‘rganish natijasidir.
R.A. Popov ⁴⁵	“Tizim barqarorligi” quyidagi turlarga bo‘lingan: – umumiy barqarorlik (ichki va tashqi unsurlarning tartiblangan integrativ yig‘indisining holati); – tarkibiy barqarorlik (subordinar ichki unsurlarning holati); – omilli barqarorlik (alohida, asosan tashqi omillar ta’siri ostidagi holat).
Misxojev E.R. ⁴⁶	“Iqtisodiy barqarorlik” – sanoat korxonaning yahlitligini, uning ichki tuzilma (ishlab chiqarish-xo‘jalik, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv tuzilma)ning tarkiblarini uzluksiz takomillashtirish yo‘li bilan moslashish mexanizmi asosida hamda tashqi bozor muhiti talablariga muvofiq holda har bir davrda qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi parametrlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlanadigan holatdir.

⁴²Куприн А.А. Основные факторы влияния на адаптивность систем управления предприятием /А.А. Куприн // Проблемы современной экономики. 2010. №4. <http://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-factory-vliyaniya-na-adaptivnost-sistem-upravleniya-predpriyatiem> электрон сайтдан 15.06.2017 й. юклаб олинган.

⁴³Muallif izlanishlari asosida ishlab chiqilgan.

⁴⁴ Чупров С.В. Развитие научных воззрений об устойчивости экономических систем в исторической ретроспективе / С.В. Чупров // Историко-экономические исследования. – 2013. – Т. 14, № 1-2. – С. 15–32.

⁴⁵Попов Р.А. Антикризисное управление: Учеб. для вузов. М., 2004. – 429 с.

⁴⁶Мисхожев Э.Р. Теория и методология управления экономической устойчивостью промышленных предприятий / Э.Р. Мисхожев: Автореф. дис. ... док.эком.наук. - Санкт-Петербург, 2013. – 16 с.

Mualliflar	“Barqarorlik” va “iqtisodiy barqarorlik” tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlar
M.A. Makarova ⁴⁷	“Korxonaning iqtisodiy barqarorligi” – ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda uzoq muddatli istiqbolda foyda va kapitalning o‘sishi asosida keng takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun barqaror foyda va normal sharoitlarni ta’minlab beradigan texnika-iqtisodiy resurslarning muvozanatlashgan holatidir.
Ye.V. Shevrina ⁴⁸	“Iqtisodiy barqarorlik” – bu korxonaning salohiyatini saqlash va oshirish qobiliyati bilan belgilanadi.
O.A. Zaysev ⁴⁹	“Iqtisodiy barqarorlik” – bu korxonaning tashqi muhitning salbiy ta’sirida samarali faoliyat ko‘rsatishi va barqaror progressiv rivojlanish qobiliyatini saqlab beraoladigan holatidir.
E.M. Korotkov, D. Kovalev, T. Suxorukova, Z.V. Korobkova, A.D. Sheremet, Y. Shumpeter ⁵⁰	“Korxonaning iqtisodiy barqarorligi” korxonaning moliyaviy holati bilan teng, unda korxonaning zarar bo‘lib ishlashi asosiy rol o‘ynaydi, bankrotlik esa korxonalarning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan institutlardan biri sifatida qarash mumkin.
O.V. Zetkina ⁵¹	“Iqtisodiy barqarorlik” – bu ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va korxonani boshqarish samaradorligini oshirish hisobiga rentabelli ishlab chiqarish-tijorat faoliyatini ta’minlash, aktivlar tarkibini yaxshilash hamda dinamik holda rivojlanayotgan tashqi muhit sharoitlarda o‘z-o‘zini moliyalashtirish hollarda korxonaning quvvatini barqaror rivojlanish va jamoaning ijtimoiy rivojlanishi hisobiga barqaror moliyaviy holatini ta’minlashdir.
T.S. Malikov, O.O. Olimjonov, M.K. Pardaev, B.I. Isroilov, N. Xasanov, S. Najbiddinov, P.T. Jalilov ⁵²	“Korxonaning iqtisodiy barqarorligi” uning moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

⁴⁷Макарова М.А. Факторы экономической устойчивости нефтяной компании / М.А. Макарова // Маркетинг. - 2004. - №3(76). – С.93-97.

⁴⁸Шеврина Е.В. Оценка экономической устойчивости сельскохозяйственных предприятий (на примере Оренбургской области) / Е.В. Шеврина: Автореф. дис. ... канд. экон.наук. - Челябинск, 2000. – 23с.

⁴⁹Шеврина Е.В. Оценка экономической устойчивости сельскохозяйственных предприятий (на примере Оренбургской области) / Е.В. Шеврина: Автореф. дис. ... канд. экон.наук. - Челябинск, 2000. – 23с.

⁵⁰Шеврина Е.В. Оценка экономической устойчивости сельскохозяйственных предприятий (на примере Оренбургской области) / Е.В. Шеврина: Автореф. дис. ... канд. экон.наук. - Челябинск, 2000. – 23с.; Ковалев Д., Сухорукова Т. Экономическая безопасность предприятия // Экономика Украины. – 1998. – №5. – С.48-52.; Коробкова З.В. Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации // Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения: сб. науч. тр. – Новосибирск, 2006. – С. 57-58.;Шерemet А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 415 с.;Шумпетер Й.А. История экономического анализа: перевод с англ. – М.: Экономическая школа, 2008. – С.98.

⁵¹Зеткина О.В. Об управлении устойчивостью предприятия. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2003, с. 128

⁵²Маликов Т., Олимджонов О. Молиявий менежмент. Т.: “Академия”, 1999. – 192 б.;Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Молиявий тахлил (Услужий кўргазмалар ва тавсиялар альбом). –Т.:“Иқтисодийёт ва ҳуқуқ дунёси”,

Boshqacha qilib aytganda, ko‘rib chiqilgan yondoshuvlarning har biri iqtisodiy o‘shishning alohida jihatlariga e‘tiborni qaratishni nazarda tutadi. Bu, o‘z navbatida, S.V.Fedoseevning fikricha ham korxonalar rivojining asosiy maqsadi hisoblanib, ishlab chiqarish resurslaridan ekstensiv va intensiv foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga iqtisodiy natijalarni oshirish, hamda xarajatlarni kamaytirishni nazarda tutadi⁵⁹.

Yuqorida keltirilgan korxonalarining iqtisodiy barqarorligi tushunchalari bo‘lgan yondoshuvlar tahlilidan kelib chiqqan holda 1.1.1-jadvalda keltirilgan holda tasniflash mumkin.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi bo‘yicha bugungi kunda shakllangan yondoshuvlardan shuni xulosa qilish mumkin, birinchidan, mazkur toifaning mazmuniga bo‘lgan yagona qarash va ta‘riflarning yo‘qligi, ikkinchidan, sanoat korxonasiga tegishli bo‘lgan ushbu ta‘rifning asosiy talablarini shakllantirishga imkon berdi:

– iqtisodiy barqarorlik ta‘rifi quyidagilarga asoslanmog‘i lozim: iqtisodiy barqarorlik darajasi baholanayotgan korxonaning tarmoqqa tegishliligi va o‘ziga xosligi; korxonaning xo‘jalik yuritish faoliyatiga ichki va tashqi omillarning ta‘sir ko‘rsatishi; moddiy resurslardan samarali foydalangan holda iqtisodiy barqarorlikni ushlab turish;

– “iqtisodiy barqarorlik” atamasiga ta‘rif berganda nafaqat resurs bilan bog‘liq to‘siqlar, balki qonunchilik bazasi, davlatdagi siyosiy vaziyat va h.k. bilan bog‘liq to‘siqlarning mavjudligini ham hisobga olish lozim;

– “iqtisodiy barqarorlik” atamasiga ta‘rif berishda uni asoslovchi ko‘rsatkichlar va o‘zgarish tendensiyasi tavsifi ham aks etishi lozim;

– “iqtisodiy barqarorlik” toifasini “sanoat korxonasi” nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqanda korxonaning tarmoqqa oidligi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi;

⁵⁹ Федосеев С.В. Стратегический потенциал базовых отраслей промышленности : монография / С. В. Федосеев // Рос. акад. наук, Кол. науч. центр, Ин-т экон. проблем, М-во образования Рос. Федерации, С.-Петербург. гос. политехн. ун-т. - Апатиты; Санкт-Петербург: КНЦ РАН, 2003. – 268 с.

– har qanday korxonaning asosiy maqsadi korxonaga qiymatini oshirish hisoblanadi va bunda korxonaning rivojlanish strategiyalarini tahlil qilish va bozor o'zgarishlariga asoslanib qayta ishlab chiqish asosida korxonaning pul oqimlari miqdorini oshirishni hisobga olish lozim;

– sanoat korxonasi xo'jalik yuritish jarayoniga tashqi muhit ta'sirining mavjud va balki umuman bartaraf etib bo'lmaydigan noaniqliklarini hisobga olish lozim;

Yuqorida keltirilgan turli iqtisodchi olimlarning ta'riflaridan kelib chiqqan holda, korxonaning iqtisodiy barqarorligini aniqlashda quyidagilarni hisobga olish lozim:

1. Korxonaga iqtisodiy barqarorligi iqtisodiy muvozanatni ushlab turish bilan bir qatorda korxonaning tashqi ta'sirlar ostida yanada barqaror rivojlanish tendensiyasiga o'tishini ifodalaydi.

2. Korxonaning iqtisodiy barqarorligi dinamik toifa bo'lib, u korxonaga xo'jalik yuritish faoliyati holatining vaqt oralig'ida o'zgarishi bilan bog'liq hamda uning muvozanatini tiklash qobiliyatini o'zida namoyon etadi.

3. Korxonaning iqtisodiy barqarorlik darajasi qiymat va sifat jihatdan iqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdori yig'indisi bilan aniqlanishi mumkin.

Shunday qilib, kimyo sanoati korxonasining iqtisodiy barqarorligi – bu korxonaning rentabelligini va barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi hamda hozirgi zamonda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning amal qilishi to'xtatilgandan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beradigan iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini ushlab turish qobiliyatidir.

Xulosa qilib aytganda sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi – bu barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi hamda hozirgi zamonda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning ta'siridan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beradigan iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini ushlab turish qobiliyatidir.

1.2. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning xorijiy davlatlar kompaniyalari tajribasi

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarning jadallashishi va jahon bozori kon'yunkturasi kechkin tebranishi sharoitida korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash dolzarb hisoblanadi. Bunday sharoitda jahondagi yirik kompaniyalar o'zlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning turli hil manbalari va noan'anaviy shakllaridan foydalanmoqda. Bunga xususan, lizing, f'yuchers, faktoring, overdraft, kontrolling va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Xususan, bugungi kunda dunyoning yirik rivojlangan kompaniyalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kontrolling tizimidan keng foydalanilmoqda.

Ma'lumki, XXI asrning oxirlariga kelibgina xo'jalik yuritish sub'ektlarini strategik boshqarishga qaratilgan turli xil yondoshuvlar shakllanib, ular hisob yuritish konsepsiyasidan ustun bo'la boshlagan. Xususan, ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda kontrolling tizimini joriy etishning korxonashlab chiqarish-xo'jalik, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy-boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatish bo'yicha miqdor jihatdan baholashga deyarli e'tibor qaratilmagan. Jumladan, ayrimtadqiqotchilar kontrollingni joriy etishning ijobiy jihatlari bo'yicha o'z ilmiy ishlarida aks ettirishganligiga qaramay kontrolling tizimini joriy etishning korxonalar iqtisodiy barqarorligi ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatish bo'yicha miqdorjihatdan baholash amalga oshirilmagan.

Jumladan, o'zbek iqtisodchi olimlari Nurimbetov R.I. va Axmedov S.I.lar ilmiy izlanishlarida AQShda mahsulot sifatini boshqarish tajribasida sanoatning keng iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bilan tez sur'atlarda rivojlana boshlaganini tadqiq etishgan. Lekin tovarlarning sifati ancha past darajada ekanligini aniqlashgan. Amerikalik mutaxassislar ta'kidlashicha, korxonalar joriy xarajatlarning 25-30 foizi mahsulot nuqsonlarini aniqlashga va topishga sarflanar edi. Nuqsonli mahsulotlarni almashtirish uchun ketgan xarajatlar umumiy xarajatlarning 30 foizidan ham oshib ketishiga olib kelardi. AQShlik ko'pgina mutaxassislar

sifatning pastligi mehnat unumdorligining va raqobatbardoshlikning oshishiga asosiy to'siq deb hisoblashardi. Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, sifatni oshirish – hech qachon tugamaydigan ishdir. “Yapon mo‘jizasi”ning asosiy konsepsiyasi – xoh ishlab chiqarish, xoh boshqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘lsin, mukammal texnologiyadir deya ta’kidlagan⁶⁰.

Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda kontrolling tizimini joriy etish bo‘yicha xorij tajribasini tahlil qilish va ishlab chiqilgan uslubiy yondoshuvlardan foydalanish asosida olingan natijalar asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ayrim faoliyat sohalari hamda butun korxonada kontrolling tizimini joriy etish samaradorligini oshirishga ta’sir etishi yuzasidan umumiy xulosalar olishga imkon beruvchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Quyida konsalting va audit sohasida faoliyat yurituvchi PricewaterhouseCoopers⁶¹ xalqaro kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida xorijiy korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish samaradorligi tahlil qilingan (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Xorijiy davlatlar sanoat kompaniyalarida kontrolling tizimini joriy etish samaradorligi⁶²

Kompaniya nomi	Boshqaruv samaradorligi o'sish sur'ati, %	Ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi o'sish sur'ati, %
Sony	25,0	18,4
Samsung	24,2	18,0
LG	18,7	25,9
Akai	11,8	8,4
Kodak	11,7	31,9

⁶⁰ Nurimbetov R.I., Ahmedov S.I. Ishlab chiqarish menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2008. – 112 bet.

⁶¹ The Pricewaterhouse Cooper's bulletin №2. – London, 2002. – 43 p.

⁶² Худякова, Т.А. Внедрение контроллинговых технологий как способ повышения эффективности деятельности предприятия / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2016. – Т. 10. – № 4. – С. 30–36.; Худякова, Т.А. Принципы определения эффективности затрат на внедрение системы контроллинга на промышленном предприятии / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2014. – № 4 (8). – С. 135–138.; Худякова, Т.А. Принципы оценки уровня финансово-экономической устойчивости предприятия на основе применения вероятностно-статистических моделей / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». – 2015. – Т. 9. – № 3. – С.41–43.

Kompaniya nomi	Boshqaruv samaradorligi o'sish sur'ati, %	Ishlab chiqarish jarayonlari samardorligi o'sish sur'ati, %
Nokia	10,2	25,3
Mazda	9,9	22,9
Siemens	9,3	21,5
British Petroleum	9,1	19,6
Shell	8,6	19,0
AIG Brunswick Capital	7,2	14,9

Ehtimollikni taqsimlash qonunining to'g'rililigi uchun tanlovlarni tekshirish natijalari shundayxulosaga olib kelishga imkon beradiki, boshqaruv samaradorligi o'sishi sur'atlari hamda ishlab chiqarish jarayonining samardorlik o'sishi sur'atlari miqdorlari to'g'ri taqsimlash qonuniga bo'ysinadi. Kontrolling tizimini joriy etish samardorligi ko'rsatkichlarining o'zgarish oralig'i, jumladan boshqaruv samardorligi o'sish sur'ati bo'yicha 7,2% – 25,0% va ishlab chiqarish jarayonlari samardorligi o'sish sur'ati bo'yicha 8,4% – 25,9%.

1.2.2-jadval

Xorijiy davlatlar sanoat kompaniyalarining ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarini kontrolling tizimini joriy qilish natijasida o'zgarishi⁶³

Kompaniya nomi	Investitsion jozibadorlik darajasining o'sish sur'ati, %	Xujjat aylanish samardorligi o'sish sur'ati, %	Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik o'sish sur'ati, %
British Petroleum	+11,4	+5,2	+6,3
Tesco	+9,3	+11,6	+8,9
METRO GROUP	+7,2	+15,3	+22,1
Cristall Gross	+6,5	+11,3	+22,5
Ford	+1,2	+14,8	+6,3
Mazda	+16,8	+27,6	+9,9
Bayer AG	+3,5	+5,2	+2,2
Schwarzkopf	+6,3	+8,9	+9,3

⁶³Худякова, Т.А. Внедрение контроллинговых технологий как способ повышения эффективности деятельности предприятия / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2016. – Т. 10. – № 4. – С. 30–36.;Худякова, Т.А. Принципы определения эффективности затрат на внедрение системы контроллинга на промышленном предприятии / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2014. – № 4 (8). – С. 135–138.;Худякова, Т.А. Принципы оценки уровня финансово-экономической устойчивости предприятия на основе применения вероятностно-статистических моделей / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». – 2015. – Т. 9. – № 3. – С.41–43.

Kompaniya nomi	Investitsion jozibadorlik darajasining o'sish sur'ati, %	Xujjat aylanish samaradorligi o'sish sur'ati, %	Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik o'sish sur'ati, %
Oriflame	+3,3	+9,3	+5,7
Motorola	+6,8	+9,3	+11,0
Chivas	+3,9	+1,6	+5,2
Huawei	+16,5	+11,9	+3,5
Ziegler	+0,2	+0,96	+0,45
Singer Corporation	+1,6	+2,9	+3,6
Renault	+13,3	+6,9	+9,2
IBM	+33,9	+11,8	+6,9

Jumladan, xorijiy sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligi o'sishi uchun matematik taxminlar 13,25%, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligining o'sish sur'ati esa – 20,53%ni tashkil etadi. Shu bilan birga korxonada kontrolling qilish tizimini joriy etish samaradorligi bo'yicha hisoblangan integral ko'rsatkichi 16,49%ni tashkil etadi⁶⁴.

Kontrolling tizimini joriy etish natijasida xorijiy sanoat korxonalarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining o'zgarishini tahlili natijalari ushbu xo'jalik sub'ektlari rivojlanishining quyidagi ijobiy tendensiyalarini aniqlashga imkon beradi (1.2.2-jadval).

Birinchidan, korxonada u yoki bu turdagi kontrolling tizimini joriy etish natijasida investitsion jozibadorlik darajasini o'rtacha 90%gacha oshirishga imkon bergan (IBM kompaniyasi maksimal o'sishini namoyish etgan – 33,9%).

Ikkinchidan, hujjatlar aylanish samaradorligini o'rtacha 10%ga oshirish imkonini bergan (Mazda kompaniyasi maksimal o'sishini namoyish etgan - 27,6%).

Uchinchidan, moliyaviy barqarorlikni o'rtacha 8%ga oshirishga imkon bergan (Cristall Gross kompaniyasi maksimal o'sishni namoyish etgan – 22,5%)⁶⁵.

⁶⁴ Худякова, Т.А. Внедрение контроллинговых технологий как способ повышения эффективности деятельности предприятия / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2016. – Т. 10. – № 4. – С. 30–36.

⁶⁵ Материалы аналитического отдела Государственной Думы РФ по контролю и финансовому мониторингу (каталог № 1-0233.89 от 5 декабря 2004 г.), 2014. – С. 23–69.; Юсупова, С.Я. Теория и практика внедрения системы контроллинга в условиях информационного общества: автореф. дис. ... докт. экон. наук: 08.00.05 / Юсупова СавдаЯрагиевна. – М., 2008. – 37 с.

Shu jumladan, korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish natijasida investitsion jozibadorlik darajasi o'rtacha 8,9%ga, hujjatlar aylanish samaradorligi – 9,7%ga, moliyaviy barqarorlik – 8,3%ga oshadi. Bunda hujjatlar aylanish samaradorligi deb korxonada hujjatlar aylanmasi jarayonini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish natijasida foydaning o'sish sur'atining yangilikni joriy etish bilan shartlangan harajatlar o'sishiga nisbati orqali aniqlanadigan ko'rsatkich tushuniladi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi muqobil koeffitsienti asosida aniqlanib, kompaniyalarning o'z mablag'lari hamda va buxgalteriya balansining jami aktiv va passiv qiymatiga nisbati orqali hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan xorijiy davlatlar sanoat korxonalarining investitsion jozibadorlik, hujjatlar aylanish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik darajasining o'sish sur'atlari tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, u yoki bu kontrolling tizimini joriy etish korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va uning faoliyati samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Jumladan, turli korxonalarda ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari beqaror tebranish tendensiyasiga ekanligiga qaramay, barcha tahlil etilayotgan kompaniyalarda o'zgarish dinamikasi ijobiy bo'lmoqda.

Demak, sanoat korxonalarida kontrolling tizimini joriy etish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy barqarorlik darajasini oshirishga imkon yaratmoqda va bu iqtisodiyotdagi inqiroz holat davrida aynan dolzarb hisoblanadi.

Sanoat korxonasida kontrolling tizimini joriy etish hamda moliyaviy va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishi o'rtasida o'zaro aloqadorlik masalalari A.N.Asaul, M.K.Starovoytov va R.A.Faltinskiy⁶⁶ ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Mualliflar kontrolling atamasiga budjetlashtirish sifatida yondashishlariga qaramay ular quyidagi o'zaro bog'liqliklarni qayd etgan (1.5-jadval).

Ye.A. Borgardt va V.M. Nosova OAJ «KamAZ» korxonada kontrolling qilish tizimini joriy etishga bag'ishlangan o'z ishlarida mazkur tizimni joriy etishdan

⁶⁶ Асаул, А.Н. Управление затратами в строительстве / А.Н. Асаул, М.К. Старовойтов, Р.А. Фалтинский. – СПб: ИПЭВ, 2009. – 392 с.

quyidagi natijalar olish mumkinligini ta'kidlagan: «boshqaruv kadrlarning mehnat unumdorligi 9,6%ga ko'payadi, qabul qilingan qarorlarning samaradorligi 11%ga oshadi, kontrolling chora-tadbirlari asosida uzoq muddatli moliyaviy qarorlarni qabul qilishdan olinadigan samara qariyb 20 %ni tashkil etadi»⁶⁷.

1.2.3-jadval

Budjetlashtirishning sanoat korxonasi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri⁶⁸

Asosiy moliyaviy-iqtisodiy maqsadlar	Kontrolling tizimi joriy qilish zarur bo'lgan ko'rsatkichlar	Belgilangan ko'rsatkichlarning yillik extimoliy o'sish sur'ati, %
Tez rivojlanayotgan biznes	Sotish hajmi	20
Yuqori rentabelli biznes	Sof foyda	2
Qiymati tez o'sayotgan korxonalar	Aksiyador kapitali qiymati	100

Kontrolling tizimini joriy etish natijasida muvaffaqiyatga erishgan Kanadadagi eng yirik mobil aloqa operatori - AT&T Canada kompaniyasini misol sifatida keltirish mumkin, ushbu kompaniya o'lchovli ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard (BSC)ni joriy etgan. Joriy etish natijasida quyidagi iqtisodiy samaradorlik kuzatildi: sotishdan tushgan foyda 15%ga, bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 11%ga, korxonaning bozor qiymati 4 martaga oshgan⁶⁹.

Airbus Group kompaniyasida kontrolling tizimini joriy etish aylanma rentabelligiga ijobiy ta'sir qilib, ushbu ko'rsatkich 2015 yilga kelib tahminan 10%ga oshgan⁷⁰. Bu borada shunday xulosa qilish mumkinki, tahlil qilingan xorijiy

⁶⁷ Саховская, К.А. Стратегический контроллинг как инструмент эффективного управления предприятием / К.А. Саховская, Н.А. Цаплина // Современные тенденции в экономике и управлении. – 2014. – № 24. – С. 54–58.

⁶⁸ Асаул, А.Н. Управление затратами в строительстве / А.Н. Асаул, М.К. Старовойтов, Р.А. Фалтинский. – СПб: ИПЭВ, 2009. – 392 с.

⁶⁹ Саховская, К.А. Стратегический контроллинг как инструмент эффективного управления предприятием / К.А. Саховская, Н.А. Цаплина // Современные тенденции в экономике и управлении. – 2014. – № 24. – С. 54–58.

⁷⁰ Губерт, Т. Финансовый контроллинг в европейском аэрокосмическом и оборонном концерне Airbus Group S.A.S. / Т. Губерт, С.Г. Фалько // Контроллинг. – 2015. – № 55. – С. 3–9.

davlatlar kopmaniyalarida u yoki bu faoliyat yo‘nalishida samaradorlik o‘sishi kuzatiladi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning Yapon tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, barqaror o‘shish davri yoki barqaror iqtisodiy o‘shish davri Yaponiyada 1973 yil dekabridan 1991 yil maygacha davrni nazarda tutadi. Bu bir necha oy davom etgan barqaror o‘shish (o‘rtacha o‘shish) davri edi⁷¹. Birinchi neft zarbasidan so‘ng 1974 yildan 1990 yilgacha o‘rtacha real iqtisodiy o‘shish sur‘ati 4,2% ni tashkil etdi⁷². Ba‘zi adabiyotlarda 1986 yil dekabridan keyingi ko‘pikli iqtisodiyot davri (ko‘pikli iqtisodiyot davri) barqaror o‘shish davridan istisno qilingan, shuning uchun u davr sifatida belgilanmagan⁷³.

1980-yillarning birinchi yarmida qisman iyenaning dollarga nisbatan qadrsizlanishi tufayli eksport ko‘payib, avtomobilsozlik va elektrotexnika mahsulotlari kabi yuqori texnologiyali sanoatga yo‘naltirildi. Biroq, eksportning bu o‘sishi Qo‘shma Shtatlar va boshqa mamlakatlar bilan savdo ishqalanishiga sabab bo‘ldi va savdo ishqalanishini bartaraf etish uchun Plaza Accord imzolandi. Bu iyena kursining oshishi tufayli retsessiyani keltirib chiqardi va Yaponiya banki retsessiyaga qarshi turish uchun past foizli siyosatni amalga oshirdi, biroq haddan tashqari monetar yumshatish tufayli yer narxlari va aksiyalar bahosi ko‘tarila boshladi, bu esa ko‘pikli iqtisodiyotni vujudga keltirdi.

Shundan so‘ng, bu chora, keyinchalik tasvirlanganidek, hukumat tomonidan qattiqashtirilgan pul-kredit siyosati tufayli aktivlar narxining tez o‘sishi va yer narxlari va aksiyalar narxining qulashi natijasida yuzaga kelgan buzilish tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada, qabariq 1991 yilda yorilib ketdi.

Joylashtirish neft shoki (neft zarbasi, neft inqirozi).

Neft zarbasi tufayli og‘ir inflyatsiya yuzaga keldi va 1974 yilda iqtisodiy o‘shish sur‘ati urushdan keyin birinchi marta salbiy tus oldi va keyin stagflyatsiyaga tushdi. Biroq, energiyani tejash va boshqaruvni ratsionalizatsiya qilishni

⁷¹ vol.04 グローバル社会と日本企業 - 仕事・働き方を知る特集「企業の存在価値」 - 就活支援 - マイナビ 2019

⁷² 経済成長率の推移

⁷³ 日本の歴史を知ろう！「高度経済成長」と「バブル景気」の違い

rag'batlantirish natijasida Yaponiya hatto rivojlangan mamlakatlarda ham neft inqirozini erta bosqichda yengib o'tishga muvaffaq bo'ldi.

Sanoat tarkibidagi o'zgarishlar. Po'lat, kemasozlik va neft kabi og'ir sanoatlar neft zarbasi tufayli sustlashdi va bu tarmoqlarda tarkibiy tanazzul deb ataladigan retsessiya keldi. Og'ir sanoatning tanazzulga uchrashi sharoitida ko'p energiya iste'mol qilmaydigan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan avtomobillar, elektr jihozlari va yarim o'tkazgichlar rivojlandi. Bundan tashqari, xizmatlar va dasturiy ta'minot rivojlanishi bilan axborotni qayta ishlash sanoati va dam olish sanoati kabi uchinchi sanoat tarmoqlari rivojlandi.

Eksport o'sishi. Dollar kursining oshishiga va iyenaning qadrsizlanishiga sabab bo'lgan AQShning Reaganomics (yuqori foiz siyosati) va yapon mahsulotlarining yuqori sifati fonida Yaponiya Yevropaga avtomobillar, elektrotexnika mahsulotlari va yarimo'tkazgichlar eksportini kengaytirdi. va Amerika Qo'shma Shtatlari, asosan, yuqori texnologiyali sanoatda. profitsit oshdi. Biroq, eksportning haddan tashqari ko'payishi tufayli Evropa va AQSh bilan savdo ishqalanishi yuzaga keldi va bu xalqaro muammoga aylandi. Xususan, Qo'shma Shtatlar bilan savdo ishqalanishi ko'p marta muammoga aylangan.

Plaza Accord. Plaza kelishuvi yenning tez qadrlanishiga va iyenaning qimmatlashishi tufayli retsessiyaga olib keldi. Biroq, Yaponiyaning katta savdo profitsiti davom etdi va savdo ishqalanishini hal qilib bo'lmadi.

Pufak iqtisodiyoti (qabariqli iqtisodiyot davri). Yapon banki iyena kursining oshishi tufayli retsessiyadan omon qolish uchun rasmiy diskont stavkasini 2,5 foizga tushirdi va sezilarli darajada monetar yumshatishni amalga oshirdi, bu esa mablag'larni jalb qilishni osonlashtirdi va ortiqcha likvidlikni keltirib chiqardi. Natijada, Yaponiyadagi qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulkka katta miqdordagi pul tushdi va yer narxlari va aksiyalar narxi sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari, iyena kursining oshishi Yaponiya kompaniyalarini xorijiy kompaniyalar va ko'chmas mulk sotib olishga undadi.

Pufakchaga qarshi choralarning muvaffaqiyatsizligi. Biroq, qarshi chora sifatida Moliya vazirligi umumiy hajmni nazorat qilish va pul-kreditni kuchaytirish

choralarini ko'rdi, yer bilan bog'liq kreditlarni tartibga soldi va birin-ketin rasmiy chegirma stavkasini oshirdi. Biroq, bu teskari natija berdi va natijada qarshi chora muvaffaqiyatsiz yakunlandi, yer narxlari va aksiyalar narxi keskin tushib ketdi va ko'pikli iqtisodiyot quladi. Bu barqaror o'sish davrining tugashini ko'rsatdi.

Korxonada ish staji yoshi bilan ortib boruvchi ish staji tizimi yaponcha boshqaruvni tavsiflovchi elementlardan biri deyish mumkin. Ish staji tizimi tufayli, qoida tariqasida, ish haqi ish stajiga qarab qo'shiladi.

Aytishlaricha, keksalik tizimi yapon tafakkuri va hayoti bilan azaldan tanish bo'lgan konfutsiylik ta'limotidan tug'ilgan. Konfutsiylik tufayli yaponlar kattalarni hurmat qilish milliy xususiyatga ega, shuning uchun keksa odamning kompaniyada yuqori lavozimga ega bo'lishi tabiiy holat sifatida qabul qilingan ko'rinadi.

Ish staji tizimining afzalliklari orasida kompaniyaga daxldorlik hissi kuchayishi, xodimlar o'rtasida kuchli birdamlik tuyg'usi va tashkilot ichida ta'lim tizimini qurish qulayligi kiradi. Boshqa tomondan, ish haqining keskin oshib borishi, osib qo'yilgan xodimlarning ko'payishi va yoshlar o'rtasida ishlashga tayyorlikning pasayishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklar deb aytish mumkin.

Umr bo'yi bandlik - bu xodimlar kompaniya tomonidan belgilangan pensiya yoshiga etgunga qadar kompaniyada ishlashni davom ettirishi mumkin bo'lgan tizimdir. Bu qonun yoki qaror bilan belgilanmagan (ammo kompaniya qoidalari ko'pincha pensiya yoshini belgilaydi) va Yaponiyaga xos odat sifatida tan olingan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, umr bo'yi bandlik g'oyasi Panasonic (sobiq Matsushita Electric) asoschisi Konosuke Matsushitaning boshqaruv falsafasidan kelib chiqqan. 1929-yilda yuz bergan Buyuk Depressiya tufayli Matsushita Electric zavodining ish tezligi pasayganida, Konosuke Matsushita hatto ishlab chiqarish hajmi pasaygan taqdirda ham birorta xodimni ishdan bo'shatishga yo'l qo'ymasligiga ishonadi va hammani ish bilan ta'minladi. Bu orqali Matsushita Electric o'z xodimlari va dunyoning katta ishonchini qozondi va keyinchalik tez o'sishga erishdi.

Matsushita Electric epizodidan ko'rinib turibdiki, umr bo'yi ish bilan band bo'lgan holda, kompaniyalar va ishchilar o'rtasida ishonch munosabatlarini

rivojlantirish oson. Yana bir afzallik shundaki, xodimlar uzoq muddatli istiqbolda o'qitilishi mumkin. Boshqa tomondan, ish bilan ta'minlashda harakatchanlikning yo'qligi sababli, umuman sanoatning o'sishi to'xtab qolishi va xodimlarning mehnatga bo'lgan motivatsiyasining pasayishi mumkin.

Yaponiya korporativ boshqaruvining yorqin namunasi asosiy bank tizimidir. Ko'pgina yirik yapon kompaniyalari o'zlarining asosiy banklari bilan juda kuchli aloqalarga ega, garchi bu xorijda eshitilmagan bo'lsa ham. Asosiy bank tizimi kompaniyaning aksiyalarni chiqarish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish emas, balki ma'lum bir moliya institutidan (asosan banklardan) qarz olish orqali bilvosita moliyalashtirish orqali mablag'larni jalb qilishini anglatadi. Asosiy bank tizimining afzalliklari shundan iboratki, kompaniyalar qat'iy tekshiruvlarsiz tezda kredit olishlari, banklar uzoq muddatli kreditlar orqali barqaror foyda olishlari va korporativ boshqaruvni amalga oshirishlari mumkin. Aytish mumkinki, banklarda (asosiy banklarda) ishlagan shaxslar ko'pincha korporativ mansabdor shaxslar va auditorlar etib tayinlanishi asosiy bank tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

O'zaro aksiyadorlik deganda ikki yoki undan ortiq kompaniyalar bir-birini tan oladigan va bir-birining aksiyalariga egalik qiladigan davlatni anglatadi. Aksiyalarning o'zaro egaliklari barqaror aksiyadorlarni shakllantirish (dushmanlik bilan egallab olishning oldini olish), kompaniyalarni guruhlash va kompaniyalararo bitimlar orqali boshqaruvni barqarorlashtirish maqsadida amalga oshirildi.

O'zaro ulushlarning afzalligi shundaki, ular asosiy bank tizimidan farqli ravishda boshqaruvni kamroq jalb qilish (aralashuvi) yoki ortiqcha foydani talab qilish ehtimoli va kompaniyalar o'rtasida barqaror munosabatlarni saqlab turishi mumkin. Bundan tashqari, korporativ guruhni o'zaro ulushlar orqali shakllantirish, shuningdek, materiallarni xarid qilish va hokazolarda miqyosda iqtisod keltiradi va bu ikkala kompaniyaning foydasini oshirishga hissa qo'shishi bilan afzallik deb aytish mumkin⁷⁴.

Demak Yapon modelida ishchi-xodimlarni turg'unligini ta'minlash asosida korxonaga sodiqlikni oshirish asosida korxonaning iqtisodiy barqarorligini

⁷⁴ <https://the-owner.jp/archives/2802>

ta'minlash tizimi takomillashib boradi, korxonaning barcha bug'inlari va barcha xodimlari korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda faol ishtirok etishadi.

1.2.4-jadvalda kontrolling tizimining ayrim xorijiy davlatlar kompaniyalari faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash bo'yicha ko'rsatkichlar keltirilgan. Ushbu jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, kontrolling aksariyat hollarda yoki faqat nazorat va hisob yuritish, yoki budjetlashtirish vazifalarini bajargan holda o'z vazifalarning qisqartirilgan variantida qaralayotganligiga qaramay, barcha tadqiqotchilar kontrolling tizimini joriy etish natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etgan.

Ikkinchidan, tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish bo'yicha boshqaruv qarorini qabul qilish samaradorligi o'zgarish oraligi 8,7%dan 16,2%gacha bo'lgan.

Uchinchidan, korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish natijasida boshqaruv kadrlarning mehnat unumdorligining o'sishi 9,6%dan 17,2%gacha, ya'ni o'rtacha 13,4%ga oshishi kuzatiladi.

To'rtinchidan, korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish umuman boshqaruv samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'atlari 7,2%dan 36,9%gachani tashkil etadi.

Beshinchidan, kontrolling tizimini joriy etish qabul qilinayotgan qarorlarning sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan korxonalardan faqat bittasida mazkur ko'rsatkich berilgan va uning o'rtacha o'sish sur'ati 41,0%ni tashkil etgan.

Oltinchidan, sanoat korxonalarida kontrolling tizimini joriy etish ishlab chiqarish jarayoni samaradorligining o'sish sur'atining 8,4–31,9%, ya'ni o'rtacha 20,5%ga oshishiga olib keladi.

Yettinchidan, korxonalarda kontrolling tizimidan foydalanish, hattoki vazifalar to'liq bo'lmagan sharoitda ham korxonalar moliyaviy-iqtisodiy barqarorligining umumiy darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich turi bo'yicha o'rtacha o'sish sur'ati 8,3% va u 0,45%dan 22,5%gacha oraliqda tebranmoqda.

1.2.4-jadval Kontrolling tizimining ayrim xorijiy kompaniyalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash⁷⁵

Kompaniya nomi	Mamlakat	Qabul qilingan boshqaruv qarorlar samaradorligi o'sish sur'ati, %	Boshqaruv kadrlar mehnat unumdorligi o'sish sur'ati, %	Boshqaruv samaradorligi o'sish sur'ati, %	Qarorlar sifatining o'sish sur'ati, %	Ishlab chiqarish jarayonlari samardorligi o'sish sur'ati, %	Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik o'sish sur'ati, %
AIG Brunswick Capital Management Ltd.	AQSh	-	-	7,2	-	14,9	-
AKAI Electric Company Ltd.	Gonkong	-	-	11,8	-	8,4	-
Bayer AG	Germaniya	-	-	-	-	-	2,2
British Petroleum	Buyuk Britaniya	-	-	9,1	-	19,6	6,3
Chivas	Buyuk Britaniya	-	-	-	-	-	5,2
Ford	AQSh	-	-	-	-	-	6,3
Huawei	Xitoy	-	-	-	-	-	3,6
IBM	AQSh	-	-	-	-	-	6,9
Krangz and Ziegler	Daniya	-	-	-	-	-	0,45
Kodak	AQSh	-	-	11,7	-	31,9	-
LG Electronics Inc.	Janubiy Koreya	-	-	18,7	-	25,9	-
Mazda	Yaponiya	-	-	9,9	-	22,9	9,9
METRO GROUP	Germaniya	-	-	-	-	-	22,1
Motorola (Lenovo Group Limited)	Xitoy	-	-	-	-	-	11,0

⁷⁵Худякова, Т.А. Внедрение контроллинговых технологий как способ повышения эффективности деятельности предприятия / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2016. – Т. 10. – № 4. – С. 30–36.;Худякова, Т.А. Принципы определения эффективности затрат на внедрение системы контроллинга на промышленном предприятии / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2014. – № 4 (8). – С. 135–138.;Худякова, Т.А. Принципы оценки уровня финансово-экономической устойчивости предприятия на основе применения вероятностно-статистических моделей / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». – 2015. – Т. 9. – № 3. – С.41–43.

¹²⁶ <https://studfile.net/preview/5133147/page:2/>

• *Jonlanish* – real ishlab chiqarish siklining pastki qismiga nisbatan ko‘tariladi va inqirozdan oldingi darajasiga etadi. Tovar-moddiy zaxiralar yangilanadi, asosiy kapitalni yangilash jarayoni boshlanadi, amortizatsiya ajratmalari yanada unumli va texnik jihatdan ilg‘or uskunalarga sarflanadi.

• *Kutarilish (bum)* – iqtisodiyot oldingi sikldagi ishlab chiqarishning maksimal darajasidan oshib, real yalpi ichki mahsulotning potentsial hajmlariga erishishga va bu bosqichda to‘liq bandlikka intiladi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy sikllarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular to‘lqinlar deb ataladi¹²⁷.

Iqtisodiy sikllarning asosan 4 ta turi mavjud:

Qisqa muddatli – 2-4 yil. **Dj.Kitchen modeli.**

O‘rta muddatli – 10-12 yil. **K.Juglar modeli.**

Qurilish sikllari – 20-25 yil. **S.Kuznes modeli.**

Uzoq muddatli - 45-55 yil. **«Kondratevning katta to‘lqinlari» modeli.**

Iqtisodiyotning siklik xususiyati iqtisodiy barqarorlikka tahdidlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotning siklik xususiyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishining iqtisodiy sikl fazalariga mos kelishiga qarab, quyidagilarga bo‘linadi:

- yetakchi,
- moslashish,
- orqada qolish.

Etakchi yoki etakchi ko‘rsatkichlar - bu kon’yukturadagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlardan oldinda bo‘lgan yoki oldindan ko‘rsatadigan ko‘rsatkichlar, birinchi navbatda, ular inqirozni oldindan ko‘rishga intiladi. Bularga quyidagilar kiradi: iste‘mol tovarlarini yetkazib berish bo‘yicha yangi buyurtmalar hajmi; korporatsiyalar aktsiyalarining narx darajasi; yangi texnika va uskunalarga (investitsiya tovarlariga) buyurtmalar bilan bog‘liq shartnomalarning umumiy qiymati; yangi uy-joy qurish uchun berilgan litsenziyalar soni; xomashyoning ayrim

¹²⁷ Экономический цикл. Безработица. https://is.vstecb.cz/do/5610/pr/zkcj/OB/E/RJ/t03/e_rj_t03.html

turlariga narxlar darajasi; mamlakatdagi pul massasi hajmi ("samaradorlikni oshirish" pullari - pul bazasi).

Tasodifiy - bu ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi bilan bir vaqtda mos keladi, ya'ni. ular iqtisodiyotning holatini, ma'lum bir davrda tadbirkorlik faolligi darajasini aks ettiradi. Bularga quyidagilar kiradi: YaIM doimiy narxlarda; YaIM sanoati doimiy narxlarda; o'zgarimas narxlarda ishlab chiqarish sanoati va savdoning yalpi ichki mahsuloti; fuqarolarning shaxsiy daromadlari hajmi; sanoat va xizmatlar sohasida bandlik darajasi; milliy iqtisodiyotdagi ishsizlik darajasi.

Kechikish - vaqt o'zgarishining iqtisodiy tizim kon'yunkturasidagi o'zgarishlardan orqada qolishi. Bu guruhga quyidagilar kiradi: investitsiya tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar hajmi; mehnat unumdorligi (soatlik ishlab chiqarish); savdo va sanoatda to'lanmagan kreditlar hajmi; tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkasi; ishsizlik darajasi (retsessiya holatida bu tabiiy darajadan yuqori bo'lgan ishsizlikdir)

Yuqoridagi alohida ko'rsatkichlarga qo'shimcha ravishda, iqtisodiyotning siklik tabiati bilan bog'liq iqtisodiy vaziyatning o'zgarishini baholashning turli tizimlari jamlangan ko'rsatkichlardan foydalanadi:

Konsolidatsiyalangan (kompozit) indekslar - bu iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy guruhlari (etakchi, mos keladigan va orqada qoladigan) o'rtacha vaznli ko'rsatkichlarining variantlari. Ularni hisoblashda taqqoslash uchun ko'rsatkichlar samaradorligini baholashdan foydalaniladi.

Diffuziya indeksleri davom etayotgan jarayonlar iqtisodiyotning turli darajalarini qamrab olish darajasini aks ettiradi. Ular ma'lum ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilayotgan kompaniyalar, tarmoqlar va hududlar ulushini ifodalaydi. Shunday qilib, iqtisodiyotning 30 ta tarmog'ida bandlikning diffuziya indeksi tegishli davrlarda bandlik ortib borayotgan tarmoqlarning % dagi ulushini ko'rsatadi. Diffuziya indeksleri asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda talqin qilinadi.

Etakchi va mos keladigan kompozit ko'rsatkichlardan foydalanishga misol sifatida 2020 yil fevral oyidan boshlab dunyodagi ikkita taniqli tadqiqot tashkiloti: Shveysariya Iqtisodiyot instituti, Shveysariya tomonidan amalga oshirilgan Global Iqtisodiy Barometrlarning (GIB) oylik hisob-kitoblarini yaratish mumkin. syurix Federal Texnologiya Instituti (KOF ETH Zurich) va Getúlio Vargas fondining Braziliya iqtisodiyot instituti (FGV IBRE)¹²⁸.

Bir-biriga mos keladigan va etakchi xarakterga ega bo'lgan kompozit ko'rsatkichlarning ushbu tizimi "deyarli real vaqt" rejimida global iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilish imkonini beradi. Tegishli global iqtisodiy barometrlar (dunyoda, mintaqa va sektorlar bo'yicha) umumiy iqtisodiy faoliyatning hozirgi holatini aks ettirishga qaratilgan. Etakchi global iqtisodiy barometrlar har qanday vaqtda jahon iqtisodiyotining haqiqiy rivojlanishidan taxminan olti oy oldin bo'lgan tsiklik signalni aks ettiradi. Global barometrlar dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida iqtisodiy tendensiyalarni muntazam ravishda o'rganish natijalarini jamlaydi va imkon qadar keng qamrovli ma'lumotlarni tezkor, vaqt o'tishi bilan qayta ko'rib chiqilmagan va umumiy siklik profilga ega bo'lgan ma'lumotlarni statistik ma'lumotnomalar makroiqtisodiy dinamika sseriyasi bilan birlashtirishga imkon beradi.¹²⁹.

Mos keladigan barometr 1000 dan ortiq mamlakat tadqiqot ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi, etakchi barometr esa 600 dan ortiq¹³⁰.

(Business Cycle Clock (BCC) indeksi ham mos keladigan kompozit indikatorni qurishga asoslanadi.

(Business Cycle Clock (BCC) asosiy maqsadi iqtisodiyotning holati to'g'risida signallarni ishlab chiqarish va ularni empirik kuzatilgan ketma-ketlik asosida biznes tsiklining bosqichlari o'zgarishini ko'rsatadigan terish va soat ko'rinishida vizualizatsiya qilishdir. tsikllarning burilish nuqtalari.

Kompozit indikator **BCC** quyidagi kirish parametrlariga asoslanadi:

¹²⁸ Global Economic Barometers. KOF Swiss Economic Institute. <https://kof.ethz.ch/en/forecasts-and-indicators/indicators/kof-globalbaro.html>

¹²⁹ <https://znanium.com/catalog/document?id=419063>

¹³⁰ o'sha yerda

- sanoat ishlab chiqarish indeksi,
- ishsizlik darajasi,
- kelgusi oylar uchun ishlab chiqarish sanoatida ish bilan ta'minlash bo'yicha taxminlar,
- so'nggi 12 oy ichida iste'molchilarning moliyaviy ahvoli.

Oxirgi ikki o'zgaruvchi Yevropa Komissiyasining Iqtisodiy va moliyaviy ishlar bo'yicha Bosh direktorati tomonidan o'tkazilgan biznes va iste'molchilar so'rovlaridan (BCS) olingan.

Iqtisodiy barqarorlikning ajralmas ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulotning qiyosiy narxlarda o'sish sur'atlari indeksi (YaIMning jismoniy hajmi indeksi). Bu ko'rsatkich davlat barqarorligining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir¹³¹.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) - rezident iqtisodiy birliklarning ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasi bo'lib, u yakuniy foydalanish uchun ushbu birliklar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati bilan o'lchanadi.

Ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan YaIM barcha tarmoqlarning asosiy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymati va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisidan iborat (mahsulotga soliqlar, mahsulotlarga subsidiyalar chegirib tashlangan).

Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) bazaviy narxlarda tarmoqlar darajasida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish - bu hisobot davridagi xalq xo'jaligi rezident bo'linmalarining ishlab chiqarish faoliyati natijasida hosil bo'lgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Oraliq iste'mol - ishlab chiqarish jarayonida o'zgartiriladigan yoki to'liq iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlar qiymati.

Shaklda. 30(a)-bandda 2018-yilning 1-choragidan 2022-yilning 1-choragigacha bo'lgan davr uchun O'zbekiston Respublikasida YaIM jismoniy hajm indeksining (JHI) haqiqiy qiymatlari ko'rsatilgan¹³². Ushbu ma'lumotlarga

¹³¹ <https://znanium.com/catalog/document?id=419063>

¹³² Согласно официальной статистической методологии публикация квартальных индексов физического объема ВВП осуществляется с запаздывающим лагом в 2 квартала относительно текущего периода.

asoslanib, O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining choraklik o‘shish sur‘atlarini iqtisodiy barometrning rangli signallarida oldindan baholash va vizualizatsiya qilish muammosining yechimi quyida keltirilgan.

3.1.5-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilning 1-choragidan 2022-yilning 1-choragigacha bo‘lgan davrda YaIM jismoniy hajmi indeksining amaldagi qiymatlari, o‘tgan davrga nisbatan % ¹³³


2018Q-1	2018Q-2	2018Q-3	2018Q-4	2019Q-1	2019Q-2	2019Q-3	2019Q-4	2020Q-1	2020Q-2	2020Q-3	2020Q-4	2021Q-1	2021Q-2	2021Q-3	2021Q-4	2022Q-1
105,4	105,7	105,5	105,3	105,7	105,7	105,6	105,7	104,8	101,0	100,5	101,8	102,5	107,1	107,4	107,4	105,8

Quyida taklif etilayotgan muammoni hal qilish metodologiyasining asosi qisqa muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘shishni tavsiflovchi YaIMning JHI choraklik qiymatining o‘tgan chorakdagi mos keladigan o‘shish ko‘rsatkichiga yaqin bog‘liqligini taxmin qilishdir. bu ko‘rsatkich dinamikasida turli chastotalarning barqaror siklik tebranishlarining ta’siri bo‘yicha.

3.1.3-rasmda keltirilgan ma’lumotlariga ko‘ra, kechikish ta’sirining kechikishi bilan avtokorrelyatsiya koeffitsientlarining qiymatlari hisoblab chiqiladi va korrelogramma tuziladi. Olingan natijalarga asoslanib, YaIMning JHI choraklik qiymatlari vaqt qatori tarkibida tendensiya va tsikliklik mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Bu birinchi darajali va 4-5 tartibli avtokorrelyatsiya koeffitsientining maksimal qiymatlari bilan ko‘rsatilgan¹³⁴.

¹³³ <https://stat.uz>

¹³⁴ <https://znanium.com/catalog/document?id=419063>



3.1.3-rasm.O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilning 1-choragidan 2022-yilning 1-choragigacha bo‘lgan davrda YaIM jismoniy hajmi indeksining choraklik qiymatlari va JHI ilgarilash baholarini hisoblash uchun choraklik avtokorrelyatsiya koeffitsientlari diagrammasi

O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilning 1-choragidan 2022-yilning 1-choragigacha bo‘lgan davrda YaIM jismoniy hajmi indeksining choraklik qiymatlari va JHI ilgarilash baholarini hisoblash uchun choraklik avtokorrelyatsiya koeffitsientlari qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.(3.1.6-jadval)

3.1.6-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilning 1-choragidan 2022-yilning 1-choragigacha bo‘lgan davrda YaIM jismoniy hajmi indeksining choraklik qiymatlari va JHI ilgarilash baholarini hisoblash uchun choraklik avtokorrelyatsiya koeffitsientlari qiymatlari

Lag (choraklar soni)	Qiymatlar	Vazn koeffitsientlari
L= -1	0,7	0,2742
L= -2	0,246	0,0963
L= -3	0,215	0,0842
L= -4	0,497	0,1948
L= -5	0,453	0,1771

L= -6	0,282	0,1101
L= -7	0,115	0,0450
L= -8	0,044	0,0173
Jami	2,552	1,0

t -chorak uchun YaIM JHIning asosiy bahosi oldingi choraklar uchun IFE YaIM qiymatlari mahsulotining tegishli tortish koeffitsientlari bo'yicha yig'indisi sifatida olinishi mumkin, uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Y'_t = \sum_{t-n}^{t-1} (Y_{(t-n)} * w_{(t-n)}) / n,$$

bu yerda:

Y'_t - t -chorak uchun YaIM JHIning ilgarilash qiymati (prognoz);

$Y_{(t-n)}$ - t -chorak uchun YaIM JHIning (o'tgan chorakka nisbatan %) amaldagi qiymati;

$w_{(t-n)}$ - prognoz chorakgacha bo'lgan choraklar uchun YaIMning JHI qiymatlarini prognoz chorak uchun YaIMning JHI bahosini agregatlashda foydalaniladigan vaznlar;

t - joriy chorak raqami;

n - ta'sir kechikish lag sonlari (choraklar).

Vazn koeffitsientlari qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$w_{(t-n)} = \frac{|r_{(y_t:y_{t-n})}|}{\sum_{t-n} |r_{(y_t:y_{t-n})}|},$$

gde:

$|r_{(y_t:y_{t-n})}|$ - joriy chorak uchun YaIMning JHI qiymatining avtokorrelyatsiya koeffitsienti moduli va bu ko'rsatkichning n -chorak kechikish bilan qiymati (n - tartibdagi avtokorrelyatsiya koeffitsienti)¹³⁵.

Vazn koeffitsientlari jami 1 ga teng.

¹³⁵ <https://znanium.com/catalog/document?id=419063>

3.1.2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi YaIMning 2022-yil 2-choragidan 2023-yil 4-choragigacha bo‘lgan davr uchun choraklar bo‘yicha JHI ilgarilash qiymatlarini hisoblash natijalari (o‘tgan chorakka nisbatan, %)

2020Q-2	2020Q-3	2020Q-4	2021Q-1	2021Q-2	2021Q-3	2021Q-4	2022Q-1	2020Q-2	2020Q-3	2020Q-4	2023Q-1	2023Q-2	2023Q-3	2023Q-4
101,0	100,5	101,8	102,6	107,1	107,4	107,4	105,8	105,0	105,6	106,2	106,3	106,1	105,9	105,9

O‘zbekiston Respublikasi YaIM JHining 2022-yil 2-choragidan 2023-yil 4-choragigacha bo‘lgan davr uchun choraklar bo‘yicha ilgarilash qiymatlarini hisoblash, o‘tgan chorakdagi foizlar 3.1.2-jadvalda keltirilgan.

Lag (choraklar soni)	Qiymatlar	Vazn koeffitsientlari
L= -1	0,7	0,2742
L= -2	0,246	0,0963
L= -3	0,215	0,0842
L= -4	0,497	0,1948
L= -5	0,453	0,1771
L= -6	0,282	0,1101
L= -7	0,115	0,0450
L= -8	0,044	0,0173
Jami	2,552	1,0

Zarova E.V. tomonidan taklif etilgan uslubiyotning kamchiligi shundaki, asosan mamlakatimizning to‘qimachilik tarmog‘iga urg‘u berilib, kimyo sanoatini to‘liq o‘rganilmagan.

Ushbu dissertastiya tadqiqotida, sanoat tarmog‘ining iqtisodiy barqarorligini biz sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati bilan belgilab

oldik. Xususan kimyo sanoati iqtisodiy barqarorligini qisqa davrda (2021-2022 yillarda) oylik statistik ma'lumotlarini tahlil qildik.

Ekzogen omilar sifatida O'zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari $-Y$, unga ta'sir etuvi omillar sifatida iqtisodiy faol aholi $-X_1$, ish bilan band aholi $-X_2$, sanoatda o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi $-X_3$ tanlab olindi.

3.1.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi¹³⁶

Date: 03/04/23
Time: 20:04
Sample: 2021M01 2022M12

	Y	X1	X2	X3
Mean	101.3369	15039.21	13636.75	4219660.
Median	102.0782	15015.00	13604.55	4289169.
Maximum	120.5000	15179.51	13920.00	4820000.
Minimum	85.10950	14926.70	13397.50	3653931.
Std. Dev.	7.756027	75.83162	151.7375	415203.2
Skewness	0.203862	0.482406	0.321772	-0.033311
Kurtosis	3.319980	1.952156	2.087921	1.443168
Jarque-Bera	0.268626	2.028838	1.246037	2.428166
Probability	0.874316	0.362613	0.536323	0.296982
Sum	2432.085	360940.9	327282.0	1.01E+08
Sum Sq. Dev.	1383.587	132260.0	529558.4	3.97E+12
Observations	24	24	24	24

O'zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi qo'yidagi 3.1.3-jadvalda keltirilgan.

¹³⁶ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturida hisoblangan

3.1.4-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shir sur‘atlariga ta‘sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi¹³⁷

Covariance Analysis: Ordinary (uncentered)

Date: 03/04/23 Time: 20:04

Sample: 2021M01 2022M12

Included observations: 24

Covariance t-Statistic Probability	Y	X1	X2	X3
Y	10326.81 ----- -----			
X1	1523761. 61.97827 0.0000	2.26E+08 ----- -----		
X2	1381344. 59.25751 0.0000	2.05E+08 791.9232 0.0000	1.86E+08 ----- -----	
X3	4.26E+08 30.87015 0.0000	6.35E+10 52.26115 0.0000	5.76E+10 55.62638 0.0000	1.80E+13 ----- -----

3.1.5-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shir sur‘atlariga ta‘sir etuvchi omillarning regression tahlili¹³⁸

Dependent Variable: Y

Method: Least Squares

Date: 03/04/23 Time: 20:06

Sample: 2021M01 2022M12

Included observations: 24

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.108009	0.112847	0.957129	0.3499
X2	-0.022517	0.059922	-0.375767	0.7110
X3	-2.21E-05	8.29E-06	-2.669773	0.0147
C	-1122.574	980.2790	-1.145158	0.2657
R-squared	0.461783	Mean dependent var		101.3369
Adjusted R-squared	0.381051	S.D. dependent var		7.756027
S.E. of regression	6.101925	Akaike info criterion		6.606097
Sum squared resid	744.6698	Schwarz criterion		6.802440
Log likelihood	-75.27317	Hannan-Quinn criter.		6.658187
F-statistic	5.719913	Durbin-Watson stat		0.968835
Prob(F-statistic)	0.005389			

¹³⁷ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturida hisoblangan

¹³⁸ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturida hisoblangan

$$Y = 0.10X_1 - 0.02X_2 - 2.2X_3 - 1122,57$$

Yuqoridagi regressiya tenglamasi lingvistik interpretatsiya qilinsa, ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda iqtisodiy faol aholi sonining 1 birlikka oshishi O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘atlarini 0,1 birlikka oshishiga, mamlakatimizda ish bilan band aholi sonining 1 birlikka oshishi O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘atlarini 0,02 birlikka, sanoatda o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqining 1 birlikka oshishi esa 2,2 birlikka kamayishiga olib kelar ekan. Biroq nazariy jihatdan ushbu xulosa mnazari bo‘lganligi bois modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari tekshirishi lozim.

3.1.6-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘atlariga ta’sir etuvchi omillarning multikolleniarlik testi¹³⁹

Variance Inflation Factors
Date: 03/04/23 Time: 20:07
Sample: 2021M01 2022M12
Included observations: 24

Variable	Coefficient Variance	Uncentered VIF	Centered VIF
X1	0.012734	1856592.	45.23488
X2	0.003591	430456.6	51.06917
X3	6.87E-11	796.2536	7.320210
C	960947.0	619408.2	NA

O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘atlariga ta’sir etuvchi omillarning geteroskedatistiklik testi 3.1.7-jadvalda keltirilgan.

¹³⁹ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturida hisoblangan

O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shir sur‘atlariga ta’sir etuvchi omillarning geteroskedatistiklik testi¹⁴⁰

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey

F-statistic	2.885692	Prob. F(3,20)	0.0612
Obs*R-squared	7.250211	Prob. Chi-Square(3)	0.0643
Scaled explained SS	5.023398	Prob. Chi-Square(3)	0.1701

Test Equation:

Dependent Variable: RESID^2

Method: Least Squares

Date: 03/04/23 Time: 20:07

Sample: 2021M01 2022M12

Included observations: 24

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	2812.212	6443.839	0.436419	0.6672
X1	0.281446	0.741796	0.379411	0.7084
X2	-0.552101	0.393899	-1.401634	0.1764
X3	0.000122	5.45E-05	2.239253	0.0367
R-squared	0.302092	Mean dependent var		31.02791
Adjusted R-squared	0.197406	S.D. dependent var		44.77276
S.E. of regression	40.11085	Akaike info criterion		10.37218
Sum squared resid	32177.61	Schwarz criterion		10.56852
Log likelihood	-120.4662	Hannan-Quinn criter.		10.42427
F-statistic	2.885692	Durbin-Watson stat		2.644851
Prob(F-statistic)	0.061153			

Xulosa qilib aytish mumkinki, kimyo sanoati iqtisodiy barqarorligini qisqa davrda (2021-2022 yillarda) oylik statistik ma’lumotlarini tahlil qilinganda unga iqtisodiy faol aholi (X_1), ish bilan band aholi (X_2) hamda sanoatda o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi (X_3) o‘rtasidagi bog‘lanishlar statistik ahamiyatli emas. Demak, bu yerda yana boshqa omillarni hmi chuqur o‘rganilishi zarur, shu sababli 3.4-paragrafda biz sanoat iqtisodiy barqarorligiga ta’sir etuvchi ekzogen omillarni uzun davrda kengroq o‘rganamiz. Xulosa qilish mumkinki olingan regressiya modeli qisqa muddat uchun ahamiyatli chiqmadi, demak sabab-oqibat qoniniyatlari chuqurroq tadqiq etilishi lozim.

¹⁴⁰ Muallif tomonidan Eviews 9 dasturida hisoblangan

3.2. O‘zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanish holati tahlili

Sanoatlashgan ishlab chiqarishni rivojlanishi mamlakatlarning YaIM tarkibini ham o‘zgarishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda, muayyan davlatni sanoatlashgan deb e‘tirof etishda ishlab chiqarilayotgan YaIM tarkibida sanoatning salmog‘i boshqa tarmoqlar rivojlanishiga nisbatan yuqori o‘shish dinamikasiga ega bo‘lishligi asosiy mezon sifatida olinadi. Mustaqil mamlakatimizni zamonaviy sanoatlashgan mamlakatlar sirasiga qo‘shilishga bo‘lgan intilishi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar, avvalambor, hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni asosida amalga oshirilayotgan samarali siyosat natijasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021 yilda sanoat sohasida amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Jumladan, davlat kompaniyalarini transformatsiyalashni jadallashtirilishi asosida milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish muhimligiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Buning uchun “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “O‘zbekneftgaz”, “O‘zbekgidroenergo”, “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag‘ jalb etish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilab berilgan¹⁴¹.

Umuman olganda sanoat korxonalarini faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan tarmoq yoki sohada amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlarining xususiyatiga, tashkil etilgan boshqaruv va uning tarkibiy tuzilmasiga bog‘liq. Shuning uchun mazkur nazariy qoidani e‘tiborga olgan holda O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq turli tarmoq va soha xo‘jalik boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish orqali ular faoliyatini transformatsiya qilish

¹⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 29.12.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

masalalariga katta e'tibor qaratildi. Natijada milliy iqtisodiyotni ustuvor sohalarini transformatsiyalash hamda soha va tarmoqlar tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari natijasida real sektorni katta talofatlarsiz o'tish davridan olib chiqildi. Chunki milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi bevosita transformatsiya jarayonlari va uning natijadorligiga bog'liq hisoblanadi. Endilikda transformatsiyalash jarayonlarini tezlashuvi evaziga ishga tushirilayotgan kimyo sanoatidagi zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi quvvatlarning yo'lga qo'yilishi raqobatbardosh kimyo mahsulotlari salmog'ining respublikamiz yalpi ichki mahsulotida ko'payishiga, ayni chog'da, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yuksak natijalar qo'lga kiritilishiga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun kimyo sanoati korxonalarida transformatsiya jarayonlari tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobatbardoshligini ta'minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini tahlil qilar ekanmiz, mamlakatimiz hududlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar sonini 2001-2021 yillardagi dinamikasini o'rgandik. (3.2.1-jadval).


Mamlakatimizda 2010 yildan boshlab faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni kamayib borish tendensiyasiga ega. Biroq, Navoi viloyatida 2021 yil boshiga 1188 ta faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, o'tshan yilga nisbatan 1,44 barobarga oshgan, ushbu ko'rsatkich 2001 yilga nisbatan 1,4 barobarga oshgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich o'tgan 2020 yilga nisbatan 25,6 foizga kamaygan.

3.2.1-jadval

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)¹⁴²

Xududlar	2001	2005	2010	2015	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	33016	40177	28953	26940	21357	28341	28827
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2324	1441	1217	1367	430	699	1134
Andijon	1701	3329	1904	2054	3206	4256	3280
Buxoro	1398	1888	2694	3111	1085	1411	1998
Jizzax	599	1973	759	1162	853	1034	1315
Qashqadaryo	973	2728	5016	1730	741	937	1590
Navoiy	626	1659	557	529	686	1188	884
Namangan	1917	4185	2024	2193	659	933	1178
Samarqand	5159	2807	3148	2362	1896	2199	2703
Surxondaryo	769	2503	2571	2571	419	1248	1516
Sirdaryo	368	803	441	791	780	1011	1188
Toshkent	1959	2518	1954	2833	5743	6066	4472
Farg'ona	2972	4303	2433	1340	472	1288	1859
Xorazm	1908	3193	2320	510	991	1483	1534
Toshkent.sh	10343	6847	1915	4387	3396	4588	4176

Farg'ona viloyatida 2021 yil boshiga 1288 ta faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 2,7 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2022 yil 1 yanvar holatida ham Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 44 foizga oshish tendensiyasini saqlab qolib, 1859 taga yetgan.



3.2.1-rasm. Navoiy va Farg'ona viloyatlarida 2001-2021 yillarda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)¹⁴³

¹⁴² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi. (www.stat.uz)

¹⁴³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi. (www.stat.uz)

2020-2021 yillarda faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining oshishini 2020 yilda Covid-19 pandemiyasining iqtisodiyotga bo‘lgan zarari bilan izohlash mumkin. (3.2.1-rasm)

Hududlar kesimida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soniga (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz), hududlarda infratuzilmani rivojlanganligini ko‘rsatuvchi omillardan biri sifatida qarash mumkin.

3.2.2-jadval

**Hududlar kesimida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)¹⁴⁴**

Xududlar	2001	2005	2010	2015	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	151765	176716	229904	273627	419490	503538	557756
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7165	8335	11052	13601	18834	22667	24855
Andijon	14938	18183	19974	26889	33946	40982	43754
Buxoro	7958	10387	15054	15193	24544	29644	33158
Jizzax	4526	6041	8002	10884	18043	22027	24029
Qashqadaryo	10291	14520	20643	21300	26000	31117	37758
Navoiy	4449	5990	7581	8656	17753	21321	23595
Namangan	10411	11939	15231	18891	26568	31815	34600
Samarqand	16312	16802	18309	19972	33250	41145	49370
Surxondaryo	7886	11686	14938	14830	19639	26615	29807
Sirdaryo	3774	5523	6937	8986	13949	16436	17108
Toshkent	11291	13825	18935	26787	44266	52239	54768
Farg‘ona	14110	15342	19312	23135	35851	43529	48481
Xorazm	8396	8674	12847	13513	19605	23462	26694
Toshkent.sh	30258	29469	41089	50990	87242	100539	109779

Xususan, 2022 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 557756 taga yetib, o‘tgan davrga nisbatan 10,7 foizga ortgan. Navoi viloyatida 2022 yil boshiga ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 23595 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 10,6 foizga oshib, 2001 yilga (bazis yilga) nisbatan esa 5,5 barobarga oshgan.

Farg‘ona viloyatida 2022 yil boshiga ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 48481 taga yetib, o‘tgan davrga nisbatan 11,4 foizga ortdi. (3.2.2-jadval)

¹⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma‘lumotlari asosida tuzildi. (www.stat.uz)

Demak, barcha hududlarda ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, o'sish sur'atlari deyarli teng bo'lgan.


Sanoat tarmog'ining iqtisodiy barqaroligiga ta'sir etuvchi yana bir omillardan biri bu investitsiyadir. Mamlakat bo'yicha Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ya'ni korxonalar va aholining o'z vositalari ko'rsatkichlari dinamik xarakterga ega. (3.2.3-jadval)

3.2.3-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (Korxonalar va aholining o'z vositalari) (jami foizda) ¹⁴⁵

Xududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	39,1	57,5	52,5	56,2	40,8	38,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32,7	41,0	57,3	27,8	39,1	39,9
Andijon	49,1	59,2	77,8	66,8	47,6	37,4
Buxoro	45,4	79,2	29,7	51,8	38,3	31,0
Jizzax	26,8	68,5	70,2	58,4	20,9	32,2
Qashqadaryo	42,9	76,8	63,7	61,0	21,6	32,7
Navoiy	37,6	62,7	41,9	60,8	25,8	28,6
Namangan	44,0	50,5	72,1	55,5	41,9	36,7
Samarqand	60,5	50,3	77,9	73,1	53,0	41,0
Surxondaryo	37,7	67,5	56,0	61,2	23,7	29,4
Sirdaryo	39,3	49,0	55,9	41,2	29,9	19,6
Toshkent	36,5	63,8	52,8	53,6	51,6	45,4
Farg'ona	40,4	62,4	61,6	63,8	43,3	41,7
Xorazm	46,5	52,4	63,4	67,5	41,2	45,8
Toshkent.sh	30,2	37,5	41,4	64,4	54,0	44,7

¹⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi. (www.stat.uz)



3.2.2-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (Korxonalar va aholining o'z vositalari) (jami foizda)¹⁴⁶

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi, korxonalar va aholining o'z vositalari foiz hisobida mamlakat, Navoiy viloyati va Farg'ona viloyatlari solishtirma tahlil qilish uchun vizuallashtirildi (3.2.2-rasm).

3.2.4-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)¹⁴⁷


Ko'rsatkichlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	38119,0	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5103,1	9466,6	9031,5	15283,8	29087,9	43438,9	33106,9	43872,2
Ishlab chiqaradigan sanoat	28742,8	78492,3	91483,0	120686,9	189642,6	254860,9	305928,6	378186,4

¹⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi (www.stat.uz)

¹⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi (www.stat.uz)

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	4084,1	8993,3	10522,6	11656,0	14518,5	22014,7	27375,3	30815,5
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	189,0	645,8	832,3	1189,3	2091,7	2221,2	2329,3	3182,0

O'zbekistonda 2010-2021 yillarda sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi o'sish tendensiyaga ega (3.2.3-rasm.)




3.2.3-rasm. O'zbekistonda 2010-2021 yillarda sanoat mahsulotlari hajmining o'sish dinamikasi¹⁴⁸

Mamlakatda kimyo sanoatini hozirgi rivojlanish darajasiga yetgunga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan. O'zbekistonda ilk kimyo zavodi Sho'rsuv oltin gugurt koni 1932 yilda ishga tushirilgan. 1940 yilda kimyo sanoatining eng yirik

¹⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi (www.stat.uz)

korxonasi - Chirchiq elektrkimyo kombinati (bugungi kunda «Maksam-Chirchiq» AJ) mahsulot bera boshlagan¹⁴⁹.



3.2.1-rasm. O'zbekistonda 2010-2021 yillarda sanoatning o'sish dinamikasi¹⁵⁰

O'zbekiston kimyo sanoatining yetakchi aksiyadorlik jamiyati «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona mukammal korporativ tizimdir. Jamiyat kimyo korxonalarining iqtisodiy, innovatsion va marketing faoliyatini rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi hamda kimyo sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

«O'zkimyosanoat» AJ tarkibiga 14 sanoat korxonalari, ilmiy tadqiqot va loyihalash institutlari, shuningdek «Kimyotrans» va «Kimyotrans-logistik» tashqi iqtisodiy transport-ekspeditorlik tashkilotlari hamda «Hamkor-servis» brokerlik kompaniyasi kiradi. «O'zkimyosanoat» AJ korxonalarida 170 turdan ortiq kimyo mahsulotlar ishlab chiqariladi.

¹⁴⁹ <https://uzkimyosanoat.uz/uz/company/history>

¹⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi (www.stat.uz)

3.2.5-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni
rivojlantirish ko‘rsatkichlari¹⁵¹**

Ko‘rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	38119,0	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	451633,9
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi oshishi, %	105,9	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,7
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so‘m	1960,0	4993,7	7378,9	9893,8	15078,4	18974,3	21213,5	27577,9
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishi, %	108,5	107,5	132,7	94,0	97,2	102,3	107,6	105,7
Kimyo mahsulotlari sanoat mahsulotlaridagi ulushi, %	6,8	6,4	8,1	8,2	8,0	7,4	6,9	7,4

Mamlakatda 2010 yilda amaldagi narxlarda 1960,0 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2021 yilda 27577,9 mlrd.so‘mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Kimyo sanoatining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2010 yilda 6,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 7,4 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2010-2021 yillardagi yillik o‘rtacha o‘sish sur‘atlari 5,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, kimyo sanoatining o‘rtacha yillik o‘sish sur‘atlari 6,2 foizni tashkil etgan.

O‘zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirish va samarali boshqarishda «O‘zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati muhim ahamiyatga ega. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 13 martdagi 124-son «Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi

¹⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Agentligi ma‘lumotlari asosida tuzildi.

PQ-2884-son «O‘z kimyosanoat» AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari asosida tashkil etilgan.

O‘zbekiston kimyo sanoati nafaqat eksportni diversifikatsiya qilish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, balki fuqarolarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Kimyo sanoati mahsulotlarining iste‘molchilari - bular qishloq xo‘jaligi (mineral o‘g‘itlar, defoliantlar, kimyoviy o‘simliklarni himoya qilish vositalari), mebel sanoati (formalin, karbamid, qatron KFZ), tog‘-kon kompleksi (natriy sionid suvli eritmasi, poliakrilamidlar, tiomochevina, azot kislotasi, ammiakli suv), elektron va elektrotexnika sanoati (epoksidli qatronlar), neft va gaz sanoati (uniflok, K-9 preparati, burg‘ulash reagenti), qurilish sanoati (kalsiyli soda, natriy nitrati), oziq-ovqat sanoati (sirka kislotasi, soda va oziq-ovqat tuzi) va boshqalar.

Kimyo sanoatining keyingi bo‘limi organik va noorganik mahsulotlardir. Bu turdagi mahsulotlarning O‘zbekistonda ishlab chiqarilishida ham yaxshi natijalar ko‘zga ko‘rinadi, ya‘ni deyarli barcha turdagi mahsulotlar o‘shishiga erishildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston birinchi marta avtomobil shinalari, qishloq xo‘jaligi shinalari va konveyer tasmalarini Xitoyning «Poly Technologies» kompaniyasi bilan birgalikda 2018 yil dekabr oyida ishga tushirilgan Toshkent viloyatining «Angren» maxsus industrial zonasida «Konveyer tasmalari, qishloq xo‘jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarilishini tashkil qilish» loyihasi doirasida ishlab chiqara boshladi.

Bugungi kunda «Birinchi rezinotexnika zavodi» MChJ Markaziy Osiyodagi yagona shinalar ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati - 3 million dona avtomobil shinalari, 200 ming qishloq xo‘jalik shinalari va 100 ming metr konveyer tasmasi.(3.2.6-jadval)

Tarmoqning eng yirik korxonasi bo‘lmish «Navoiyzot» AJda 2019 yilning dekabr oyida 300 ming tonna metanol, 100 ming tonna polivinilxlorid (PVX) va 75 ming tonna kaustik soda ishlab chiqarish bo‘yicha majmua ishga tushirildi. O‘z navbatida, sanoat uchun mutlaqo yangi bo‘lgan PVX mahsulotlarini ishlab chiqish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga, qurilish materiallari, polimer mahsulotlari, iste‘mol tovarlari sohasida yangi kichik korxonalarining paydo bo‘lishiga xizmat qiladi¹⁵².

¹⁵² <https://review.uz/oz/post/obzor-ximicheskoy-promshlennosti-uzbekistana-za-2016-2020gg>

3.2.6-jadval

“O‘z kimyosanoat” AJning 2016-2021 yillar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari¹⁵³

Nomi	O‘lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1. Tovar mah ulotlari xajmi	mlrd.so‘m	2 333,1	2 743,7	4 791,7	6 298,0	7 305,6	9 469,9
2. Asosiy mahsulotlar ishlab chiqarilishi							
2.1. Mineral o‘g‘itlar (100% sof holda), jami	ming tonna	1 125,7	1 141,9	1 170,8	1 211,4	1 180,8	1 454,8
Shu jumladan:							
Azotli o‘g‘itlar	ming tonna	944,7	854,8	848,0	896,9	859,2	1 105,4
Fosforli o‘g‘itlar	ming tonna	143,0	119,1	140,4	115,4	111,6	133,4
Kaliyli o‘g‘itlar	ming tonna	138,0	168,0	182,4	199,1	210,0	216,0
2.2. Organik va noorganik kimyo mahsulotlari	ming tonna						
Nitrat ammoniya past sig‘imli	ming tonna	38,1	39,7	32,2	40,8	63,2	60,0
Kalsiyashtirilgan soda	ming tonna	124,9	172,2	188,6	188,1	185,3	200,0
Kaustik soda	ming tonna	17,7	14,9	14,2	18,2	11,3	16,0
Suyuq xlor	ming tonna	5,0	6,2	5,3	6,8	2,5	5,0
Gipoxlorit natriya	ming tonna	2,9	3,5	4,2	5,5	6,7	1,2
Sian natriysi	ming tonna	28,0	27,8	28,1	32,5	37,2	38,0
Tiomochevina	ming tonna	1,9	1,9	1,9	2,0	2,0	2,0
A markali metanol	ming tonna	4,0	6,8	5,4	7,6	3,5	-
Formalin	ming tonna	4,0	5,1	6,0	7,8	4,3	10,6
PVX (polivinilxlorid)	ming tonna	-	-	-	-	48,7	90,0
Natr yedkiy 32 % (PVX)	ming tonna	-	-	-	-	44,2	75,0
Kislota solyannaya 31 % (PVX)	ming tonna	-	-	-	-	21,2	21,9
Metanol (PVX)	ming tonna	-	-	-	-	1,1	70,0
Nitrat natriya	tonna	2 535,5	4 403,4	3 153,6	3 937,7	4 791,5	4 800,0
Bikarbonat natriya	tonna	438,0	1 443,1	1 370,1	1 914,2	1 927,9	2 000,0
Polietilen quvurlar	ming tonna	1,5	2,4	1,9	3,0	1,2	3,8
Avtomobil shinalari	ming dona				269,6	417,4	1 800,0
Qishloq xo‘jalik shinalari	ming dona				14,8	2,1	40,0
Konveyr lentalar	ming p/m				21,9	43,8	85,0
3. Mahsulot eksporti	mln. doll.	196,8	227,6	185,4	174,9	188,9	256,9
4. Mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish	loyihalar soni	15	11	26	28	23	26
	mlrd. so‘m	317,2	166,5	136,0	806,3	1 342,8	1 467,1
5. Jami tovar mahsulotlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlarning ulushi	%	13,6	6,1	3,3	12,8	18,4	15,5
6. Yangi ish o‘rni yaratish	soni	399	626	951	1 288	595	259
7. Investitsiyalarni o‘zlashtirish	mlrd. so‘m	329	311	467	603	389	281
8. Budjetga to‘lovlar	mlrd. so‘m	502	509	770	783	803	850

¹⁵³ “O‘z kimyosanoat” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2020 yilda O‘zbekiston kimyo mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha birinchi o‘rinni umumiy eksport qiymati 44,231 ming dollar (206 ming tonna) bo‘lgan ammiakli selitra egalladi, bu 2016 yilga qaraganda qariyb ikki barobar ko‘pdir. 2016 yilda respublika bu turdagi mahsulot eksportidan 23343 ming dollar daromad qildi, chet elga 116 ming tonna mahsulot yubordi.

2020 yilda kimyo mahsulotlari eksporti bo‘yicha uchinchi o‘rinni kaliy xlorid egalladi (2016 yildagi 20 572 ming AQSh dollaridan 2020 yilda 36 492 ming AQSh dollariga o‘shirildi).

Eksportda sezilarli ulushni eksport qilinadigan mahsulotlarning umumiy qiymati 12241 ming dollar bo‘lgan va 2016 yilga nisbatan ikki baravar ko‘p (2016 yilda 5952 ming dollar) bo‘lgan kalsiyli soda egalladi. Natijalarga kalsiyli soda ishlab chiqarishni kengaytirish va «Qo‘ng‘irot soda zavodi» MChJda ushbu turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish tufayli erishildi.

Shuningdek, 2020 yilda «Uzkiyompeks» savdo uylari Qozog‘iston, Tojikiston va Ukraina kabi mamlakatlarda ochildi, bu esa ushbu hududlarda sotuvlar chegarasini oshirish, shuningdek, ilgari bu mamlakatlarga eksport qilinmagan mahsulotlarni eksport qilishni boshlash imkonini berdi. Ukrainada savdo uyining tashkil etilishi Sharqiy Yevropa mamlakatlariga eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qildi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tarixda birinchi marta fosforli un (2020 yilda eksport 258 ming dollar yoki 3033 tonna), kaustik soda (110 ming dollar yoki 322 tonna), PVX (11,680 ming dollar yoki 14171 tonna) va avtomobil shinalari (199 ming dollar yoki 6070 dona) eksport qila boshladi¹⁵⁴.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2017-yilda kimyo sanoatida qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 12-apreldagi qaroriga asosan “O‘zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati rahbariyati to‘liq qayta tayinlandi, kimyo sanoati tarmoqlari va boshqaruv tuzilmalari qayta tuzildi. 2017-2021-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi qabul qilingan bo‘lib, uning doirasida umumiy qiymati 3,1 milliard dollarlik 43 ta

¹⁵⁴ <https://uz.tafsilar.info/jekonomika/zbekistonda-kimjo-sanoati-modernizacija-ilinmo-da/>

investitsiya loyihasi amalga oshirilib, natijada sanoat mahsuloti hajmi 2,4 barobar, eksport hajmi 2,7 barobar, mahalliyashtirish mahsulotlari 42,5 foizga, 43 ta yangi mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. mahsulotlar ishlab chiqarilib, 3,2 mingdan ortiq ish o'rnini yaratildi. "O'zkiyimpeks" mas'uliyati cheklangan jamiyati eksport-import faoliyatini tartibga solish va tashqi bozorlarda sotish hajmini oshirish maqsadida tashkil etilgan. Islohotlarning ijobiy natijalariga qaramay, mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi qoniqarsizligi kabi tizimli muammolar hamon mavjud.

Prezident Sh.M. Mirziyoev o'z nutqlarida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mineral o'g'itlar bilan bog'liq xarajatlar qoplanmasligi, kimyo korxonalarining ishlab chiqarish uchun foydalanilgan mahsulot va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklab qo'yayotgani, kreditor qarzdorligi oshishiga sabab bo'layotganini ta'kidlagan edilar. Bu masalani hal etish maqsadida 2018-yilda iste'molchilarga mineral o'g'itlar yetkazib berish "O'zkiyosanoat" AK qoshida tashkil etilgan "Yagona agent" orqali birjalar orqali amalga oshirilishi belgilandi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlar tannarxini pasaytirish, tarmoq korxonalarini rentabelligini oshirish borasida hamon kamchiliklar mavjud. Azotli o'g'itlar narxiga, ayniqsa, energiya resurslari ta'sir ko'rsatadi, bu xarajatlarning 67 foizini tashkil qiladi. "Fergonazot", "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi", "Qo'qon superfosfat zavodi", "Ammofos-Maksam", "Maksam-Chirchiq" birlashmalari kabi bir qancha korxonalarda 2017-yilda mahsulot kam ishlab chiqarildi, "Navoiyazot" korxonasi zarar bilan yakunlandi. 2018 yilda bu ularning aylanma mablag'larini shakllantirish qobiliyatini cheklaydi va ular ko'pincha yuqori foizli kreditlarga tayanishi kerak. Shu bois "O'zkiyosanoat" AK tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 2018-2019-yillarda mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqmoqda. Yana bir e'tiborga olinadigan masala – asosiy texnologik asbob-uskunalarining eskirganligi, bu esa

ishlab chiqarish tartib-qoidalarining izdan chiqishiga va mablag‘ yetishmasligi tufayli zarur ta‘mirlash ishlarini o‘tkaza olmaslikka olib keladi¹⁵⁵.

Ayni paytda Chirchiqdagi “Maksam-Chirchiq”, “Navoiyazot”, “Fergonazot” kabi aksiyadorlik jamiyatlarida ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfat kabi azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarilmoqda. “Olmaliq Ammofos”, “Samarqandkimyo”, Qo‘qon superfosfat zavodi kabi ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida ammofos, suprefos, oddiy ammiaklangan superfosfat, ammoniy sulfat, nitrokalsiy fosfat kabi fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarilmoqda. Ularni xomashyo bilan Qizilqum fosforit zavodi ta‘minlamoqda. SP-OAJ "Elektrokimyoviy zavod" turli xil kimyoviy o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaradi. Kompaniya korxonalarini ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab bir nechta asosiy ishlab chiqarish komplekslariga bo‘lish mumkin:

- yillik ishlab chiqarish quvvati 2,5 million tonnadan ortiq bo‘lgan mineral o‘g‘itlar, noorganik moddalar va energetika, oltin qazib olish va kimyo sanoatida kimyoviy moddalar ishlab chiqarish majmui;

- yillik ishlab chiqarish quvvati 2,0 million tonna bo‘lgan organik kimyo, sun‘iy tolalar, polimer materiallar ishlab chiqarish majmuasi;

- yillik ishlab chiqarish quvvati 50 ming tonna bo‘lgan o‘simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish;

- yiliga 100 ming tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega soda kulini ishlab chiqarish.

2018-yilda zarur bo‘lgan 639,6 ming tonnaning atigi 25 foizi qoplandi. Biroq, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish natijasida yangi fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish majmuasini barpo etish hisobiga ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 177 ming tonnaga, 2021-yilda esa 550 ming tonnaga yetdi.

«O‘zkimyosanoat» AK korxonalari 170 turdan ortiq kimyoviy mahsulot ishlab chiqaradi.

«O‘zkimyosanoat» AJ joriy investitsion faoliyati O‘zbekistonda ishlab chiqarish foydali bo‘lgan eng mashhur mahsulotlarni ko‘paytirishga qaratilgan:

¹⁵⁵ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/kimyo-sanoatini-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi.html>

– zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarishni tashkil etish va mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish loyihalarini xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda tashkil etish;

– O‘zbekiston kimyo korxonalarini xususiylashtirish va xususiylashtirishga xorijiy investorlarni jalb qilish.

3.2.6-jadval

"O‘zkimyosanoat" AJ korxonalarini kesimida sof foyda to‘g‘risida MA'LUMOT¹⁵⁶

№	Korxonalar nomi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2019 yilga nisbatan o‘sishi, %	2021 yil	2020 yilga nisbatan o‘sishi, %
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	"O‘zkimyosanoat" – jami	-31 447	14 519	196 600	102 731	436 383	425%	629 347	144%
	<i>shu jumladan</i>								
	"Navoiyazot" AJ	-35 552	-68 154	4 529	39 549	35 220	89%	178 907	508%
	"Farg‘onaazot" AJ	420	1 150	7 839	158 178	292 599	185%	133 852	46%
	"Maksam-Chirchiq" AJ	-11 818	57 403	123 264	140 521	253 643	181%	250 303	99%
	"Ammofos-Maksam" AJ	13 665	11 876	50 124	12 143	34 098	281%	16 064	47%
	"Jizzax plastmassa" AJ	1 368	11 903	6 757	3 532	201	6%	2 545	12,7 bar
	"Qo‘ng‘irod soda zavodi" MChJ	457	220	610	1 835	3 450	188%	18 905	548%
	"Dehqonobod kaliyli zavodi" AJ	13	121	3 476	5 690	1 337	23%	10 286	769%

2020 yil yakuni bo‘yicha eng kata sof foyda ko‘rgan aksiyadorlik jamiyatlari quyidagilardir: "Navoiyazot" AJ (178 907), "Farg‘onaazot" AJ (133 852) va "Maksam-Chirchiq" AJ (250 303). Biroq o‘sish sur‘ati bo‘yicha "Jizzax plastmassa" AJ (12,7 barobar), "Dehqonobod kaliyli zavodi" AJ (769%) va "Navoiyazot" AJ (508%) yetakchilik qiladi.

Kompaniyaning investitsion faoliyatining ko‘rsatilgan yo‘nalishlari O‘zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish, uning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining ishlashini ta‘minlash jarayonida muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

¹⁵⁶ "O‘zkimyosanoat" AJ ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida kimyo sanoatida yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va murakkab texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun qulay ishlab chiqarish infratuzilmasi, aloqa va logistika mavjudligi e‘tiborga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 iyuldagi 544-sonli “Iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun uzoq muddatli islohotlar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, “The Boston consulting group” konsalting kompaniyasi kimyo sanoatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash uchun batafsil tadqiqot o‘tkazmoqda¹⁵⁷.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda, bizning fikrimizcha quyidagilarga asosiy e‘tibor qaratilmog‘i lozim:

– asosiy vositalar (inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va texnologiyalar) eskirish darajasi yuqoriligidan kelib chiqqan holda korxonalarda modernizatsiya jarayonlari hamda texnik va texnologik qurollantirish ishlarini jadallashtirish;

– korxonalar balansidagi foydalanilmayotgan va ixtisosli bo‘lmagan aktivlarini balansdan chiqarish va sotish;

– korxonalarda (“moliyaviy yostiqcha”) moliyaviy zahiralarni shakllantishi;

– korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini va voistalarining joriy qilish hisobiga qazib olish, qayta ishlash va sotish bo‘g‘inlari xarajatlarini keskin kamaytirish;

– moslashuvchan moliyaviy strategiyani ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirishini nazorat qilish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan omillar kimyo sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxini pasaytirishga zamin yaratadi. Pirovardida, kimyo

¹⁵⁷ <https://invest.gov.uz/uz/investor/himicheskaya-otrasl/>

sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi, yangi zamonaviy ish o'rinlari yaratiladi va aholining turmush darajasi oshadi.

3.3. O'zbekiston kimyo sanoati korxonolari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Jahonda COVID-19 pandemiyasidan keyingi inqirozli vaziyatlarda Xalqaro kompaniyalar tomonidan sanoat korxonolari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalarini jiddiy qayta ko'rib chiqish uchun sabab bo'ldi. Xalqaro ekspert tashkilotlari va davlat nazorat organlari korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash yo'llarini qayta ko'rib chiqish jarayonida faol ishtirok etib, turli tashkilotlarning inqirozga har doim ham yetarli darajada javob bermaslik sabablarini izlash, shuningdek, kelajakda shu kabi muammolarni hal qilishning umumiy strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishga harakat qildilar.

Ushbu paragrafda mamlakatimiz sanoat, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kimyo sanoati, rezina va plastmassa buyumlar hamda boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarining 2000 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrdagi yillik statistik ma'lumotlari asosida ko'p omilli ekonometrik tahlili amalga oshirildi.

Mamlakatimiz tarmoqlarida korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi ekzogen omillarni aniqlash uchun quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omillar - $Y_1, Y_2, Y_3, Y_4, Y_5, Y_6, Y_7$, va ta'sir etuvchi omillar sifatida esa - $X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6, X_7, X_8, X_9, X_{10}, X_{11}, X_{12}$.

3.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat tarmog'ining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan natijaviy va ta'sir etuvchi barcha omillarning shartli belgilanishi

Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	Y1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, mlrd. so'm	Y2
Ishlab chiqaradigan sanoat, mlrd. so'm	Y3
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so'm	Y4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so'm	Y5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish, mlrd. so'm	Y6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, mlrd. so'm	Y7

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ming. so'm)	X1
Sanoatda band bulganlar soni (ming kishi/)	X2
Hududlar kesimida mobil aloqa tizimiga ulangan abonent radiostansiyalari soni (yil oxiriga; 100 ta aholiga nisbatan)	X3
Sanoatda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	X4
O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar eksporti (mln.AQSh.doll.)	X5
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd. so'm)	X6
Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (o'quv yili boshiga, kishi)	X7
Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)	X8
Bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, mln.so'm	X9
Joriy qilingan innovatsiyalar soni, birlik	X10
Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi, mlrd.so'm	X11
Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, ming kishi	X12

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzishdan oldin «Eviews 10» dasturidan foydalangan holda omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazildi. Natijalar quyidagi 3.3.2-jadvalda keltirilgan.

3.3.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillarning tavsifiy statistikasi

Covariance Analysis: Ordinary
Date: 03/01/21 Time: 01:20
Sample: 2016Q1 2019Q4
Included observations: 16

	Y1	X1	X2	X3	X4
Mean	11.72570	7.535463	8.300180	4.163697	7.329360
Median	11.55685	7.324869	7.487437	4.194180	7.270674
Maximum	13.03037	8.833608	9.513485	4.420318	8.078378
Minimum	10.54847	6.368530	7.381315	3.931228	6.723832
Std. Dev.	0.835319	0.888309	1.063641	0.144765	0.440847
Skewness	0.240417	0.280961	0.335678	0.021322	0.313426
Kurtosis	1.742961	1.654438	1.116246	2.197328	1.886459
Jarque-Bera	0.905675	1.063146	1.999624	0.323050	0.816459
Probability	0.635822	0.587680	0.367949	0.850845	0.664826
Sum	140.7084	90.42556	99.60215	49.96436	87.95232
Sum Sq. Dev.	7.675333	8.680029	12.44466	0.230526	2.137805
Observations	12	12	12	12	12


3.3.2-jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymatini (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) ko'rish mumkin. Bundan tashqari, har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) – standart chetlanish koeffitsienti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Tanlab olingan omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 3.3.1-rasmda keltirilgan.

Normal taqsimot funksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$p(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma} \cdot e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}, \quad -\infty < x < \infty,$$

3.3.1-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, o'rganilayotgan Y_1, X_1, X_2, X_3, X_4 omillar barchasi ham normal taqsimot qonuniga bo'ysunmaydi. Shu sababli, omillarning alohida-alohida kombinatsiyalarini tuzish talab etiladi.



3.3.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari

Tanlab olingan aksariyat omillarning asimmetriya koeffitsientlari musbat bo'lganligi sababli ular grafiklarining o'ng «dumi» nazariy normal taqsimot grafiklaridan o'ngga surilgan. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan.

Ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun korrelyatsion tahlil o'tkazish lozim bo'ladi. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi quyidagi 3.3.3-jadvalda keltirildi.

3.3.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillar juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi¹⁵⁸

	Y1	X1	X2	X3	X4
Y1	1.000000	0.998045	0.893486	0.950272	0.996965
X1	0.998045	1.000000	0.901792	0.934628	0.992011
X2	0.893486	0.901792	1.000000	0.788301	0.874122
X3	0.950272	0.934628	0.788301	1.000000	0.963280
X4	0.996965	0.992011	0.874122	0.963280	1.000000

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kimyo korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillarning Anova F-test va Welch F-test natijalari 3.3.4-jadvalda keltirilgan.

3.3.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillarning Anova F-test va Welch F-test natijalari¹⁵⁹

Test for Equality of Means Between Series

Date: 03/08/23 Time: 14:32

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

Method	df	Value	Probability
Anova F-test	(4, 55)	154.4469	0.0000
Welch F-test*	(4, 23.6285)	390.7627	0.0000

*Test allows for unequal cell variances

Analysis of Variance

Source of Variation	df	Sum of Sq.	Mean Sq.
Between	4	350.0985	87.52463
Within	55	31.16835	0.566697

¹⁵⁸ Muallif hisob-kitoblari

¹⁵⁹ Muallif hisob-kitoblari


Total	59	381.2668	6.462150
-------	----	----------	----------

Category Statistics

Variable	Count	Mean	Std. Dev.	Std. Err. of Mean
Y1	12	11.72570	0.835319	0.241136
X1	12	7.535463	0.888309	0.256433
X2	12	8.300180	1.063641	0.307047
X3	12	4.163697	0.144765	0.041790
X4	12	7.329360	0.440847	0.127262
All	60	7.810879	2.542076	0.328181

Korrelyatsion tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, natijaviy omil (Y_1) va unga ta‘sir etuvchi omillar (X_1, X_2, X_3, X_4) o‘rtasidagi bog‘lanishlar zichligini ko‘rsatadi.

Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari natijaviy omilning va ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasida zich bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda, ya‘ni xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari qiymati aksariyati 0,7 dan katta.



3.3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga ayrim omillar (X_i) va natijaviy omillar (Y_i) o‘rtasida bog‘lanish shaklining ko‘rinishi¹⁶⁰

¹⁶⁰ Muallif hisob-kitoblari

Bu yerda asosiy masala ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi shartidir. Ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lmasligi lozim bo'lib, ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsienti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy barqarorligiga ayrim omillar (X_i) va natijaviy omillar (Y_i) ning kombinatsiyalarini alohida-alohida ko'rib chiqish zarur bo'lib, ularning ichidan adekvatlari tanlab olinadi.

Statistikaning nazariy talabi bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsientlariga qiymatlari 0,5 dan kichik bo'lish talab etiladi hamda bu esa ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligidan dalolat beradi.

Yuqorida faoliyat ko'rsatkichlari tadqiq qilinayotgan 7 ta omilning ($Y_1, Y_2, Y_3, Y_4, Y_5, Y_6, Y_7$) korxonadagi omillar o'rtasida bog'liqliklarni ham xuddi yuqorida keltirilganidek tahlil qilish lozim. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari quyidagi 3.3.5-jadvalda keltirilgan.

3.3.5-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo'yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli¹⁶¹

Dependent Variable: Y1
Method: Least Squares
Date: 03/01/23 Time: 18:21
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.817092	0.034054	23.99385	0.0000
X3	0.797148	0.208964	3.814760	0.0041
C	2.249448	0.636881	3.531975	0.0064
R-squared	0.998507	Mean dependent var	11.72570	
Adjusted R-squared	0.998175	S.D. dependent var	0.835319	
S.E. of regression	0.035680	Akaike info criterion	-3.616122	
Sum squared resid	0.011458	Schwarz criterion	-3.494895	
Log likelihood	24.69673	Hannan-Quinn criter.	-3.661005	
F-statistic	3009.977	Durbin-Watson stat	2.248355	
Prob(F-statistic)	0.000000			

¹⁶¹ Muallif hisob-kitoblari

$$Y_1 = 0,81X_1 + 0,79X_3 + 2,249 \quad (1)$$

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli 3.3.6-jadvalda keltirilgan.

3.3.6-jadval

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli¹⁶²

Dependent Variable: Y1
Method: Least Squares
Date: 03/01/23 Time: 18:22
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-2.877309	0.569626	-5.051223	0.0010
X6	3.550811	0.530711	6.690673	0.0002
X7	0.122262	0.049581	2.465890	0.0390
C	-6.975377	1.714372	-4.068766	0.0036
R-squared	0.999428	Mean dependent var	11.72570	
Adjusted R-squared	0.999213	S.D. dependent var	0.835319	
S.E. of regression	0.023433	Akaike info criterion	4.408140	
F-statistic	4656.620	Durbin-Watson stat	1.930568	
Prob(F-statistic)	0.000000			

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_1 = -2,87X_1 + 3,55X_6 + 0,12X_7 - 6,97 \quad (1)$$

Sanoat tarmog‘idagi korxonalarining (Y1) ma‘lumotlari asosida ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, ceteris paribus holatda, mamlakatimizda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni oshishi sanoat mahsuloti hajmini kamayishiga, Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni oshishi esa aksincha, sanoat mahsuloti hajmini ortishiga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Nazariy jihatdan unchalik

¹⁶² Muallif hisob-kitoblari

adekvat bo‘lmagan xulosani keltirib chiqaruvchi ekonometrik model statistik jihatdan ahamiyatli (p-value 0,05 dan kichik).

3.3.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli¹⁶³

Dependent Variable: Y1
 Method: Least Squares
 Date: 03/01/23 Time: 18:23
 Sample: 2010 2021
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X6	0.674929	0.056796	11.88346	0.0000
X8	0.291036	0.081053	3.590702	0.0058
C	1.776184	0.138575	12.81750	0.0000
R-squared	0.998938	Mean dependent var	11.72570	
Adjusted R-squared	0.998703	S.D. dependent var	0.835319	
S.E. of regression	0.030088	Akaike info criterion	-3.957085	
Sum squared resid	0.008147	Schwarz criterion	-3.835859	
Log likelihood	26.74251	Hannan-Quinn criter.	-4.001968	
F-statistic	4234.764	Durbin-Watson stat	0.987036	
Prob(F-statistic)	0.000000			

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_1 = 0,67X_6 + 0,29X_7 + 1,77 \quad (2)$$

Ushbu regressiya tenglamasi ceteris paribus holatda, mamlakatimizda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni 1 ming so‘mga oshishi sanoat mahsuloti hajmini 0,67 mlrd.so‘mga oshishiga, Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari sonini 1 birlikka oshishi sanoat mahsuloti hajmini 0,67 mlrd.so‘mga oshishiga olib kelarkan. Demak, Oliy ta’lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar (X_{12}) omilini ham ijobiy tasir etadi, uni esa omillarni kombinatsiyalash natijasida aniqlashimiz mumkin.

¹⁶³ Muallif hisob-kitoblari

(1) modelning avtokorrelatsiyaga tekshirishda, Breush-Godfri testi o'tkaziladi.

Agar qo'shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo'lsa, ushbu tenglamada

$$e_t = p * e_{t-1} + v_t, t = 1, \dots, n$$

(bu yerda e_t – eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari) p koeffitsienti noldan farqli bo'ladi.

Modelning avtokorrelatsiyaga Breush-Godfri testi orqali tekshiruvi natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (3.3.8-jadval).

3.3.8-jadval

Modelning avtokorrelatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey

F-statistic	1.357808	Prob. F(3,8)	0.3232
Obs*R-squared	4.048652	Prob. Chi-Square(3)	0.2563
Scaled explained SS	0.400436	Prob. Chi-Square(3)	0.9402

Test Equation:
 Dependent Variable: RESID^2
 Method: Least Squares
 Date: 03/04/23 Time: 11:42
 Sample: 2010 2021
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	0.000174	0.000535	0.325377	0.7532
X6	-0.000230	0.000144	-1.595391	0.1493
X7	-5.85E-05	4.84E-05	-1.209068	0.2612
Y1	0.000259	0.000165	1.568861	0.1553
R-squared	0.337388	Mean dependent var		3.37E-05
Adjusted R-squared	0.088908	S.D. dependent var		2.35E-05
S.E. of regression	2.24E-05	Akaike info criterion		-18.31477
Sum squared resid	4.01E-09	Schwarz criterion		-18.15314
Log likelihood	113.8886	Hannan-Quinn criter.		-18.37462
F-statistic	1.357808	Durbin-Watson stat		2.533638
Prob(F-statistic)	0.323203			

Ushbu jadvaldagi ikkala lag ham (resid (-1) hamda resid (-2)) qiymatlariga tasodifiy chetlanishlarning avtokorrelatsiyasi mavjud emasligiga ishonch xosil qilamiz. Modelning getoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi orqali ham amalga oshiramiz.

3.3.9-jadval

Modelning geretoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi natijalari

Heteroskedasticity Test: White

F-statistic	3.023056	Prob. F(7,4)	0.1509
Obs*R-squared	10.09232	Prob. Chi-Square(7)	0.1834
Scaled explained SS	0.998191	Prob. Chi-Square(7)	0.9949

Test Equation:

Dependent Variable: RESID^2

Method: Least Squares

Date: 03/04/23 Time: 11:42

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

Collinear test regressors dropped from specification

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	0.026492	0.066121	0.400660	0.7091
X6^2	-0.000361	0.000151	-2.392011	0.0750
X6*X7	1.22E-06	0.000127	0.009591	0.9928
X6*Y1	0.000479	0.000179	2.680749	0.0552
X6	0.001516	0.000838	1.810680	0.1444
X7^2	0.000455	0.000577	0.788389	0.4746
X7*Y1	-0.000387	0.000177	-2.188802	0.0938
X7	-0.006047	0.012392	-0.487968	0.6511
R-squared	0.841026	Mean dependent var	3.37E-05	
Adjusted R-squared	0.562822	S.D. dependent var	2.35E-05	
S.E. of regression	1.55E-05	Akaike info criterion	-19.07556	
Sum squared resid	9.62E-10	Schwarz criterion	-18.75229	
Log likelihood	122.4533	Hannan-Quinn criter.	-19.19524	
F-statistic	3.023056	Durbin-Watson stat	3.294327	
Prob(F-statistic)	0.150904			

Tadqiqotni davom ettirgan holda, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modelini tuzamiz.

3.3.10-jadval

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli¹⁶⁴

Dependent Variable: Y2
 Method: Least Squares
 Date: 03/01/23 Time: 18:31
 Sample: 2010 2021
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-22.81519	4.648935	-4.907616	0.0080
X2	-0.673805	0.121475	-5.546849	0.0052
X3	-6.861701	1.048352	-6.545224	0.0028
X6	26.80641	4.961756	5.402605	0.0057
X7	-1.698296	0.266417	-6.374591	0.0031
X8	3.469517	0.596303	5.818376	0.0043
X9	-7.143658	1.049245	-6.808382	0.0024
C	1.780514	7.578292	0.234949	0.8258
R-squared	0.998825	Mean dependent var		9.506152
Adjusted R-squared	0.996768	S.D. dependent var		0.798849
S.E. of regression	0.045418	Akaike info criterion		-3.111075
Sum squared resid	0.008251	Schwarz criterion		-2.787804
Log likelihood	26.66645	Hannan-Quinn criter.		-3.230762
F-statistic	485.5662	Durbin-Watson stat		2.481235
Prob(F-statistic)	0.000011			

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_2 = -22.8X_1 - 0.67 X_2 - 6.86 X_3 + 26.8 X_6 - 1.69X_7 + 3.46 X_8 - 7.14 X_9 + 1,78 \quad (3)$$

(3) regressiya tenglamasiga ko‘ra, ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, sanoatda band bulganlar soni, hududlar kesimida mobil aloqa tizimiga ulangan abonent radiostansiyalari soni, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni, bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmini kamayishiga, va aksincha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hamda ko‘rsatilgan aloqa va axborotlashtirish

¹⁶⁴ Muallif hisob-kitoblari

xizmatlarining hajmini oshishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatarkan.


3.3.10-jadval

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey				
F-statistic	0.337331	Prob. F(7,4)		0.9003
Obs*R-squared	4.454393	Prob. Chi-Square(7)		0.7262
Scaled explained SS	0.868595	Prob. Chi-Square(7)		0.9967
Test Equation:				
Dependent Variable: RESID^2				
Method: Least Squares				
Date: 03/04/23 Time: 11:47				
Sample: 2010 2021				
Included observations: 12				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-0.313415	0.295223	-1.061621	0.3483
X1	-0.130486	0.181106	-0.720496	0.5111
X3	-0.007145	0.040840	-0.174956	0.8696
X2	0.000167	0.004732	0.035258	0.9736
X6	0.132977	0.193292	0.687960	0.5293
X7	0.000992	0.010379	0.095554	0.9285
X8	-0.011862	0.023230	-0.510635	0.6365
X9	-0.003356	0.040875	-0.082116	0.9385
R-squared	0.371199	Mean dependent var		0.000688
Adjusted R-squared	-0.729202	S.D. dependent var		0.001346
S.E. of regression	0.001769	Akaike info criterion		-9.601700
Sum squared resid	1.25E-05	Schwarz criterion		-9.278428
Log likelihood	65.61020	Hannan-Quinn criter.		-9.721386
F-statistic	0.337331	Durbin-Watson stat		2.555526
Prob(F-statistic)	0.900257			

Statistik jihatdan model adekvat bo‘lishiga qaramay (p-value 0,05 dan kichik, determinatsiya koeffitsienti 0.99ga teng) nazariy tomonidan yetarlicha xulosani bermagan.

Qo‘yidagi diagrammada O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli qoldiklari taqsimoti keltirilgan.



3.3.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bo‘yicha tanlab olingan ayrim omillarning regression modeli qoldiklari taqsimoti

O‘zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaradigan sanoat (Y3) korxonalarining ma’lumotlari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari hisoblandi.

3.3.11-jadval O‘zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaradigan sanoat (Y3) korxonalarining ma’lumotlari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: Y3
Method: Least Squares
Date: 03/01/23 Time: 18:32
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-4.281783	0.628916	-6.808191	0.0001
X6	4.881023	0.585950	8.330096	0.0000
X7	0.139665	0.054742	2.551329	0.0341
C	-11.42590	1.892814	-6.036459	0.0003
R-squared	0.999337	Mean dependent var	11.50239	
Adjusted R-squared	0.999088	S.D. dependent var	0.856770	
S.E. of regression	0.025872	Akaike info criterion	-4.210103	
Sum squared resid	0.005355	Schwarz criterion	-4.048468	
Log likelihood	29.26062	Hannan-Quinn criter.	-4.269946	
F-statistic	4018.368	Durbin-Watson stat	2.097334	
Prob(F-statistic)	0.000000			

Yuqoridagi jadvaldan regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_3 = -4.28X_1 + 4.88 X_6 + 0.13X_7 - 11,4 \quad (4)$$

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari tekshiramiz.

3.3.12-jadval

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey				
F-statistic	0.769229	Prob. F(3,8)	0.5428	
Obs*R-squared	2.686562	Prob. Chi-Square(3)	0.4425	
Scaled explained SS	0.656804	Prob. Chi-Square(3)	0.8833	
Test Equation:				
Dependent Variable: RESID^2				
Method: Least Squares				
Date: 03/04/23 Time: 11:55				
Sample: 2010 2021				
Included observations: 12				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-0.060302	0.082323	-0.732500	0.4848
X1	-0.005397	0.004069	-1.326612	0.2213
X3	0.024174	0.024600	0.982678	0.3545
X12	0.000941	0.008929	0.105341	0.9187
R-squared	0.223880	Mean dependent var	0.003711	
Adjusted R-squared	-0.067165	S.D. dependent var	0.004066	
S.E. of regression	0.004200	Akaike info criterion	-7.846125	
Sum squared resid	0.000141	Schwarz criterion	-7.684490	
Log likelihood	51.07675	Hannan-Quinn criter.	-7.905968	
F-statistic	0.769229	Durbin-Watson stat	2.512572	
Prob(F-statistic)	0.542772			

Respublikamiz ishlab chiqaradigan sanoati (Y_3) korxonalarining ma'lumotlari asosida ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini statistik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, aksariyat omillarda p-value qiymatlari 0,05 dan katta bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi.

Modelning geretoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi natijalari

Heteroskedasticity Test: White				
F-statistic	0.493250	Prob. F(9,2)	0.8124	
Obs*R-squared	8.272856	Prob. Chi-Square(9)	0.5069	
Scaled explained SS	2.022527	Prob. Chi-Square(9)	0.9911	
Test Equation:				
Dependent Variable: RESID^2				
Method: Least Squares				
Date: 03/04/23 Time: 11:55				
Sample: 2010 2021				
Included observations: 12				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-5.198811	9.531711	-0.545423	0.6402
X1^2	-0.017565	0.033421	-0.525559	0.6517
X1*X3	0.146497	0.384176	0.381327	0.7397
X1*X12	0.109733	0.156967	0.699083	0.5569
X1	-0.801549	0.992915	-0.807269	0.5043
X3^2	-0.185127	1.134506	-0.163178	0.8854
X3*X12	-0.884514	0.885977	-0.998349	0.4233
X3	4.170324	6.176670	0.675174	0.5692
X12^2	0.343724	0.215445	1.595413	0.2517
X12	-0.137859	1.619143	-0.085143	0.9399
R-squared	0.689405	Mean dependent var	0.003711	
Adjusted R-squared	-0.708274	S.D. dependent var	0.004066	
S.E. of regression	0.005314	Akaike info criterion	-7.761941	
Sum squared resid	5.65E-05	Schwarz criterion	-7.357852	
Log likelihood	56.57165	Hannan-Quinn criter.	-7.911549	
F-statistic	0.493250	Durbin-Watson stat	3.553474	
Prob(F-statistic)	0.812443			

Xuddi shu tarzda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (Y_4), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (Y_5), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (Y_6) hamda boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (Y_7) ga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilamiz.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda ushbu paragrafda asosan kimyo sanoatiga batafsil to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati (Y_5) korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari 3.3.14-jadvalda keltirilgan.

3.3.14-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati (Y₅)
korxonalarining ma’lumotlari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning
hisoblangan parametrlari**

Dependent Variable: Y5
Method: Least Squares
Date: 03/01/23 Time: 18:37
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X2	0.150556	0.037922	3.970145	0.0041
X9	1.048408	0.055126	19.01825	0.0000
X12	0.310258	0.139222	2.228516	0.0564
C	-7.223493	0.701653	-10.29497	0.0000
R-squared	0.996236	Mean dependent var	8.847062	
Adjusted R-squared	0.994824	S.D. dependent var	0.912875	
S.E. of regression	0.065673	Akaike info criterion	-2.347043	
Sum squared resid	0.034504	Schwarz criterion	-2.185407	
Log likelihood	18.08226	Hannan-Quinn criter.	-2.406886	
F-statistic	705.7927	Durbin-Watson stat	1.965800	
Prob(F-statistic)	0.000000			

Ushbu yuqoridagi jadvaldan regression modelning tenglamasini tuzamiz:

$$Y_5 = 0.15X_2 + 1.04X_9 + 0.31X_{12} - 7,22 \quad (5)$$

(5) regressiya tenglamasini lingvistik interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda sanoatda band bulganlar (ya’ni ishlovchilar soni, ishchi kuchi) sonining 1 ming kishiga oshishi aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 0,15 mlrd.so‘mga oshishiga, bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmining 1 mln.so‘mga ortishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so‘mga oshishiga hamda oliy ta’lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislarni 1 ming kishiga oshishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so‘mga oshishiga xizmat qilarkan.

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari tekshiramiz.

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali natijalari

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey

F-statistic	1.701857	Prob. F(3,8)	0.2433
Obs*R-squared	4.674871	Prob. Chi-Square(3)	0.1972
Scaled explained SS	2.324762	Prob. Chi-Square(3)	0.5078

Test Equation:
 Dependent Variable: RESID^2
 Method: Least Squares
 Date: 03/04/23 Time: 12:18
 Sample: 2010 2021
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-0.041651	0.043974	-0.947176	0.3713
X2	-0.004602	0.002377	-1.936521	0.0888
X9	0.007606	0.003455	2.201392	0.0589
X12	-0.003535	0.008725	-0.405172	0.6960

R-squared	0.389573	Mean dependent var	0.002875
Adjusted R-squared	0.160662	S.D. dependent var	0.004493
S.E. of regression	0.004116	Akaike info criterion	-7.886731
Sum squared resid	0.000136	Schwarz criterion	-7.725096
Log likelihood	51.32039	Hannan-Quinn criter.	-7.946575
F-statistic	1.701857	Durbin-Watson stat	2.404461
Prob(F-statistic)	0.243334		

Ushbu jadvaldagi ikkala lag ham (resid (-1) hamda resid (-2)) qiymatlariga tasodifiy chetlanishlarning avtokorrelyatsiyasi mavjud emasligiga ishonch xosil qilamiz. Modelning geretoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi orqali ham amalga oshiramiz.

Modelning geretoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi natijalari

Heteroskedasticity Test: White


F-statistic	0.843832	Prob. F(9,2)	0.6507
Obs*R-squared	9.498564	Prob. Chi-Square(9)	0.3926
Scaled explained SS	4.723533	Prob. Chi-Square(9)	0.8577

Test Equation:
 Dependent Variable: RESID^2
 Method: Least Squares
 Date: 03/04/23 Time: 12:19
 Sample: 2010 2021
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-6.681341	8.196173	-0.815178	0.5006
X2^2	0.066076	0.251223	0.263015	0.8172
X2*X9	-0.008502	0.019673	-0.432152	0.7078
X2*X12	0.286666	0.317714	0.902277	0.4621
X2	-2.222228	5.341558	-0.416026	0.7178
X9^2	-0.009083	0.039236	-0.231510	0.8384
X9*X12	-0.293456	0.313405	-0.936350	0.4479
X9	1.547137	2.243451	0.689624	0.5617
X12^2	-0.157652	0.312459	-0.504553	0.6640
X12	2.776621	3.812307	0.728331	0.5421

R-squared	0.791547	Mean dependent var	0.002875
Adjusted R-squared	-0.146491	S.D. dependent var	0.004493
S.E. of regression	0.004810	Akaike info criterion	-7.961177
Sum squared resid	4.63E-05	Schwarz criterion	-7.557088
Log likelihood	57.76706	Hannan-Quinn criter.	-8.110785
F-statistic	0.843832	Durbin-Watson stat	2.339377
Prob(F-statistic)	0.650743		

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsientlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsientlari hisoblandi.



3.3.3-rasm. Ko'p omilli ekonometrik modelning statistik jihatdan ahamiyatliligi testi diagrammasi

Amalga oshirilgan regression tahlilning umumlashgan ma'lumotlari 3-jadvalga aks etgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli ekonometrik tahlillar natijalari sintetik jadvalda umulashgan holda keltirilgan. (3.3.17-jadval)

3.3.17-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini baholash natijalari

Ko'rsatkichlar	Tarmoq	Olingan funksiya	R ²	F	p-value
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm Y1	Sanoat	$Y1 = 0,81X1 + 0,79X3 + 2,249$	0,9985	3009,97	0,000
Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ming. so'm) X1		$Y1 = -2,87X1 + 3,55X6 + 0,12X7 - 6,97$	0,9994	4656,62	0,000
Sanoatda band bulganlar soni (ming kishi) X2 Hududlar kesimida mobil aloqa tizimiga ulangan abonent radiostansiyalari soni (yil oxiriga; 100 ta aholiga nisbatan) X3 Sanoatda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (ming so'm) X4 O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar eksporti (mln.AQSh.doll.) X5 Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd. so'm) X6 Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (o'quv yili boshiga, kishi) X7		0,9989	4234,76	0,000	
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, mlrd. so'm Y2	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	$Y2 = -22.8X1 -0.67 X2 -6.86 X3+26.8 X6 - 1.69X7 +3.46 X8 -7.14 X9+1,78$	0,9967	485.56	0,000
Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ming. so'm) X1		$Y2 = -0.12 X2 +15.7 X6 +125.69$	0,9954	154.33	0,000
Sanoatda band bulganlar soni (ming kishi) X2 Hududlar kesimida mobil aloqa tizimiga ulangan abonent radiostansiyalari soni (yil oxiriga; 100 ta aholiga nisbatan) X3 Sanoatda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (ming so'm) X4 O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar eksporti (mln.AQSh.doll.) X5 Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd. so'm) X6 Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (o'quv yili boshiga, kishi) X7 Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining		0,9946	232.63	0,000	

hajmi (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm) X8					
Ishlab chiqaradigan sanoat, mlrd. so'm Y3 Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ming. so'm) X1 Sanoatda band bulganlar soni (ming kishi/) X2 Hududlar kesimida mobil aloqa tizimiga ulangan abonent radiostansiyalari soni (yil oxiriga; 100 ta aholiga nisbatan) X3 Sanoatda nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (ming so'm) X4 Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd. so'm) X6 Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (o'quv yili boshiga, kishi) X7	Ishlab chiqaradigan sanoat	$Y3 = -4.28X1 + 4.88X6 + 0.13X7 - 11,4$	0,9993	4018,25	0,000
		$Y3 = 1,22 \cdot X_2 + 2,9 \cdot X_3 + 964,13$	0.9998	235,48	0,000
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd. so'm Y5 anoatda band bulganlar soni (ming kishi/) X2 Bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, mln.so'm X9 Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, ming kishi X12.	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	$Y5 = 0.15X2 + 1.04X9 + 0.31X12 - 7,22$	0,9948	705,79	0,000

Ko'p omilli ekonometrik modellarning statistik jihatdan ahamiyatligini tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan F-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model (5) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkichi Y_5 ning kimyo sanoati korxonalarini mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi. «O'zkiyosanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarining 2030 yilgacha rivojlanish istiqbollari foydalanilgan.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston hududlari reytinglarini tuzish iqtisodiy barqarorlik holatini integral baholash qiymatlari bo'yicha mintaqaviy reytinglarni tuzish natijalari asosida mumkin bo'lib, uni "pattern" usulida olish mumkin. "Pattern" usuli ushbu ko'rsatkichlarning haqiqiy qiymatlarini eng yaxshilari bilan bog'lash orqali ma'lum

ko'rsatkichlarning qiymatlariga asoslangan integral baholashni olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2010-2021 yillardagi yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, kimyo sanoatining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 6,2 foizni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kimyo sanoati iqtisodiy barqarorligini qisqa davrda (2021-2022 yillarda) oylik statistik ma'lumotlarini tahlil qilinganda unga iqtisodiy faol aholi (X_1), ish bilan band aholi (X_2) hamda sanoatda o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (X_3) o'rtasidagi bog'lanishlar statistik ahamiyatli emas. Demak, bu yerda yana boshqa omillarni ham chuqur o'rganilishi talab etiladi.

Ushbu paragrafda mamlakatimiz sanoat, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kimyo sanoati, rezina va plastmassa buyumlar hamda boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarining 2000 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrdagi yillik statistik ma'lumotlari asosida ko'p omilli ekonometrik tahlili amalga oshirildi. Mamlakatimiz tarmoqlarida korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi ekzogen omillarni aniqlash uchun quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omillar - $Y_1, Y_2, Y_3, Y_4, Y_5, Y_6, Y_7$, va ta'sir etuvchi omillar sifatida esa - $X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6, X_7, X_8, X_9, X_{10}, X_{11}, X_{12}$.

Ekonometrik tahlillarga ko'ra, ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda sanoatda band bulganlar (ya'ni ishlovchilar soni, ishchi kuchi) sonining 1 ming kishiga oshishi aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 0,15 mlrd.so'mga oshishiga, bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmining 1 mln.so'mga ortishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so'mga oshishiga hamda oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislarni 1 ming kishiga oshishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so'mga oshishiga xizmat qilarkan.

IV-BOB. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

4.1. Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari

COVID-19 pandemiyasi butun dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilda jahon iqtisodiy faolligi 3,2 foizga qisqardi, jahon savdosi 5,3 foizga qisqardi, 2020 yilda AQSh yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'tgan yilga nisbatan 3,4 foizga kamaydi¹⁶⁵. Agar iqtisodiy va insoniy yo'qotishlar (nogironlik bo'yicha tuzatilgan umr yillari) kabi aholi salomatligi ko'rsatkichlari yordamida birgalikda baholansa, faqatgina 2020 yilda COVID-19 ning ta'siri so'nggi 20 yildagi barcha epidemiyalar va tabiiy ofatlardan ancha yuqori¹⁶⁶.

Suv toshqinlari, zilzilalar va boshqa ofatlarda bo'lgani kabi, pandemiyadagi iqtisodiy ta'sirlar va tiklanish mutlaqo notekis bo'ldi. Butun dunyo bo'ylab turizm kabi ba'zi tarmoqlar vayron bo'lgan, boshqalari esa kichik moslashuvlar bilan davom etishga muvaffaq bo'lgan. Ba'zi mamlakatlar, submilliy mintaqalar va shaharlar bir muncha vaqt iqtisodiy jihatdan yopilgan, boshqalari esa uzoq davom etadigan blokirovkalardan qochishgan. Korxonalar miqyosida ba'zilar muvaffaqiyatsizlikka uchradi, boshqalari xavfli vaziyatlarda qolmoqda, ba'zilar esa pandemiya davrida juda oz ta'sir ko'rsatdi yoki hatto yaxshi natijalarga erishdi.

Oldingi ofatlar bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday notekislik nafaqat xavfning o'ziga xos xususiyatlaridan, balki zarar ko'rgan korxonalarining zaiflik sharoitlaridan ham kelib chiqadi. Biznesning ta'siri va tiklanishi uning faoliyatini davom ettirish qobiliyati, etkazib beruvchilar va mijozlarning omon qolishi, tabiiy ofatdan oldingi moliyaviy sog'lig'i va o'zgaruvchan muhitga moslashish qobiliyati kabi omillardan kelib chiqadi - dastlabki zarba bo'lishidan qat'i nazar toshqin, zilzila yoki pandemiya edi.

¹⁶⁵ Congressional Research Service (CRS) Global Economic Effects of COVID-19 report R46270 CRS, Washington, DC (2021), p. 2021 November 10

¹⁶⁶ I. Noy, N. Doan (2021). A comprehensive measure of lifeyears lost due to COVID-19 in 2020: a comparison across countries and with past disasters. *Global Pol.*, 12 (4) (2021), pp. 553-561

Pandemiya haqidagi tadqiqotlar tabiiy ofatlar haqidagi adabiyotlardan bilimlarni qayta tekshirish, tasdiqlash, takomillashtirish va ilgari surish uchun ishlatilishi mumkin. Shunga qaramay, pandemiya va tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan ofatlar o'rtasidagi bunday empirik taqqoslashga buzg'unchi hodisalar biznesni tiklashga qanday ta'sir qilishi haqida keng qamrovli kontseptual asoslarning yo'qligi to'sqinlik qilmoqda. Covid-19 pandemiyasi oqibatlarini va hozirgi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida o'zgaruvchan iqtisodiyot inqiroz hodisalarini xavfini o'z ichiga oladi, buning natijasida korxonalar o'zlarining iqtisodiy barqarorligini yo'qotadilar.

Xorijlik tadqiqotchilar Stephanie E. Chang a, Charlotte Brown va boshqalar tomonidan COVID-19 pandemiyasida iqtisodiy tiklanishni korxonalar miqyosida boshqa ofat turlari bilan taqqoslama atahlil amalga oshirilgan. Ilmiy ishda pandemiyani iqtisodiy buzilish nuqtai nazaridan tabiiy xavf hodisalarini bilan solishtirishga imkon beruvchi falokat hodisalarini taksonomiyasini taklif qilingan. Olimlar guruhi pandemiyani iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish natijasida kichik korxonalar, ta'minot zanjiri muammolariga duchor bo'lganlar, buzilgan bozorlarga duch kelganlar va jiddiy ta'sir ko'rsatadigan mahalliy korxonalar uchun tiklanish qiyinroq degan xulosaga kelishgan¹⁶⁷.

Xitoylik olimlar Shikun Zhang, Muhammad Khalid Anser, Michael Yao-Ping Peng hamda Chunchun Chenlar COVID-19 epidemiyasini energiya tizimiga ta'sirini tadqiq etishgan. Tadqiqotda Xitoyning Barqaror o'sish maqsadlari (SDG) va iqtisodiy rivojlanish maqsadlaridagi o'zgarishlarning Xitoy korxonalarining energiya tejash va chiqindilarni kamaytirish xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganishgan. Olingan ilmiy natijalarda asosiy tabiiy resurslar va yashil iqtisodiyotni tiklash siyosatini COVID-19 pandemiyasi tomonidan iqlim o'zgarishi ta'sirini bartaraf etishni tavsiya qilingan¹⁶⁸.

¹⁶⁷ Stephanie E. Chang et.al. Business recovery from disasters: Lessons from natural hazards and the COVID-19 pandemic. *International Journal of Disaster Risk Reduction*. Volume 80, 1 October 2022, 103191

¹⁶⁸ Zhang, S., Anser, M. K., Peng, M. Y., & Chen, C. (2022). Visualizing the sustainable development goals and natural resource utilization for green economic recovery after COVID-19 pandemic. *Resources Policy*, 80, 103182. <https://doi.org/10.1016/j.resourpol.2022.103182>

Osiyolik boshqa bir guruh tadqiqotchilar Yimin Shan, Yang Chen, Yajun Xiaolar pul-kredit siyosati COVID-19 pandemiyasida bozor stabilizatori sifatida tadqiq etishib, pul-kredit siyosatini foiz stavkalari, monetar yumshatish va likvidlik qarorlari asosida tasniflashgan. Ular fond bozori likvidlik siyosati e'lonlariga COVID-19 davrida va undan keyin bozor va sanoat darajasida foiz stavkalari yoki pul kreditini yumshatish siyosati e'lonlariga nisbatan sezilarli marja bilan ijobiy munosabatda bo'lishini aniqlashga o'rinishgan. Tadqiqotchilar fikricha, iqtisodiy oqibatlar katta va doimiy bo'lib, pul-kredit siyosatini uzatish kanallari uchun ishonchli vosita sifatida firma xususiyatlaridan foydalanib, firmalar darajasida inqiroz davrida likvidlik siyosati e'lonlariga ijobiy javoblar boshqa korxonalar nisbatan kichik va o'rta biznes va nodavlat korxonalar uchun ko'proq ifodalanganligini aniqlashgan¹⁶⁹.

COVID-19 pandemiyasi fonida ko'p millatli korxonalarining qo'shilish va sotib olish xavfi va sinergiyasi Junpeng Zhang, Deliang Pang, Leijing Yang, Wenjun Ouyang kabi olimlar chuqur o'rganilgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot iqtisodiy siyosat noaniqlik chora-tadbirlari va 2009 yildan 2019 yilgacha 11 mamlakatda Osiyo-Tinch okeani ko'pmillatli biznesni o'z ichiga olgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakatning iqtisodiy siyosatidagi noaniqlik ko'p millatli korxonalarini qo'shilish va sotib olishni sezilarli darajada cheklashini ko'rsatish uchun, mamlakatning iqtisodiy siyosatidagi noaniqlik qo'shilish va sotib olishni sezilarli darajada kuchaytiradi va iqtisodiyot protsiklik bosqichda bo'lsa, bu ta'sirlar kamayadi. Bundan tashqari, iqtisodiy inqiroz mamlakatning noaniq iqtisodiy siyosatining butun dunyo bo'ylab M&As firmasiga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning iqtisodiy siyosati noaniqligi va ko'p millatli firma Birlashma va sotib olish o'rtasida sezilarli salbiy korrelyatsiya mavjud degan xulosaga kelishgan¹⁷⁰.

¹⁶⁹ Shan, Y., Chen, Y., & Xiao, Y. (2023). Monetary Policy as Market Stabilizer in the COVID-19 Pandemic. *Finance Research Letters*, 103960. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2023.103960>

¹⁷⁰ Zhang, J., Pang, D., Yang, L., & Ouyang, W. (2023). Risk and synergy of multinational enterprise mergers and acquisitions under the background of the COVID-19 pandemic. *Economic Analysis and Policy*. <https://doi.org/10.1016/j.eap.2023.03.025>

COVID-19 pandemiyasi soyasida samarali risklarni boshqarish borasida Indoneziyalik iqtisodchilar Jun Huang, Bienmali Kombate, Yun Li, Konan Richard Kouadio, Peijun Xielarning tadqiqotlari e'tiborga molikdir. Tadqiqotda nomoliyaviy korporatsiyalarning risklarni boshqarish amaliyotlarining operatsion samaradorlikka ta'sirini o'rganilib, COVID-19 pandemiyasi davrida risklarni boshqarish amaliyotlarining operatsion samaradorlikka ta'sirini o'lchash uchun kvazi-tabiiy tajriba qo'llanildi. Tavsifiy tahlil shuni ko'rsatdiki, COVID-19 pandemiyasining ta'siri turli sanoat tarmoqlarida teng bo'lmagan. Bundan tashqari, empirik xulosalar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 davrida korporativ risklarni boshqarish tizimli o'zgarishlarning manbai bo'lib, uning mavjudligi va operatsion samaradorligiga ta'sir qilishi aniqlandi. Bundan tashqari, topilmalar uzoq muddatli qarzlar korporativ operatsion samaradorlik bilan salbiy bog'liqligini ko'rsatadi. Korporatsiyalar uzoq muddatli investitsiyalar uchun uzoq muddatli qarz mablag'laridan foydalanadilar, qisqa muddatli qarz esa aylanma mablag'larni moliyalashtiradi degan xulosaga kelishgan¹⁷¹.

Sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va ta'lim sohalarida Covid-19dan keyingi texnologik, innovatsion va barqarorlikni ta'minlash muammolari xorijiy olimlar Gemma Molleví Bortoló, Jesús Álvarez Valdés, Ruben Nicolas-Sans o'z ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Covid-19 pandemiyasining ta'siri "Sanoat 4.0" inqilobini rivojlantirishga turtki berdi. Ushbu pandemiya biznesda Big Data, sun'iy intellekt va umuman yangi texnologiyalardan foydalanishda evolyutsiyaga olib keldi. Tadqiqot natijalari karantin vaqtida yangi texnologiyalarning jamiyatga ta'siri, yangi mahsulotlar va korxonalarni yaratish uchun Big Datadan foydalanish, yangi paydo bo'lgan korxonalar va kompaniyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri o'rganilgan¹⁷². Natijalarga ko'ra, yangi texnologiyalar foydali bo'ldi, chunki ularsiz jamiyatlar barbod bo'lar edi. Ular ma'lumotlar, bilimlarning erkin oqimi va

¹⁷¹ Huang, J., Kombate, B., Li, Y., Kouadio, K. R., & Xie, P. (2023). Effective risk management in the shadow of COVID-19 pandemic: The evidence of Indonesian listed corporations. *Heliyon*, 9(5), e15744. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e15744>

¹⁷² Bortoló, G. M., Valdés, J. Á., & Nicolas, R. (2023). Sustainable, technological, and innovative challenges post Covid-19 in health, economy, and education sectors. *Technological Forecasting and Social Change*, 190, 122424. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2023.122424>

mahsulot va xizmatlar almashinuviga imkon berish orqali kamchiliklardan ko‘ra ko‘proq foyda keltirdi. Yangi texnologiyalardan foydalanishda tafovutlar mavjud edi, chunki hamma mamlakatlar ham bir xil munosabatda bo‘lmagan, barcha kompaniyalar ham bir xil harakatlarni amalga oshirmagan. Ba’zi hollarda fuqarolar xarid qilish va dam olishda raqamlashtirilgan bo‘lib, audiovizuallar, uyda sport, madaniyat va gastronomiya kabi mahsulot va xizmatlarni iste’mol qilish tartibini o‘zgartirgan degan xulosani berishgan.

Yevropalik iqtisodchilar S. Mirto, V. Montalto va boshqalar Italiyada COVID-19 pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlarni tadqiq etishgan. Ma’lumki, 2020 yil mart oyining boshidan va keyingi ikki yarim oy davomida Italiyani o‘z ichiga olgan ko‘plab Evropa mamlakatlari misli ko‘rilmagan karantinga majbur bo‘ldi, bu esa pandemiya keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy iqtisodiy faoliyatni (masalan, sanitariya, oziq-ovqat) ochishga ruxsat berdi. Italiya iqtisodiyotining ko‘plab tarmoqlari singari, akvakultura ham davom etayotgan favqulodda vaziyat va natijada biznesning yopilishi tufayli sekinlashdi. Olimlar o‘z tadqiqotlarida ishchilar tomonidan qabul qilingan COVID-19 cheklovlari qabul qilingandan so‘ng, Italiyadagi akvakultura sektoriga cheklovning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirining "modelini" taqdim etishgan.

Unga ko‘ra, COVID-19 inqirozi mavjud tengsizliklarni kuchaytirgan bo‘lsa-da, ekstremal iqlim hodisalari kabi boshqa ekologik favqulodda vaziyatlar katta ko‘rinishga ega bo‘lib, ular Italiyaning akvakultura sektori uchun katta zarar sifatida qabul qilingan. Ekstremal ob-havo hodisalari, xususan, bo‘ronlar, issiqlik to‘lqinlari, dehqonchilik turlarining kasalliklari, masalan, parazitozlar, zoonozlar, viruslar, suv toshqini va eroziv hodisalar Italiyaning markazida va shimolida joylashgan faoliyatga ko‘proq ta’sir qiluvchi omillar sifatida qayd etilgan. Bunda geografik joylashuv ham omil sifatida tadqiq etilgan¹⁷³.

¹⁷³ Mirto, S., Montalto, V., Mangano, M., Ape, F., Berlino, M., La Marca, C., Lucchese, M., Maricchiolo, G., Martínez, M. I., Rinaldi, A., Terzo, S., Celic, I., Galli, P., & Sarà, G. (2022). The stakeholder’s perception of socio-economic impacts generated by COVID-19 pandemic within the Italian aquaculture systems. *Aquaculture*, 553, 738127. <https://doi.org/10.1016/j.aquaculture.2022.738127>

Lotin Amerikada Covid-19 pandemiyasining mehmonxona sanoatining iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri, xususan Portugaliya mehmonxona sanoatining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini Mário Coutinho dos Santos, José Magano va Jorge Motalar o'z ilmiy ishlarida tadqiq etishgan. Ular 2020–2021 yillar davomida pandemiyaning ta'sirini sanoatning jami operatsion daromadlari, sof jami aktivlari, sof jami qarzlari, ishlab chiqarilgan pul oqimi va moliyaviy bo'shlik nuqtai nazaridan o'lchash uchun yangi empirik yondashuvni amalga oshirishgan. Natijada Portugaliyaning mehmonxona sanoati namunasining 2020 va 2021 yillardagi "Covidsiz" jamlangan moliyaviy hisobotlarini loyihalash uchun barqaror o'sish modelini ishlab chiqishgan. Umumiy xulosa, Covid-19 pandemiyasi kabi ekstremal hodisalarning iqtisodiy va moliyaviy oqibatlarini yoritib beradi va bizga bunday ta'sirdan xalos bo'lish uchun davlat siyosati va biznes strategiyalarini qanday ishlab chiqishni yaxshiroq tushunish imkonini bergan¹⁷⁴.

Yana bir boshqa moliyachi Safi Ullah Khan o'z ilmiy ishida moliyaviy cheklovlar va COVID-19 pandemiyasining oqibatlarini global darajada tadqiq etishga o'ringan. U moliyaviy cheklovlar kichik va o'rta korxonalarining COVID-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzullardan o'tish usullariga ta'sir qilgan yoki yo'qligini o'rgangan. COVID-19 epidemiyasi boshlanishidan oldin ushbu mamlakatlarda o'tkazilgan korporativ so'rovlarning davomi sifatida Jahon bankining korxonalarini tahlil qilish bo'limi tomonidan 19 mamlakatda o'tkazilgan COVID-19 ta'sirini kuzatish bo'yicha so'rovlar bo'yicha yangi manba ma'lumotlaridan foydalanib, oldingi bank kreditlari cheklovlari pandemiya oqibatlarini kuchaytirganligini aniqlagan.

Natijada, kredit bilan ta'minlangan firmalar likvidlik va pul oqimlari bilan bog'liq muammolarga ko'proq duch kelishgan va iqtisodiy inqiroz davrida moliyaviy institutlar oldidagi majburiyatlarini bajarishda cheklanmagan firmalarga qaraganda ko'proq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, ushbu firmalar COVID-19 epidemiyasi davrida pandemiya kelib chiqqan pul oqimi va likvidlik

¹⁷⁴ Santos, M. C. D., Magano, J., & Mota, J. (2023). The impact of the Covid-19 pandemic on the hotel Industry's economic performance: Evidence from Portugal. *Heliyon*, 9(5), e15850. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e15850>

muammolarini hal qilish uchun asosiy moliya manbai sifatida bank mablag'laridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish ehtimoli kamroq edi. Bundan tashqari, kredit cheklangan firmalar pandemiya bilan bog'liq likvidlik va pul oqimi muammolarini yengish uchun savdo kreditidan foydalanish, yetkazib beruvchilar yoki xodimlarga to'lovlarni kechiktirish va davlat grantlariga tayanish ehtimoli ko'proq ekanligini aniqlaymiz. Ushbu iqtisodiy inqiroz davrida kredit bilan ta'minlangan firmalar o'z kapitalini oshirish ehtimoli ko'proq bo'lganligi to'g'risida ozgina dalillar topishga xarakat qilingan. Shuningdek, moliyaviy cheklovlar firmalarning ekzogen zarbalarga javoban biznes operatsiyalarini sozlash qobiliyatiga ko'proq xalaqit berishini aniqlagan¹⁷⁵.

Biroq yuqoridagi ilmiy ishlarda Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash modellari yohud mexanizmlari yoritilmagan. Biroq ayrim moliyachilar korxonalarda moliyaviy menejmant bo'yicha taklif va tavsiyalar berishgan.

Ko'pgina mamlakatlarda kooperativ korxonalarda kapitalni o'z-o'zini moliyalashtirish orqali to'planishi umumiy kapital resurslari sifatida tushunilishi mumkin bo'lgan bo'linmas zaxiralardan sezilarli darajada (lekin o'zgaruvchan) foydalanishni ta'minlaydi, chunki ular a'zolar o'rtasidagi raqobat va ulardan foydalanishda istisno emasligi bilan ajralib turadi. kooperativning. Qog'oz ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi qism investitsiyalarning dinamik samarasizligi va ishchilar kooperativlarida a'zolarining vaqtinchalik ufqining qisqarishi tufayli kapitallashuv muammosi bilan bog'liq. Bo'linadigan va bo'linmaydigan har xil turdagi zahiralarni birlashtirish kam investitsiyalarning mumkin bo'lgan yechimi sifatida ko'zda tutilgan. Ikkinchi bo'limda bo'linadigan va bo'linmaydigan zaxira fondlarining yangi qatlamli tizimi ko'rib chiqiladi, bu har bir qatlam barqarorlik va samaradorlik o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshilikka qarshi turishda o'ziga xos

¹⁷⁵Khan, S. U. (2022). Financing constraints and firm-level responses to the COVID-19 pandemic: International evidence. *Research in International Business and Finance*, 59, 101545. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2021.101545>

funksiyalarga ega ekanligini ko'rsatadi: merosning barqarorligi va mustahkamligi bo'linmas qatlamlarga bog'liq¹⁷⁶.

Xitoylik olimlar Zezhong Hao va Xiuwu Zhang, Jiangying Wei Korxonaning moliyaviy moslashuvchanligining barqaror innovatsiyalarga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar o'tgazishib, ayrim yangi ilmiy natijalarni qo'lga kiritishgan. Natijalarga qaraganda, korxonalarining innovatsiyalari va rivojlanishiga ichki boshqaruv va tashqi iqtisodiy siyosatning noaniqligi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot korxonalarining iqtisodiy siyosat noaniqligi sharoitida barqaror innovatsiyalar rivojlanishini ta'minlash usullarini o'rganadi. Empirik tahlil orqali korxonaning moliyaviy moslashuvchanligining innovatsiyalarga ta'siri mexanizmi, bu maqolada siyosat noaniqligi sharoitida moliyaviy moslashuvchanlikning mumkin bo'lgan "moslashuvchan ta'siri" muhokama qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, siyosat noaniqligining oshishi korxonalar innovatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va korxonalar siyosat noaniqligi ta'sirida moslashuvchan ta'sirga ega bo'lish uchun o'zlarining moslashuvchan moliyaviy zaxiralarini faol ravishda sozlashlari mumkin. Natijalar korxonalarini moliyalashtirish cheklovlari va barqaror innovatsiyalar modelida iqtisodiy siyosat noaniqligiga asoslangan bir vaqtning o'zida chegara effektini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksini korxonalar hukumatning iqtisodiy siyosati sabab bo'lgan tebranishlarni tegishli tarzda bartaraf etish uchun qarshi choralar ko'rish zarurligini ko'rsatish uchun "oqilona maydon" va "ogohlantirish maydoni" ga bo'linishi mumkin.

Korxonalarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ayrim iqtisodchi olimlarning yondashuviga ko'ra tashqi va ichki ta'sirlarning o'zni yuqoriligini ko'rsatib bergan.

Korxonalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, korxonalar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish jarayonining umumiy yig'indisi bu tashqi muhit ta'siri sifatida bayon etiladi. Ushbu tashqi muhit ta'sirlariga ta'minotchilar, xaridorlar, kreditorlar, raqobatchilar, kontragentlar va boshqalar kiradi.

¹⁷⁶ Tortia, E. (2021). Capital as common-pool resource: Horizon problem, financial sustainability and reserves in worker cooperatives. *Journal of Co-operative Organization and Management*, 9(2), 100137. <https://doi.org/10.1016/j.jcom.2021.100137>

Bugungi kunga qadar iqtisodiy barqarorlik bo'yicha shakllangan ilmiy maktablar korxonaning tashqi omillarning ta'sirlari orqali korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini, korxonalarining umumiy holatini o'zgarishi bo'yicha umumiy yondashuvlar berilmagan edi.

Shu asosda korxonalarining moliyaviy barqarorligi yoki moliyaviy zaxiralarining shakllanishi, korxonalar faoliyatining samaradorligining o'sishi yoki ayrim omillar ta'sirida pasayishi bilan bog'liqligi e'tirof etilgan. Shunday qilib, korxonaning umumiy faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida, korxonaning moliyaviy barqarorligi hisoblanadi.

Korxonaning barqarorlik holati o'zgaruvchan muhitda hamda korxonaning ichki o'zgarishlari holatida (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va b.) o'zining turg'unlik holatini salab qolish qobiliyatiga bog'liq.

Ilmiy yondashuvlarga asosan korxonaning samaradorlik ko'rsatkichlari uning strategik maqsadlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash tashqi omillarning ta'siri bilan bir qatorda raqobatchi korxonalar orasida ustunlikka erishishi va atrof-muhit bilan bog'liq munosabatlar asosida faoliyat yuritish bo'yicha ichki strategik rejasining mavjudligi bilan izohlanadi.

Shuning uchun korxonalarining barqarorligini saqlab qolish uchun korxonalar faoliyati yuritishi va dinamik muhitda o'zini rivojlanishini va barqarorligini ta'minlaydigan tizim sifatida qaraladi. Bu holatda korxonalar faoliyatidagi qarama-qarshiliklarni vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etish jarayonlari hisoblanadi.

Bir tomondan korxonalarining barqarorlik ko'rsatkichlarini saqlay olish holati tashqi va ichki ta'sirlarga korxonaning aks ta'sir etishi xususiyati hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, strategik maqsadlariga ko'ra korxonalar boshqaruv fuksiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini taqozo etadi¹⁷⁷.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi umumiy barqarorlik konsepsiyasidan yahlit holatla farq qiluvchi boshqaruv harakatlari doirasi ko'lamining cheklanganligi

¹⁷⁷ Фомин, Г.П. Математические методы и модели в коммерческой деятельности [Текст]: учебник / Г.П. Фомин. – Москва: Финансы и статистика, 2011. – 616 с.

bilan bilan farqlanadi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy maqsadi korxonadagi ichki imkoniyatlarini kuchaytirish, ish o‘rinlarini yaratish, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni izlab topish va ularni safarbar etish bilan bog‘liq.

Korxonalar va davlat idoralari doimo o‘zgarishlarga duch kelishadi va bu hozir normal holat. Muammolarni tushunish va hal qilish uchun biz turli xil fikrlash usullaridan foydalanishimiz kerak. Asosan, moliyaviy barqarorlik kompaniyaning moliyaviy ahvoli yaxshi ekanligiga ishonch hosil qilish uchun muayyan narsalarga ega bo‘lishni anglatadi. Biz buni aniqlab berishimiz shart emas, faqat moliyaviy barqarorlik uchun nima muhimligini bilishimiz kerak.

2021 yilda Xitoylik tadqiqotchilar Chien-Chiang Lee hamda Chih-Wei Wanglar firmalarning naqd pul zahirasi, moliyaviy cheklov va geosiyosiy risklarga bag‘ishlangan ilmiy ishni chop etishdi. Ushbu tadqiqotda geosiyosiy xavf-xatarlar Xitoy firmalarining naqd pul mablag‘lariga ta’sir qiladimi yoki yo‘qligi o‘rganilib, firmalar geosiyosiy xavfga duch kelganda ehtiyot chorasi sifatida ko‘proq naqd pul yig‘ishga moyil ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, moliyaviy jihatdan cheklangan firmalar naqd pul zaxiralarini geosiyosiy xavfga qarshi bufer sifatida saqlashi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq sohalardagi firmalar ko‘proq naqd pul tejashga va o‘zlarini xavf-xatardan himoya qilishga moyilligi keltirillgan. Aynan Xitoyning ishlab chiqarish sektori Xitoy-AQSh savdo urushi tufayli sekinlashdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, siyosatchilar va investorlar geosiyosiy tavakkalchilikning korxonalarining naqd pul zaxiralariga ta’siriga ko‘proq e’tibor berishlari kerak ekan¹⁷⁸.

Bu esa o‘z navbatida moliyaviy zahirani yaratish zaruratini tug‘diradi. Naqd pul zahiralari qisqa muddatli va favqulodda moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish uchun kompaniya yoki jismoniy shaxsning qo‘lida ushlab turadigan pulni anglatadi.

¹⁷⁸ Chien-Chiang Lee, Chih-Wei Wang. Firms' cash reserve, financial constraint, and geopolitical risk. Pacific-Basin Finance Journal Volume 65, February 2021, 101480

Mijozlarga o‘z pullarini tezda olish imkonini beruvchi qisqa muddatli investitsiyalar, ko‘pincha pastroq daromad darajasi evaziga, shuningdek, naqd pul zaxiralari deb atash mumkin¹⁷⁹.

Firmalar qisqa muddatda barcha kutilgan va kutilmagan xarajatlarni qoplash, shuningdek potentsial investitsiyalarni moliyalashtirish uchun naqd pul zaxiralari ega. Naqd pul boyligining eng likvid shaklidir, ammo qisqa muddatli aktivlar, masalan, uch oylik G‘aznachilik veksellari (DQV) ham yuqori likvidligi va qisqa muddatlari tufayli naqd pul zahiralari hisoblanadi.

Ayrim kompaniyalar, jumladan, Alphabet Inc. (GOOGLE), Apple Inc. (AAPL) va Microsoft Corp (MSFT) hozirda milliardlab naqd pul zaxiralari ega. Ehtiyojlar har xil, ammo, umuman olganda, ekspertlar korxonalarining naqd pul yoki yuqori likvidli aktivlarga bog‘langan uch oydan olti oygacha operatsion xarajatlari ega bo‘lishini tavsiya qiladi.

Ayrim adabiyotlarda moliyavi zahira “moliyaviy yostiqcha” termini bilan ifodalanadi. Oddiy qilib aytganda, moliyaviy yostiqchasiga ega bo‘lish zarurati, jamiyat hayotining tsiklikligi va kelajakning noaniqligidan kelib chiqadi, har qanday vaziyatda moliyaviy barqaror bo‘lishga va turli inqirozlarni (Covid-19 pandemiyasi kabi) boshdan kechirish uchun nisbatan qulay bo‘lishga imkon beradi¹⁸⁰.

Moliyaviy yostiqcha bu favqulodda zaxira bo‘lib, biz undan korxonalar faqat favqulodda holatlarda foydalanadi, zudlik bilan pul kerak bo‘lganda va hech qanday kredit va kreditlar korxonani qutqarmaydi. Korxonalar moliyasini 4 ta darajaga taqsimlashi maqsadga muvofiqdir:

¹⁷⁹<https://www.investopedia.com/terms/c/cash-reserves.asp#:~:text=Cash%20reserves%20refer%20to%20the,also%20be%20called%20cash%20reserves.>

¹⁸⁰ <https://fin-plan.org/blog/investitsii/finansovaya-podushka-bezopasnosti>



4.1.1-rasm. Sanoat korxonalarida moliyaviy mablag'lar taqsimoti

1. Aylanma mablag'lar.
2. Moliyaviy himoya uchun mablag'lar.
3. Konservativ yoki "himoya" vositalariga, masalan obligatsiyalarga sarmoya kiritish uchun mablag'lar.
4. Qimmatli qog'ozlar yoki kriptovalyutalar kabi xavfli vositalarga sarmoya kiritish uchun mablag'lar.

3 va 4 darajalarda tavakkal va konservativ investitsiya vositalarining optimal balansini topib, yaxshi diversifikatsiyalangan portfelni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Natijada aylanma mablag'lar + moliyaviy xavfsizlik yostig'i + investitsiyalar = moliyaviy xavfsizlik va barqarorlik¹⁸¹.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlarga ko'ra, korxonalarda moliyaviy zaxiralar samaradorlikning pasayishi taktik va strategik davrda uning iqtisodiy, xususan, moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi.

¹⁸¹ <https://fin-plan.org/blog/investitsii/finansovaya-podushka-bezopasnosti>

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Covid-19 pandemiyasi davridan so‘ngi vaqtlarda sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash uchun tashqi, ya‘ni makromuhitga tez moslashuvchanlik tizimini yaratish hamda korxonalarining moliyaviy zahiralari tashkil etish korxonaning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

4.2 Sanoat korxonalari iqtisodiy barqaror faoliyatini ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Hozirgi Covid-19 epidemiyasidagi kompaniyalarning iqtisodiy faolligi ko‘plab omillar, xususan, makroiqtisodiy beqarorlik, bozordagi raqobatning kuchayishi, mamlakat va dunyodagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Makro va mikroiqtisodiy tizimning global va mintaqaviy inqirozlarini kuchaytiruvchi muhim omillar qatorida Covid-19 pandemiyasining salbiy oqibatlari ko‘plab kompaniyalarga ta‘sir ko‘rsatdi.

Har bir milliy korxonaning iqtisodiy barqarorligi butun mamlakat xo‘jalik tizimini rivojlantirish usullarini saqlab qolish, uni takomillashtirishni ta‘minlashning asosiy omili bo‘lib, shu sababli bu muammoni hal etish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham qisqa va uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlash har bir xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning muhim vazifasi hisoblanadi. Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, salbiy tashqi va ichki omillar ta‘sirini kamaytirish, korxonaning umumiy barqarorligini ta‘minlashda iqtisodiy barqarorlikning rolini aniqlash iqtisodiy barqarorlikni boshqarishda takomillashtirilgan texnikalardan foydalanishni talab qiladigan muammolardir. biznes kompaniyalar

1970-yillardagi energiya inqirozi davrida paydo bo‘lgan iqtisodiy barqarorlik kontsepsiyasining asosiy g‘oyasi resurslarni tejash, ya‘ni asosiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanishga asoslangan jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdir. Iqtisodiy barqarorlik kontsepsiyasini ishlab chiqishning navbatdagi bosqichi milliy iqtisodiy xavfsizlik nazariyasini shakllantirish bo‘lib,

asosiy postulat uning tarkibiy elementlarining iqtisodiy barqarorligini hisobga olgan holda mamlakatning iqtisodiy barqarorligini kafolatlashdan iborat.

MDU professorlari M.Bakanov¹⁸² va A.D. Sheremet¹⁸³ning soʻzlariga koʻra, moliyaviy barqarorlik kompaniyaning moliyaviy resurslaridan foydalanish va investitsiya qilish qobiliyatini tavsiflaydi. Mualliflarning fikricha, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy holati uning toʻlov qobiliyati darajasida, oʻz vaqtida tuzilgan shartnomalar boʻyicha yetkazib beruvchilarning shoshilinch toʻlovlarga boʻlgan ehtiyojini qondirish, qarzlarni oʻz vaqtida toʻlashda namoyon boʻladi. Xodimlar va ishchilarning ish haqini toʻlashni kechiktirish, byudjetga toʻlash¹⁸⁴.

Moliyaviy barqarorlik - bu tovar va pul oqimlari, xarajatlar va daromadlar balansini, ularni shakllantirish usullari va manbalarini koʻrsatadigan korxonalar moliyaviy holatining ichki qismidir. Toʻlov qobiliyati ham tashqi omildir... Shu jihatda “biznesning moliyaviy xavfsizligini taʼminlash bevosita faoliyatning muhim vazifasidir”¹⁸⁵. Raqobatning kuchliligi kompaniyaning tashqi muhitdagi bozor mavqeini belgilaydi. va uzoq muddatli tijorat muvaffaqiyati ehtimoli¹⁸⁶.

Yuqori dinamik tashqi moliyaviy vaziyat kompaniya barqarorligi va muvozanatiga qaratilgan moliyaviy barqarorlikni boshqarish jarayonini cheklaydi va murakkablashtiradi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini taʼminlash uchun samarali boshqaruv tizimini yoʻlga qoʻyish, ilmiy jihatdan tasdiqlangan yondashuvlar, tamoyillar va usullarga asoslangan samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini taʼminlashning birinchi sharti uzoq muddatli istiqbolda kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyatining kalitiga aylanadigan toʻgʻri tanlangan strategiya,

¹⁸² Bakanov M.I., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика, 2018. 521 с

¹⁸³ Шеремет А.Д. Методика финансового анализа. М.: ИНФРМА–М., 2017. 367 с

¹⁸⁴ Карпченко Ю.В. Методы формирования финансовой политики предприятия // Экономика и социум. 2018. № 11 (54). С. 485–490.

¹⁸⁵ Шахгираев И.У. Управление финансовой безопасностью предприятия // IV Всероссийская научно-практическая конференция «Влияние новой геополитической реальности на государственное управление и развитие Российской Федерации». Грозный, 2021. С.236–242.

¹⁸⁶ Шахгираев И.У. Управление экономической устойчивостью предприятия // IV Всероссийская научно-практическая конференция «Влияние новой геополитической реальности на государственное управление и развитие Российской Федерации». Грозный, 2021. С. 231–236

shakllantirish va amalga oshirishdir. Shu sababli, iqtisodiy barqarorlikni strategik boshqarish boshqaruv tizimida muhim o‘rin tutadi, kompaniyaning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda asosiy va muvofiqlashtiruvchi rolni o‘ynaydi va sa’y-harakatlarni asosiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. o‘z faoliyati davomida paydo bo‘ladi, belgilangan maqsad va aniq vazifalarga erishish uchun ishga rahbarlik qiladi, kompaniya faoliyati va uning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy barqarorlikni boshqarishning strategik yo‘nalishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, xususan:

1. Tashkilotning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarish tashkilotning umumiy boshqaruv tizimining quyi qismidir.

2. Iqtisodiy barqarorlikni strategik boshqarish tashqi raqobat muhitining ta’sirini va tashkilotning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oladi.

3. Tashkilotning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarish iqtisodiy, moliyaviy, tijorat va boshqa risklarning doimiy ta’siri ostida amalga oshiriladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisobga olinishi kerak. Tashkilotning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarish maqsadi tashkilotning umumiy strategiyasi, vazifasi va strategik jihatlariga asoslanishi kerak.


Korxonaning moliyaviy barqarorligini strategik boshqarishning maqsadlari tashqi va ichki muhitning buzuvchi omillarining korxonaning moliyaviy barqarorligi darajasiga salbiy ta’sirini bashorat qilish, oldini olish, kamaytirish va zararsizlantirishdir. Juda past darajada. Kelajakda uni oshiring. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini strategik boshqarish davlat va xususiy tamoyillarga asoslanishi kerak. Birinchisi quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi: Iqtisodiy barqarorlikni tizimli boshqarish. boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining murakkabligi; Iqtisodiy barqarorlikni boshqarishda moslashuvchanlik. Boshqaruv usullarini, ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni baholashni ilmiy bilish; Muqobil variantlar asosida eng yaxshi strategiyani tanlash; turli iqtisodiy darajalardagi rejalarning uzluksizligi; barcha turdagi resurslardan oqilona foydalanish; maslahatning asosiligi va moliyaviy resurslar miqdoridan foydalanish; samaradorlik, ya’ni boshqaruv natijalari asosida ijobiy natijalarga erishish; ikki

tomonlama kelishuv yoki faoliyatni muvofiqlashtirish; Innovatsiya - loyihaning iqtisodiy barqarorligini boshqarishning yangi usullari, vositalari va mexanizmlarini joriy etish.

Chechen iqtisodchilari A.A.Saidov va I.U.Shahgirayevlar o'zlarining ilmiy ishlarida iqtisodiy barqarorlikni strategik boshqarishning o'ziga xos tamoyillaridan quyidagi tamoyillarni ilgari surdilar: kompaniyaning umumiy boshqaruv tizimiga integratsiya. Maqsad kompaniyaning strategik rivojlanish maqsadlariga e'tiborni qaratishni o'z ichiga oladi. Kompaniya tomonidan erishilgan iqtisodiy barqarorlik darajasini pasaytirishning oldini olish va oldini olish uchun oldini olish yoki boshqarish yo'nalishi. iqtisodiy barqarorlikni boshqarishning yuqori dinamikasi; Iqtisodiy barqarorlikni boshqarishda iqtisodiy, moliyaviy, tijorat va boshqa xatarlarni hisobga olish. Mualliflarning fikricha, strategik menejmentning asosiy funksiyalari tashkiliy, tashkiliy, tahliliy, rejalashtirish, monitoring va nazoratdir.

Biroq, bizningcha, o'zgaruvcha mug'itda tezkorlik va ogohlantirish kabi funksiyalarning o'rni beqiyos. Shu sababli chechenistonlik iqtisodchi olimlar Saidov A.A. va Shaxgiraev I.U. taklif etgan korxonaning strategik boshqarish funksiyalarini biz "Tezkorlik (mobillik)" va "Ogohlantiruvchi" funksiyalar bilan to'ldirdik. (4.2.1-rasm.)

Kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarish ma'muriy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik, ijtimoiy, psixologik, institutsional, infratuzilmaviy va iqtisodiy risklarni boshqarish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Korxonaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarishda u boshqaruv qarorlarini (iqtisodiy, tashkiliy-texnologik, tahliliy va boshqalar) amalga oshirish mazmuniga ko'ra alohida guruhlariga guruhlash mumkin bo'lgan vositalar bilan jihozlangan; vaqt xususiyatlariga ko'ra (profilaktika (ehtiyotkorlik) va reaktiv, hodisadan keyin qo'llaniladigan, natijalari boshqaruv choralari yo'naltirilgan); ta'sir yo'nalishiga qarab (to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita).



4.2.1-rasm. Sanoat korxonasini strategik boshqarish funksiyalari¹⁸⁷

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, eng avvalo, uni amalga oshirishning murakkabligi va to'liqligiga, boshqaruv tizimining barcha elementlari o'rtasidagi izchillik va o'zaro bog'liqlikni tashkil etishga, qo'llanilayotgan usullarning muvofiqligiga bog'liq. Iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash uchun 'lic. Barqarorlik va salbiy ta'sirlarning diagnostikasi, shuning uchun boshqaruv tizimi ta'minlashni baholash,

¹⁸⁷ Muallif ishlanmasi

tahlil qilish, prognozlash va monitoring qilishga qaratilgan tegishli mexanizmlarda rasmiylashtirilishi kerak.


"Mexanizm" tushunchasi turli akademik sohalarda keng qo'llaniladi. Iqtisodiyotda "mexanizm" so'zi o'tgan asrning 60-yillarida aloqa va ijtimoiy o'zaro ta'sir va ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganish jarayonida qo'llanila boshlandi. Mashinalarda ishlatiladigan oddiy jarayon elementlari, masalan, zarbalar, iqtisodiy jarayonlar uchun mashinalarga misol sifatida ishlatilishi mumkin. Muhandislik va iqtisodda "mashina" so'zini qo'llash o'rtasidagi muhim farq shundaki, birinchisi moddiy yondashuvdan foydalanadi, birinchisi esa usul yoki tizimdan foydalanadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy tadqiqotlarda "boshqaruv mexanizmi", "rivojlanish mexanizmi", "iqtisodiy mexanizm", "iqtisodiy mexanizm", "tashkiliy mexanizm", "bozor mexanizmi", "ijtimoiy mexanizm", "investitsiya mexanizmi" kabi tushunchalar keng tarqalgan. . Ilmiy manbalarda keltirilgan boshqaruv usullarining har xil turlari uchta asosiy guruhga bo'linadi: ob'ekt, maqsad va usullar (moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv, iqtisodiy boshqaruv, iqtisodiy, moslashuvchan, dinamik, ijodiy va boshqalar); Ob'ektlarga (strategiya, odamlar, kapital, raqobat, xarajat, samaradorlik, mahsuldorlik va boshqalar) qaratilgan boshqaruv amaliyoti boshqalarga bog'liq.

Korxonalar va korxonalarining xo'jalik faoliyatida samaradorlikni oshirish va ta'sir ko'rsatishga qaratilgan iqtisodiy tizimlar, vositalar va omillar bo'lgan xo'jalik-tashkiliy tizimlarni boshqarish jarayonida foydalanishga zamonaviy olimlarning katta e'tibori qaratilmoqda. Shuning uchun kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun tashkiliy va moliyaviy tizimni yaratish yaxshidir.

Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning tarkibiy va moliyaviy tizimini yaratishning asosiy maqsadi hozirgi va kelajakdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur tashkiliy va moliyaviy shart-sharoitlarni ta'minlashdir.

Jahonda 2020 yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasining iqtisodiy inqiroz oqibatlarini o'rgangan holda chechenistonlik iqtisodchi olimlar Saidov A.A. va Shaxgiraev I.U. tomonidan ishlab chiqilgan korxonaning iqtisodiy barqarorligini

ta'minlash mexanizmini biz takomillashtirilgan o'rindik. Saidov A.A. va Shaxgiraev I.U.lar taklif etgan mexanizmning asosiy kamchiligi bu strategiyaga "konstanta" deb qarashganida. Strategiya moslashuvchan va o'zgarishlarga (tuzatishlarga) moyil bo'lishi lozim (4.2.2-rasm).



4.2.2-rasm. Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmi¹⁸⁸

¹⁸⁸ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot davomida bir qator oilmlar tomonidan taklif etilgan korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmi "strategiya nuqtalarini tuzatish yoki yangi strategiyani ishlab chiqish" hamda "moliyaviy zahirani tashkil etish va optimallashtirish" bo'limi bilan boyitildi.

Ushbu mexanizmدا korxonaning ish muhiti to'g'risida olingan ma'lumotlarni diagnostika qilish va tizimlashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash strategiyasini amalga oshirish uchun korxonaning ichki salohiyatini har tomonlama baholash bilan bir qatorda tez o'zgaruvchan muhitda "moliyaviy zahirani" tayyorlash bo'limini kiritdik. (4.2.2-rasm.)

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmining ob'ekti korxonaning tashqi va ichki muhitining noqulay sharoitlarining namoyon bo'lish jarayonidir.

Kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmining sub'ektlari ish beruvchi, uning mulkdorlari va kompaniyaga nisbatan manfaatdor tomonlar bo'lgan, uning faoliyati natijalari va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor bo'lgan boshqa jismoniy va yuridik shaxslardir. Moliyaviy barqarorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmining predmeti hisoblanadi.

"Moliyaviy yostiqcha" mablag'larini saqlashning muhim mezonlari – bu, jamg'armalarni ilojisiz vaziyatlarda mablag'larni tezda olish va kerakli miqdorda foydalanish imkonini beradigan usulda saqlash zarur ¹⁸⁹.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmida strategik boshqaruv muhim rol o'ynaydi. Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning strategik yo'nalishlarini shakllantirish cheklangan resurslardan foydalanish variantlarini tanlash asosida amalga oshirilishi kerak, bu uzoq muddatda korxonaning yo'qotishlarini kamaytirishga yordam beradi, uning imkoniyatlarini oshiradi. Korxonaning strategik rivojlanishini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy elementlarini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, taklif etilayotgan mexanizm tashqi va ichki muhit omillarining ta'sir darajasiga ta'sirini

¹⁸⁹ <https://finlit.uz/oz/articles/budget/financial-reserve>

hisobga oladigan ochiq, dinamik tizimdir. korxonaning iqtisodiy barqarorligi strategik boshqaruvga asoslanadi va barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan. Strategik menejment uzoq muddatli istiqbolda korxonaning yuqori iqtisodiy barqarorligiga erishishning asosiy shartidir.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarishning yuqori samaradorligiga uni ta'minlashning adekvat, ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini qo'llash orqali erishish mumkin. Ushbu mexanizmni shakllantirish uning asosiy elementlarini (maqsadlari, vazifalari, usullari, vositalari, tamoyillari, funktsiyalari va boshqalar) aniqlashdan boshlanishi kerak.

Tashkilotni boshqarish, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi umumiy va xususiy tamoyillarga asoslanishi va muayyan usullardan foydalanishi kerak. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun tashkiliy va moliyaviy mexanizmlar samarali qo'llab-quvvatlash tizimiga muhtoj, ularning asosiy elementlari:

- huquqiy ta'minlash (qonunlar, hukumat qarorlari, qoidalar, tadbirkorlik faoliyatini boshqaruvchi davlat organlari va tashkilotlarining tavsiyalari);

- moliyaviy yordam (korxonaning moliyaviy resurslarini ko'paytirishni ta'minlash, kreditlar (bank kreditlari, moliyaviy lizing, kompaniyalar kreditlari), investitsiya fondlari, davlat mablag'lari uchun moliyalashtirish manbalarini jalb qilish);

- tashkiliy qo'llab-quvvatlash (kompaniyaning moliyaviy barqarorligini boshqarish uchun institutsional asosni yaratish, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar va vositalar); - ma'lumotlarni taqdim etish (buxgalteriya hisobi, boshqaruv va kompaniya statistikasi, kompaniya hisobotlari, ichki huquqiy hujjatlar, ma'lumotnomalar, so'rov ma'lumotlari, buyruqlar, nizomlar va kompaniyaning boshqa rasmiy hujjatlari);

- kadrlar bilan ta'minlash (ishlab olish, o'qitish, saqlash, takomillashtirish, xodimlarni rivojlantirish, xodimlarni rag'batlantirish va rag'batlantirish).

Pulni tejashning muhim usuli - pulni tezda olish va favqulodda vaziyatlarda kerakli miqdorni ishlatish uchun pulni saqlashdir.¹⁹⁰

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tashkiliy mexanizmda strategik boshqaruv muhim o'rin tutadi. Kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha strategik yo'nalishlarni shakllantirish cheklangan resurslardan foydalangan holda variantlarni tanlash asosida amalga oshirilishi kerak, bu uzoq muddatli istiqbolda kompaniyaning yo'qotishlarini kamaytirishga va kompaniya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Kompaniyaning strategik rivojlanishini ta'minlashning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmining tarkibiy elementlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, taklif etilayotgan mexanizm ichki va tashqi muhit omillarining ta'sir darajasini hisobga oladigan ochiq va dinamik tizimdir. . . Kompaniyaning iqtisodiy barqarorligi strategik boshqaruvga asoslanadi va barqaror rivojlanishning asosiy maqsadiga erishishga qaratilgan. Strategik boshqaruv uzoq muddatli istiqbolda kompaniyaning yuqori iqtisodiy barqarorligiga erishishning asosiy shartidir.


Kompaniyaning yaxshi ishlashi uchun mantiqiy va yaxshi g'oyalardan foydalanadigan rejaga ega bo'lish kerak. Korxonani nima qilishni xohlayotganini, buni qanday qilishimizni va nima qilishi kerakligi aniqlashdan boshlaydi. Bu reja korxonaga ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishimizga va muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Strategiyani yaratish jarayonining maqsad va vazifalarini hamda ish rejasini belgilash uchun dastlabki maslahatlashuv.

Mintaqaviy iqtisodiyotni strategik baholash va imkoniyatlar tahlili, uning hozirgi yo'nalishini, kuchli va zaif tomonlarini, barqaror iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari va muammolarini aniqlash.

Barqaror Iqtisodiy Rivojlanish Strategiyasini ishlab chiqish, u allaqachon mavjud bo'lgan sur'atga asoslanadi va bir qator tashabbuslar to'plamini birlashtiradi va kuchli biznes modeli bilan aniq, izchil, oson tushunarli, dinamik strategiyani yaratadi.

¹⁹⁰ <https://finlit.uz/oz/articles/budget/financial-reserve>



4.2.2-rasm. Korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash strategiyasi¹⁹¹

¹⁹¹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Har bir tashabbus uchun kim mas'ul bo'lishini, "time-management" va bosqichlarini, xarajatlarni, potentsial daromad manbalarini va o'rta bosqichdagi tuzatishlar jarayonlarini o'z ichiga olgan Amalga oshirish rejasini shakllantirish, shu jumladan taraqqiyot monitoringi tizimi. Strategiya va amalga oshirish rejasini boshlash va keyinchalik to'liq amalga oshirish lozim bo'ladi¹⁹².

Korxonaning iqtisodiy barqarorligi strategiyasini tanlash korxonaning tashqi va ichki muhitining joriy holatini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash ma'lumotlari asosida korxonaning yuqori rahbariyati darajasida amalga oshiriladi. Asosiy shartlar o'rganilayotgan tarmoqning kuchli tomonlari va tahlil qilinayotgan korxonaning kuchli tomonlari bo'lib, boshqaruv amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha iqtisodiy barqaror ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish va tanlashda asosiy rol o'ynaydi. Korxonaning yuqori rahbariyati uchun oshkor qilingan afzalliklar va imkoniyatlardan foydalanishdan optimal samaraga erishish uchun harakat qilish juda muhimdir. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va o'sish salohiyatiga ega yangi tarmoqlarda ishlab chiqarishni yaratish yo'llarini izlash zarur.

Shuningdek, tashqi muhitga bog'liqlik darajasi zamonaviy sanoat korxonalarining iqtisodiy barqaror ishlab chiqarish strategiyasini tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, yog'ochni qayta ishlash sanoati rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun bunday holatlar tashkilotning kontragentlarga (etkazib beruvchilar yoki xaridorlarga) qaramligi o'z salohiyatidan yaxshiroq foydalanish uchun strategiyani mustaqil tanlashga imkon bermaydigan holatlarga xosdir. Bunday hollarda shuni ta'kidlash kerakki, firma strategiyasini tanlashda uning atrof-muhit sharoitlari ta'siriga bo'ysunishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tashqi qaramlikning kuchayishi yog'ochni qayta ishlash korxonasining xatti-harakatlarini qonun bilan tartibga solish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, monopoliyaga qarshi qonunlar, ijtimoiy cheklovlar, atrof-muhit ta'siri, siyosiy sharoitlar va boshqalar¹⁹³.

¹⁹² <https://sustainable-systems.net/economic-development/sed-strategy/>

¹⁹³ <https://cyberleninka.ru/article/n/opredelenie-strategii-ekonomicheskoy-ustoychivosti-predpriyatiya-s-ispolzovaniem-metodov-nechetkoy-matematiki>

Korxonaning strategiyasi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini uzluksiz rivojlantirish va boshqarish uchun zarurdir. Moliyaviy strategiya korxonaning asosiy funktsional strategiyasi bo'lib, iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun zarurdir. Moliyaviy strategiya uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun harakat va chora-tadbirlarning ko'p omilli yo'naltirilgan modelidir.

Moliyaviy strategiya korxonaning bozordagi xatti-harakatlarini belgilaydi va uning bozordagi mavqeini shakllantiradi. Moliyaviy strategiya to'lovlarni amalga oshirmaslik xavfi, inflyatsiya va boshqa fors-major holatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Moliyaviy strategiyaning amalga oshirilishini nazorat qilish daromadlarni tekshirishni va korxonaning rentabelligini oshirishni ta'minlaydi. Korxonaning moliyaviy strategiyasi - bu faoliyatning missiyasi va strategik maqsadlariga muvofiq korxonani samarali rivojlantirishga qaratilgan harakatlar rejasi bo'lib, u korxonaning moliyaviy faoliyati va moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishning barcha yo'nalishlarini qamrab oladi.

Shuningdek, moliyaviy strategiya moliyaviy faoliyatning tashqi sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olishi va ularga mos ravishda javob berishi kerak. Moliyaviy strategiya tashqi muhitdagi o'zgarishlarni ta'minlashi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishni ta'minlashi kerak. Korxonaning moliyaviy strategiyasi uzoq muddatda korxonaning raqobatdosh ustunligini ta'minlashi, pirovardida esa korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashi kerak.

4.3. Kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli

Hozirgi kundagi bozor iqtisodiyoti muhiti murakkab va beqarorligi bilan xarakterlanadi. Bu har qanday korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ko'p sonli moliyaviy, bozor kon'yunkturasi, inflyatsiya, ijtimoiy va boshqa ta'sirlar harakatida namoyon bo'ladi. Bunday ta'sirlar ishlab chiqarish hajmlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan talabning tushib ketishi hisobiga korxonaning barqaror faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, pirovardida korxonaning foydasi va to'lov qobiliyatining pasayishi va bankrotlik holatiga olib keldi.

Shu nuqtai nazardan, har qanday korxonalar, xususan kimyo sanoati korxonalarini oldida yuqorida keltirilgan omillar va noaniqlik muhitining salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning samarali yo'llari va usullarini topish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Bunday sharoitda bizning fikrimizcha, kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimi samarali model hisoblanadi va uni keng joriy etish kimyo sanoati korxonalarini faoliyat yuritish muhitidagi noaniqliklarning mavjudligi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotining jadal integratsiyalashuvi va globallasuvi sharoitida har qanday korxonaning, ayniqasa kimyo sanoati korxonalarining ustuvor maqsadi foyda olish, yoki kimyo mahsulotlari bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, raqobatchilardan ustun kelish va boshqalar. Bu holda kontrolling korxonalarining harakatlarini ushbu maqsadlarga qaratadi va unga korxonalar foydasini boshqarish tizimi sifatida qarash mumkin¹⁹⁴.

Shu o'rinda S.V.Slabinskiy o'z ishida "aksariyat menejerlar (61,6%) taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda noaniqlik omillarini hisobga olmaydi" deb ta'kidlaydi, bu esa korxonalar faoliyatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bunda "boshqaruvchilarning 85% bu holatni axborotning yo'qligi yoki to'liq emasligi, beqaror muhit sharoitida korxonalar boshqarish bo'yicha amaliy usullarning murakkabligi bilan izohlaydi"¹⁹⁵.

Shu o'ridan o'zbek iqtisodchi olimlari I.O.Ulashev, Sh.A.Atamurodovlar fikricha, strategik rejalashtirish korxonaning o'z maqsadlariga erishish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqilishidagi harakatlar va xulosalar to'plash jarayoni hisoblanadi¹⁹⁶.

Shunday qilib, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida noaniqlik omili darajasi yuqorigicha qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ham taktik, ham strategik

¹⁹⁴ Контроллинг как инструмент управления предприятием / Под ред. Н. Г. Данилочкиной. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2001. – 279 с.

¹⁹⁵ Слабинский, С.В. Механизм риск-контроллинга в системе управления сбытовой деятельностью промышленных предприятий: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Слабинский Сергей Владимирович. – Екатеринбург, 2011. – 170 с.

¹⁹⁶ Ulashev I.O., Atamurodovlar Sh.A. Korxonalar iqtisodiyoti va mehejment: darslik // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Tafakur Bo'stoni, 2013 – 232 b.

jihtadan mumkin bo'lgan vaziyatlarni modellashtirish va prognoz qilish hisobiga olingan axborotlar asosida ogohlantiruvchi ta'siri tamoyillariga bo'yicha tuzilgan kontrolling tizimini joriy etish orqali kimyo sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishni modellashtirish metodologiyasini iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazardan ishlab chiqish zarur ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini kontrolling qilish tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi maxsus, alohida tarkibiy tuzilmasi bu kontrolling xizmatini tashkil etish hisoblanadi. Mazkur bo'linmaning maqsadi korxonaning iqtisodiy barqarorligini muvozanatdan chiqarishi mumkin bo'lgan yoki unga erisha olmaslik ehtimolini kamaytirishga imkon beradigan choralarni aniqlashdan iborat.

Yirik sanoat korxonalarida kontrolling qilish tizimini joriy etish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pincha mazkur tarkibiy birlik quyidagi xodimlardan iborat bo'ladi: kontrolling xizmati boshlig'i, ishlab chiqarish jarayoni kuratori, moliyaviy oqimlari (boshqaruv hisobi bo'yicha mutaxassis), axborot oqimlari kuratori.

Kontrolling departamenti yoki xizmati faoliyati tayanilishi lozim bo'lgan axborot manbalari haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagi asosiy turlarni alohida ajratib olish mumkin:


- menejment va moliyaviy hisobi ma'lumotlari;
- ma'muriy-boshqaruv va shtat jadvali;
- texnologik jarayonlar (texnika-ishlab chiqarish xatarlarini baholash);
- shartnoma va bitimlar (tijorat va yuridik xatarlarni baholash);
- korxonaning moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish budjetlari: ta'minot rejasi va sotish rejasi, ishlab chiqarish rejalari va x.k.;
- me'yoriy-huquqiy baza;
- statistik ma'lumotlar bazasi;
- korporativ boshqaruv hamda kontrollingsamaradorligini baholashga qaratilgan metodologik ta'minot;
- maqsadga erishish uchun belgilangan ko'rsatkichlarning me'yoriy qiymatlari to'g'risida ma'lumot.

Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli tamoyillarini quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

- kontrolling tizimi maqsadi, ob'ekti va predmetini belgilab olish;
- korxonada iqtisodiy barqarorligini kontrolling asosida ta'minlash yo'nalishlarini aniqlash;
- maqsadga erishish bo'yicha yondoshuvlarni shakllantirish;
- korporativ boshqaruv chora-tadbirlarini monitoring qilish parametrlari va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- kontrolling tizimi asosida korxonada korporativ boshqaruv metodologiyasini ishlab chiqish;
- qabul qilingan boshqaruv qarorlar jozibadorligini oshirish bo'yicha javobgarlik mexanizmini shakllantirish;
- korxonada kontrolling samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish;
- monitoring va nazorat tizimini shakllantirish;

Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli umumiy ko'rinishda bir qator tamoyillarga tayanishi va ketma-ket bosqichlardan iborat (4.3.1-rasm).

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida kontrolling tizimi maqsadi korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimi mexanizmlarining keng joriy etish hisoblanadi, ob'ekti sifatida biz mazkur tizim joriy qilinishi rejalashtirilayotgan kimyo sanoati korxonasini, uning predmeti esa kimyo sanoati korxonasining iqtisodiy barqarorlik darajasini tushunamiz.



4.3.1-rasm. Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta’minlash modelini shakllantirish bosqichlari¹⁹⁷

Kimyo sanoati korxonasi iqtisodiy barqarorligini kontrolling asosida ta’minlash yo‘nalishlarini aniqlash bosqichida – kimyo sanoati korxonasining qaysi bo‘g‘inlarida kontrolling tizimini joriy qilish asosida boshqarilishi bo‘yicha qaror qabul qilish lozim. Bunda kontrolling tizimiga kimyo sanoati korxonasining barcha bo‘g‘inlari kiritilsa samarali hisoblanadi. Biroq, bu ko‘p mablag‘ talab etadigan va murakkab jarayondir. Shu nuqtai nazardan, korxonaning qaroriga ko‘ra kontrollingni joriy etish asosidagi boshqaruv jarayoniga uning alohida bo‘linmalari kiritilishi mumkin. Ushbu holatda boshqaruv predmeti sifatida alohida bo‘linmaning iqtisodiy barqarorligini bo‘lishi mumkin.

Boshqariladigan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishda kimyo sanoati korxonasining iqtisodiy barqarorlik darajasini baholash va prognoz qilish uchun pirovard ko‘rsatkich sifatida aynan qaysi ko‘rsatkichdan foydalanilishini belgilab olish zarur bo‘ladi.

So‘ngra kimyo sanoati korxonasi iqtisodiy barqarorligini ta’minlash

¹⁹⁷Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

maqsadga erishish bo'yicha turli yondoshuvlarni ko'zda tutib, u me'yoriy ko'rsatkichlari yoki statistik axborotlarga asoslanishi mumkin.

Kimyo sanoati korxonasi iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning korporativ boshqaruv chora-tadbirlarini monitoring qilish parametrlari va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hisoblanadi va ularni makon-vaqt ketma-ketligida ikki guruhga bo'lish zarur.

Birinchi guruh – korxonaning iqtisodiy barqarorlik darajasining doimiy, joriy monitoringini amalga oshirishni nazarda tutuvchi taktik boshqaruv maqsadlari uchun qisqa muddatli davrida qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh – ogohlantiruvchi boshqaruv tamoyilida iqtisodiy barqarorlik darajasini oshirish maqsadida korxonada faoliyatini prognoz qilish imkonini beruvchi strategik boshqaruv maqsadlarida o'rta va qisqa muddatli davr uchun qo'llaniladi.

Keyingi bosqich – kontrolling tizimi asosida korxonada korporativ boshqaruv metodologiyasini ishlab chiqishni nazarda tutib, ular birinchidan, maqsadni ko'zlash bosqichida tanlab olingan tizim parametrlari hisobga olinishi, ikkinchidan, muhit va noaniqlikni hisobga olgan holda maqsadli ko'rsatkichlarni joriy baholash va prognoz qilish, uchinchidan, vaqt-makon ketma-ketligida tahlilni amalga oshirish uchun imkon yaratishi lozim.

Kimyo sanoati korxonasi iqtisodiy barqarorlik darajasini baholash va prognoz qilish uslubiyoti shakllangandan keyin korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmini va qabul qilingan qarorlar bo'yicha javobgarlik tamoyillarini shakllantirish lozim.

Oltinchi bosqichda qabul qilingan boshqaruv qarorlar jozibadorligini oshirish bo'yicha javobgarlik mexanizmini shakllantiriladi va bunda agar zarurat tug'lsa, ogohlantiruvchi yoki moslashtiruvchi boshqaruv ta'sirlarni qo'llash to'g'risidagi qaror qabul qilinishi lozim. Bundan tashqari mazkur bosqichda, agar qonunga zid bo'lgan yoki joriy holatiga nomuvofiqlik holatlari kuzatilsa, unda korxonada maqsadlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

So'ngra kimyo sanoati korxonasida kontrolling samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini shakllantiriladi. Bunda samaradorlikni baholash ehtimoliy

tavsifga ega bo'lishi lozim, bu esa ta'sir etish mumkin bo'lgan tasodifiy omillar boshqaruv tizimining mavjudligi bilan shartlangan.


Kimyo sanoati korxonasining iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimini asosida ta'minlashning so'ngi bosqichi mazkur tizimni monitoring qilish va nazorat tizimini shakllantirish bo'lishi lozim.

Korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishni zarur hujjatlar orqali qo'llab-quvvatlashni hisobga olgan holda kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli tamoyillari 4.3.2-rasmda batafsil ko'rsatilgan.

Ko'rib turganimizdek, kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash har bir bosqichda turli xil ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish kerak bo'ladi.

Xususan, axborot-ma'lumot bazasida buxgalteriya va moliya hisoboti ma'lumotlari o'tgan yillar yoki korxonalarda (agar u yoki bu sabablarga ko'ra korxonada o'tgan yillar ma'lumotlari yo'q bo'lgan taqdirda) kontrolling tizimi joriy etilayotgan aniq bir korxonaning faoliyat ko'rsatishiga ta'alluqli bo'lgan statistik ma'lumotlar yotishi lozim. Shuningdek, axborot bazasi doirasida, masalan, natijaviy ko'rsatkichlarni yanada me'yorlashtirish maqsadlari uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar kiritilishi lozim. Bundan tashqari kimyo sanoati korxonasida iqtisodiy barqarorlikni kontrolling tizimini asosida ta'minlashga doir uslubiy ishlanmalar mavjud bo'lishi lozim.

Maqsadni ko'zlash bosqichi oldingi bosqichda olingan axborotni hisobga olgan holda kimyo sanoati korxonasining taktik va strategik maqsadlari yo'nalishlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Maqsadlarni yo'nalishlar ko'rinishida shakllantirish korxonada iqtisodiy tizimi dinamikasini ko'rib chiqish bilan shartlanadi.



4.3.2-rasm. Kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli tamoyillari¹⁹⁸

Shu bois har bir tahlil qilinadigan t davr uchun nafaqat mazkur davrga xos bo'lgan maqsadlar, balki boshqaruv bo'g'inining manfaatdor tomonlari yoki menejerlar nuqtai nazardan korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning u yoki bu ehtimol darajasiga mos keluvchi maqsadlarning mumkin bo'lgan dinamik

¹⁹⁸Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

chegaralarini sifat va miqdor jihatdan aniqlanishi lozim.

Kontrolling tizimi doirasida rejalashtirilayotgan strategik reja va chora-tadbirlarni ishlab chiqish bosqichida strategik maqsadlarga aniqlik kiritilishi, barqaror faoliyat ko'rsatish kesimida kimyo sanoati korxonasi rivojlanish dasturi shakllanishi, xo'jalik sub'ekti rivojlanishining kompleks rejasi shakllanishi, iqtisodiy tizimdan chiqishda olingan ko'rsatkichlarni baholash va talqin etishga ko'maklashuvchi korxonalar faoliyati samaradorligi asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyoti aniqlanishi lozim.

Kimyo sanoati korxonasi taktik rejasi va chora-tadbirlarini ishlab chiqish bosqichida taktik maqsadlariga aniqlik kiritish va korxonaning bosh strategik maqsadlariga muvofiqlashtirilishi lozim (4.3.2-rasm.)

Maqsadlarning yakuniy yo'nalishlarini hamda mazkur maqsadlar yo'nalishlarining mumkin bo'lgan iqtisodiy barqarorlik darajasi me'yorlari shakllantirilgandan keyin ishlab chiqarish dasturi, budjetlar, xaridlar va sotish rejalari va x.k. hamda korxonalar iqtisodiy barqarorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini shakllantirish lozim.

Ushbu paragrafda, bugungi kunda mamlakatimiz sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini prognoz ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik. Bunda biz ekonometrik modellashtirishdan foydalanib, vaqtli qatorlarni tahlil qildik. Ma'lumki, vaqtli qatorlarni prognozlashda ma'lumotlarning uzoq yillar davomidagi o'zgarishlarini e'tiborga olish zarur. Ayniqsa, oxirgi yillardagi o'zgarish tendensiyasini ahamiyatini oshirib, dinamik qatorni birinchi yillardagi o'zgarish tendensiyasini ahamiyatini kamaytirish lozim¹⁹⁹. Dinamik vazifada bosh va yagona rivojlanish omili bo'lib vaqt omili hisoblanadi. U prognoz qilinayotgan ko'rsatkichlarning vaqt davomidagi o'zgarishlarini ifodalovchi vaqtli qatorlarni tahlil qilish asosida tuziladi²⁰⁰.

¹⁹⁹ Shodiev T.Sh., Xakimov T.X. va boshq. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2007. - 58 b.

²⁰⁰ Djumanova R.F. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash: O'quv - uslubiy qo'llanma. -T.: O'zMU, 2012. - 15 b.

Date: 03/17/23 Time: 13:58
 Sample: 2021M01 2022M12
 Included observations: 24

Autocorrelation	Partial Correlation	AC	PAC	Q-Stat	Prob
		1 -0.151	-0.151	0.6224	0.430
		2 -0.108	-0.134	0.9545	0.620
		3 -0.113	-0.159	1.3366	0.720
		4 -0.119	-0.195	1.7793	0.776
		5 -0.126	-0.250	2.3002	0.806
		6 -0.133	-0.343	2.9165	0.819
		7 0.238	-0.024	4.9954	0.661
		8 0.298	0.237	8.4684	0.389
		9 -0.052	0.041	8.5829	0.477
		10 -0.058	0.001	8.7352	0.557
		11 -0.064	0.009	8.9344	0.628
		12 -0.071	0.037	9.1951	0.686

4.3.3-rasm. Mamlakatimizda 2000-2021 yillarda korxonalar va aholining o‘z vositalari bo‘yicha ma’lumotlarning tasviriy statistikasi

Prognozlashning dinamik vazifasi prognozlash jarayonining rivojlanish evolyusiyalarini bo‘lish orqali kuzatilayotgan ko‘rsatkichlarni bir tomonlama o‘zgarishini talqin qiladi. Bu holatda ob‘ekt ko‘rsatkichlarining o‘zgarishlarini prognozlash kelgusi davrda uning rivojlanishi retrospektiv amaliyot bilan quriladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub’ektlarining investitsion faoliyatini ARMA yoki ARIMA modellar orqali prognozni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta’minlash istiqbollari baholash uchun sanoat tarmog‘i hamda kimyo sanoatini tanlab oldik.

4.3.1-jadval

O‘zbekiston sanoat korxonlari iqtisodiy barqarorligini ta’minlash istiqbollari baholash bo‘yicha statistik ma’lumotlarning Dickey-Fuller test natijalari²⁰¹

Null Hypothesis: INDUSTRY_UZB has a unit root
Exogenous: Constant
Lag Length: 0 (Automatic - based on SIC, maxlag=5)

	t-Statistic	Prob.*
Augmented Dickey-Fuller test statistic	-5.347029	0.0003
Test critical values:		
1% level	-3.752946	
5% level	-2.998064	
10% level	-2.638752	

*MacKinnon (1996) one-sided p-values.

Augmented Dickey-Fuller Test Equation
Dependent Variable: D(INDUSTRY_UZB)
Method: Least Squares
Date: 03/17/23 Time: 14:00
Sample (adjusted): 2021M02 2022M12
Included observations: 23 after adjustments

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
INDUSTRY_UZB(-1)	-1.152714	0.215580	-5.347029	0.0000
C	265.4746	84.80336	3.130473	0.0051
R-squared	0.576534	Mean dependent var		0.280449
Adjusted R-squared	0.556369	S.D. dependent var		495.2969
S.E. of regression	329.8958	Akaike info criterion		14.51837
Sum squared resid	2285456.	Schwarz criterion		14.61711
Log likelihood	-164.9613	Hannan-Quinn criter.		14.54320
F-statistic	28.59072	Durbin-Watson stat		1.692298
Prob(F-statistic)	0.000027			

Moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarning avtokorrelyatsiyaga tekshiruv natijalari o‘tkazilgan.

Eviews-9 dasturida moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarning ARMA modeli ishlab chiqildi.(4.3.2-jadval)


²⁰¹ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan

O‘zbekiston sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta’minlash istiqbollari bo‘yicha statistik ma’lumotlarning ARMA modeli²⁰²


Dependent Variable: D(INVESTMENT)
 Method: ARMA Maximum Likelihood (OPG - BHHH)
 Date: 12/18/22 Time: 19:01
 Sample: 2001 2021
 Included observations: 21
 Convergence achieved after 22 iterations
 Coefficient covariance computed using outer product of gradients

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	0.209393	2.761741	0.075819	0.9404
AR(1)	0.355723	0.231686	1.535368	0.1431
MA(3)	0.690384	0.273948	2.520128	0.0220
SIGMASQ	13.72567	5.985224	2.293260	0.0349
R-squared	0.275984	Mean dependent var		-0.047619
Adjusted R-squared	0.148216	S.D. dependent var		4.461566
S.E. of regression	4.117675	Akaike info criterion		5.939552
Sum squared resid	288.2391	Schwarz criterion		6.138508
Log likelihood	-58.36529	Hannan-Quinn criter.		5.982730
F-statistic	2.160044	Durbin-Watson stat		1.627746
Prob(F-statistic)	0.130315			
Inverted AR Roots	.36			
Inverted MA Roots	.44+.77i	.44-.77i	-.88	

Moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo‘yicha statistik ma’lumotlarning ARMA modelini polinomal ildizini hisoblash asosida modelning adekvatligini tekshiramiz.(4.3.3-rasm)




²⁰² Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan



Industry

4.3.3-rasm. O‘zbekiston sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta’minlash istiqbollari bo‘yicha statistik ma’lumotlarning ARMA modelini polinomal ildizi ²⁰³

Demak, ARMA modellaridan ahamiyatli lagdaxisini tanlab olinishi lozim, biroq o‘tkazilgan test natijalaridan ko‘rib turibmizki, ARIMA model bo‘yicha olingan prognozlar statistik ahamiyatli emas.




4.3.4-rasm. O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta’minlash istiqbollari bo‘yicha statistik ma’lumotlarning ARMA modelini polinomal ildizi ²⁰⁴


²⁰³ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan

²⁰⁴ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan

Mamlakatimizda 2030 yilgacha sanoat korxonalari mahsulot ishlab chiqarishining prognoz qiymatlarining MAPE test natijalari unchalik yaxshi emas, biroq ekonometrik modellashtirish nisbiy bo‘lganligi bois biz modelda aynan eng yaxshisini nisbiy tanlab olishimiz lozim bo‘ladi.



4.3.5-rasm. O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning prognozi modeli MAPE testi²⁰⁵




4.3.6-rasm. O‘zbekiston sanoat korxonalari mahsulot ishlab chiqarishining 2030 yilgacha prognozlari²⁰⁶

²⁰⁵ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

²⁰⁶ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

O‘zbekiston sanoat korxonalari mahsulot ishlab chiqarishining 2030 yilgacha prognozlarini chiziqli funktsiya asosida hisoblandi. (4.3.6-rasm)

“O‘z kimyosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar iqtisodiy barqarorligining 2030 yilgacha prognoz qiymatlari 4.3.7-rasmda keltirilgan. (4.3.7-rasm)



4.3.7-rasm. “O‘z kimyosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar iqtisodiy barqarorligining 2030 yilgacha prognoz qiymatlari²⁰⁷

Hisob-kitoblarga ko‘ra mamlakatimizda 2030 yilga sanoat ishlab chiqarish xajmi 1 004 208,8 mlrd.so‘mga yetishi kutilmoqda.

Bu yerda kimyo sanoati korxonalar iqtisodiy barqarorligi ko‘rsatkichi sifatida mahsulotning o‘shish sur‘atini (foizda) olindi, chunki aynan mahsulot hajmini yildan yilga oshishi tarmoqning iqtisodiy barqaror ekanligini ifoda etuvchi asosiy ko‘ratkichlaridan hisoblanadi.

Kimyo sanoati korxonasida iqtisodiy barqarorlikni kontrolling tizimi asosida ta‘minlash yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni monitoring qilish quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim: oldingi bosqichlarda qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda to‘g‘irlangan hujjatlar aylanmasi, korxonaning har bir bo‘g‘ini tomonidan axborotni taqdim etish reglamentlari.

Bundan tashqari, agar zarurat tug‘ilsa, iqtisodiy barqarorlikni kontrolling tizimi asosida ta‘minlash yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar samaradorligini

²⁰⁷ Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan

monitoring qilish maqsadida foydalaniladigan natijaviy integral ko'rsatkichlarni hisoblash usuli qo'yilgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda batafsil to'g'rilanishi lozim.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini strategik boshqarishning yuqori samaradorligiga erishish, birinchi navbatda, amalga oshirishning murakkabligi va to'liqligiga, boshqaruv tizimining barcha elementlari o'rtasidagi barqarorlik va o'zaro bog'liqlikni tashkil etishga, qo'llaniladigan usullarning maqsadga muvofiqligiga bog'liq. Korxonaga salbiy ta'sir etayotga omillarni izchillik va baholash uchun, shuning uchun boshqaruv tizimini baholash, tahlil qilish, bashorat qilish va monitoring qilish uchun tegishli tizim ishlab chiqilishi kerak.

Kimyo sanoatida tartibga solish tizimiga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash modelining yakuniy bosqichi - olingan natijalarni tahlil qilish, loyihalarni optimallashtirish va muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish. Korxonada ushbu bosqichda olingan natijalarni sharhlash mexanizmiga ega bo'lishi va olingan bir yoki bir nechta umumiy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tamoyillarini shakllantirishi kerak. Bundan tashqari, kimyo korxonalari strategik va taktik maqsadlarga muvofiqlik darajasini tahlil qilish, baholash va prognoz qilish vositalariga ega bo'lishi kerak.

Maqsadli chegaradan og'ish yuzaga kelgan hollar uchun ogohlantiruvchi va moslashtiruvchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tamoyillari bo'lishi lozim hamda maqsadli darajadan mumkin bo'lgan og'ishlar yuzaga kelgan hollarda tizimning ta'sir ko'rsatish tezligini oshirishga imkon beradigan to'g'rilovchi qarorlar ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lishi lozim.

Shunday qilib, kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli bir tomondan, kontrolling tizimini joriy etish tamoyillari to'g'risidagi aniq tasavvurni beradi, ikkinchi tomondan, kimyo sanoat korxonalari faoliyatidagi noaniqliklar bo'lgan muhitni hisobga olgan holda optimal boshqaruv qarorlarini shakllantirishga imkon beruvchi dastaklar ishlab chiqish asosida takomillashtirilishi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Sanoat korxonasi iqtisodiy barqarorligi – bu korxonaning rentabelligini va barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi hamda hozirgi zamonda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning amal qilishi to'xtatilgandan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beradigan iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini ushlab turish qobiliyatidir. Ushbu talqin sanoat korxonalari, xususan kimyo sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligi darajasini baholashga qaratilgan iqtisodiy yondashuvni amalga oshirishga asos bo'ladi.

2. Sanoat korxonalari iqtisodiy faoliyatini baholashda foydalanilayotgan usullarning bugungi darajasi ularning haqiqiy iqtisodiy barqarorlik darajasini baholash talablariga to'liq javob bermaydi. Shu sababli sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorlik darajasini baholashda moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik, marketing va tashkiliy mezonlar uyg'unligini inobatga olishni talab qiladi. Bu esa, korxonalarining iqtisodiy barqarorlik darajasini haqqoniy baholash va tegishli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

3. Sanoat korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning xorijiy davlatlar kompaniyalari tajribasi keng o'rganilgan va korxonalarda kontrolling tizimini joriy etish samaradorligi quyidagi: boshqaruv samaradorligi o'sish sur'ati; ishlab chiqarish jarayonlari samardorligi o'sish sur'ati; investitsion jozibadorlik darajasining o'sish sur'ati; xujjat aylanish samaradorligi o'sish sur'ati; qabul qilingan boshqaruv qarorlar samaradorligi o'sish sur'ati; boshqaruv kadrlar mehnat unumdorligi o'sish sur'ati; boshqaruv samaradorligi o'sish sur'ati; qarorlar sifatining o'sish sur'ati; ishlab chiqarish jarayonlari samardorligi o'sish sur'ati va nihoyat moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan hamda xulosalar berilgan. Bugungi kunda sanoat korxonalari strategik menejmentida inflyatsiya, bozor kon'yunkturasi beqarorligi va noaniqlik muhiti to'liq inobatga olinmaydi. Bunday sharoitda sanoat korxonalari iqtisodiy

barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kontrolling tizimi sanoat korxonalarida ma'muriy-boshqaruv xarajatlar, texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hisobiga tannarxni kamaytirish xizmat qiladi.

4. Kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimi samarali model hisoblanadi va uni keng joriy etish kimyo sanoati korxonalarini faoliyat yuritish muhitidagi noaniqliklarning mavjudligi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tatqiqotda kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini kontrolling tizimi asosida ta'minlash modeli va uni shakllantirish bosqichlari va tamoyillari keltirilgan.

5. Mamlakatda 2010-yilda amaldagi narxlarda 1960,0 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda 27577,9 mlrd.so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Kimyo sanoatining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2010-yilda 6,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib, bu ko'rsatkich 7,4 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2010–2021-yillardagi yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, kimyo sanoatining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 6,2 foizni tashkil etgan.

6. «O'z kimyosanoat» AK korxonalarini 170 turdan ortiq kimyoviy mahsulot ishlab chiqaradi.

«O'z kimyosanoat» AJ joriy investitsion faoliyati O'zbekistonda ishlab chiqarish foydali bo'lgan eng mashhur mahsulotlarni ko'paytirishga qaratilgan:

– zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarishni tashkil etish va mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish loyihalarini xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda tashkil etish;

– O'zbekiston kimyo korxonalarini xususiylashtirish va xususiylashtirishga xorijiy investorlarni jalb qilish.

Kompaniyaning investitsion faoliyatining ko'rsatilgan yo'nalishlari O'zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish, uning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining ishlashini ta'minlash jarayonida

muhim bo'g'in hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida kimyo sanoatida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va murakkab texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish uchun qulay ishlab chiqarish infratuzilmasi, aloqa va logistika mavjudligi e'tiborga olinadi.

7. Tadqiqotda o'rganilgan omillarning ikkita sanoat korxonasi 2018–2020-yillardagi moliyaviy faoliyatiga ta'siri tahlili. quyidagi natijalarni ko'rsatdi: "Navoiyazot" AJ bo'yicha mahsulot sotishdan olingan sof foyda 122594,3 ming so'mga oshdi, mahsulot sotish hajmining 1463 ming so'mga oshishi, xodimlar mehnat unumdorligining 99,5 ming so'm/ kishiga kamayishi hisobiga, moddiy-texnikaviy jihozlanish darajasini 67186,7 ming so'mga oshirish hisobiga. "Navoiyazot" AJ korxonasi mahsulot sotishdan olingan foydaga omillarning jamlangan ta'siri 68748,9 ming so'mga oshdi.

"Farg'onaazot" AJ korxonasi mahsulot sotishdan olingan sof foyda

150 339,0 ming so'mga, mahsulot sotish hajmining 479,7 ming so'mga, xodimlar mehnat unumdorligining 40,4 ming so'mga oshishi hisobiga ko'paydi. "Farg'onaazot" AJ korxonasi mahsulot sotishdan olingan foydaga omillarning jamlangan ta'siri 2413381,7 ming so'mga oshgan.

8. Ekonometrik tahlillarga ko'ra, ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda sanoatda band bulganlar (ya'ni ishlovchilar soni, ishchi kuchi) sonining 1 ming kishiga oshishi aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 0,15 mlrd.so'mga oshishiga, bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmining 1 mln.so'mga ortishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so'mga oshishiga hamda oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislarni 1 ming kishiga oshishi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,04 mlrd.so'mga oshishiga xizmat qilarkan.

9. Tashkilot doirasida boshqaruv korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi umumiy va xususiy tamoyillar asosida va muayyan usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak. Korxonaning

iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samarali qo'llab-quvvatlash tizimini talab qiladi, uning asosiy elementlari:

- huquqiy qo'llab-quvvatlash (qonunlar, farmonlar, qoidalar, korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari va muassasalarining ko'rsatmalari);

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash (korxonaning o'z moliyaviy resurslarini ko'paytirishni asoslash, qarzga olingan moliyaviy resurslar manbalarini (bank kreditlari, moliyaviy lizing, tijorat kreditlari), investitsiya mablag'larini jalb qilish, davlat moliyalashtirish);

- tashkiliy ta'minot (korxonaning iqtisodiy barqarorligini boshqarish bo'yicha tashkiliy tuzilmani yaratish, korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatma va uslubiy materiallar); – axborot ta'minoti (korxonaning buxgalteriya hisobi, boshqaruv va statistik ma'lumotlari, korxonaning hisobot ma'lumotlari, ichki me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, tahliliy ma'lumotlar, farmoyishlar, nizomlar va korxonaning boshqa rasmiy hujjatlari);

- ishchi kuchi bilan ta'minlash (yollash, o'qitish, qayta tayyorlash, moslashtirish, kadrlarning kasbiy o'sishi, xodimlarni rag'batlantirish va rag'batlantirish).

"Moliyaviy yostiqcha" mablag'larini saqlashning muhim mezonlari – bu, jamg'armalarni ilojisiz vaziyatlarda mablag'larni tezda olish va kerakli miqdorda foydalanish imkonini beradigan usulda saqlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003.

1.1.2. O‘zbekiston Respublikasi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). 24.04.2003 y.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonuni. 30.08.1996 y.

1.1.4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyoti uyi”. –T.: 2005 y.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1.2.1. «2011-2015 yillarda tukimachilik sanoatini rivojlantirish dasturi tugrisidagi» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2010 yildagi PF-1442 sonli Karori.

1.2.2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 13.02.2017 yil, 6-son.

1.2.3. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2017 yildagi PF-3177-sonli Farmoni.

1.2.4. «Sanoat tarmoqlari korxonalarining jismoniy ishdan chiqqan va ma’naviy eskirgan mashina-uskunalarini jadal yangilash, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda PQ-2692-sonli qarori.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.3.1. “Past rentabelli, zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor korxonalarini va ob‘ektlarini xususiylashtirish jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlari” to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5-maydagi 209-sonli qarori.

1.3.2. “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish

xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevral 54-sonli Qarori).

1.3.3. Korxonaning iqtisodiy nochorligini aniqlovchi mezonlar tizimi. Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi tomonidan 27.08.1999 yilda tasdiqlangan.

1.3.4. "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31-dekabrda 288-sonli qarori.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1.4.1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

1.4.2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

1.4.3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

2.1 Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:A)
bir muallifning

2.1.1. Аверина О.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: учебник /О.И. Аверина, В.В. Давыдова, Н.И. Лушенкова. – М.: КноРус, 2012. – 432 с.

2.1.2. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: "Moliya" - 2003. – 224 b.

2.1.3. Беллман, Р. Принятие решений в расплывчатых условиях / Р.Беллман, Л. Заде // Вопросы анализа и процедуры принятия решения. – М.: Мир, 1976. – С. 172–215.

2.1.4. Богатая И.Н. Стратегический учет собственности предприятия. –

Ростовн/Д.: «Феникс», 2001. – 320 с.

2.1.5. Богданов А.А. Тектология. Всеобщая организационная наука. / А.А.Богданов // М.: Финансы, 2003. – 654 с.

2.1.6. Боргардт, Е.А. Система контроллинга-менеджмента как инновация в управлении промышленной организацией / Е.А. Боргардт, В.М. Носова // Вестник ВГУ. Серия «Экономика и управление». - 2014. - № 1. - С. 108–119.

2.1.7. Burxanov A.U. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi. / Monografiya. T.: Fan. 2009. – 216 b.

2.1.8. Бушина, Ф. Особенности восприятия контроллинга руководителями предприятий малого бизнеса в Чехии [Электронный ресурс] / Ф. Бушина // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1 (2). <http://science-education.ru/ru/article/view?id=20126>.

2.1.9. Васильева, Г.А. Показатели оценки эффективности работы подразделения контроллинга / Г.А. Васильева // Контроллинг. – 2002. – № 2. – С. 54–56.

2.1.10. Выборова Е.Н. Методологические особенности сравнительной диагностики экономического состояния субъектов хозяйствования // Экономический анализ: теория и практика. - 2007. - № 24 (105). - с. 15-19.

2.1.11. Грищенко, О.В. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебное пособие / О.В. Грищенко. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2000. – 112 с.

2.1.12. Дмитриев, В.В. Определение интегрального показателя состояния природного объекта как сложной системы / В.В. Дмитриев // Terra Humana. – 2009. – № 4. – S. 146–165.

2.1.13. Ефимова, О.В. Финансовый анализ: современный инструментарий для принятия экономических решений: учебник / О.В. Ефимова. – М.: Омега-Л, 2009. – 350 с.

2.1.14. Завгородняя А.В. Диагностика и моделирование среды фирмы / А.В. Завгородняя - СПб.: Изд-во СПбГУЭФ. - 1999. - 300 с.

- 2.1.15. Захарченко Н.Н. Экономические измерения: теория и методы / Н.Н. Захарченко. - Изд-во СПб ун-та экономики и финансов, 1993. - 157 с.
- 2.1.16. Зеткина О.В. Об управлении устойчивостью предприятия. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2003, с. 128
- 2.1.17. Ковалев Д., Сухорукова Т. Экономическая безопасность предприятия // Экономика Украины. – 1998. – №5. – S.48-52.
- 2.1.18. Кожевникова Ю.А. Исследование сущности и оценки экономической устойчивости предприятия // Вестник Димитровградского института технологии, управления и дизайна - 2004. - № 4. - с. 20-25.
- 2.1.19. Козин М.Н. Динамическая модель оценки производственно-экономической устойчивости оборонного предприятия / М.Н. Козин // Аудит и финансовый анализ. – Москва, 2007. - №4. – с. 24-31.
- 2.1.20. Контроллинг как инструмент управления предприятием / Под ред. Н. Г. Данилочкиной. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2001. – 279 с.
- 2.1.21. Коробкова З.В. Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации // Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения: сб. науч. тр. – Новосибирск, 2006. – S. 57-58.
- 2.1.22. Королев, М.И. Экономическая безопасность фирмы: теория, практика, выбор стратегии [Текст] / М.И. Королев. – М.: Экономика, 2011. – 284 с.
- 2.1.23. Королева, Л.П. Оценка эффективности контроллинга / Л.П. Королева // Управленческий учет. – 2013. – № 1. – С. 67–69.
- 2.1.24. Коротков Э.М., Антикризисное управление. М.: ИНФРА-М, 2007. – С. 68.
- 2.1.25. Куприн А.А. Основные факторы влияния на адаптивность систем управления предприятием /А.А. Куприн // Проблемы современной экономики. 2010. №4. <http://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-factory-vliyaniya-na-adaptivnost-sistem-upravleniya-predpriyatiem>.
- 2.1.26. Лопатников, Л.И. Экономико-математический словарь. Словарь

современной экономической науки. Изд. 5, доп. и пер. / Л.И. Лопатников - М.: "Дело", 2003 – 520 с.

2.1.27. Макарова М.А. Факторы экономической устойчивости нефтяной компании / М.А. Макарова // Маркетинг. - 2004. - №3(76). – С.93-97.

2.1.28. Морозова, Л.Э. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий / Л.Э. Морозова, О.А. Бортник, И.С. Кравчук. –М., 2009. – 81 с.

2.1.29. Нечеухина, Н.С. Контроллинг как инструмент управления предприятием / Н.С. Нечеухина // Известия Уральского государственного экономического университета. – 2009. – № 4 (26). – С. 103–108.

2.1.30. Окружающая среда между прошлым и будущим: мир и Россия (опытэколого-экономического анализа) [Текст] / В.И. Данилов-Данильян [и др.]. – М.:ВИНИТИ, 2005. – 134с.

2.1.31. Попов Р.А. Антикризисное управление: Учеб.для вузов. М., 2004. – 429 с.

2.1.32. Райан Б. Стратегический учет для руководителя. / Пер. с англ. Под ред.Микрюкова В.А. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1998. – 615 с.

2.1.33. Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 384 с.

2.1.34. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учеб.пособие. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 288 с.

2.1.35. Спирин В.С. Основные черты современных структурных изменений производственного потенциала предприятия // Консультант директора. – 2004. - №15. – 88 с.

2.1.36. Сыроежин И.М. Совершенствование системы показателей эффективности и качества / И.М. Сыроежин. - М.: Экономика. - 1980. - 191 с.

2.1.37. Федосеев С.В. Стратегический потенциал базовых отраслейпромышленности : монография / С. В. Федосеев // Рос. акад. наук, Кол. науч. центр, Ин-т экон. проблем, М-во образования Рос. Федерации, С.-Петербур. гос. политехн. ун-т. - Апатиты; Санкт-Петербург: КНЦ РАН, 2003. –

268 с.

2.1.38. Франчук В.И. Общая теория социальных организаций / В.И. Франчук // Академия социологии и управления. — М.: Изд-во МГСУ «Союз», 2001. — 236 с.

2.1.39. Шеремет А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. — М.: ИНФРА-М, 2007. — 415 с.

2.1.40. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: перевод с англ. — М.: Экономическая школа, 2008. — С.98.

2.1.41. Щербаков В.А. Оценка стоимости предприятия (бизнеса) / В.А.Щербаков, Н.А. Щербакова. — М.: Омега-Л, 2006. — 288 с.

2.1.42. Эмерсон, Г. Двенадцать принципов производительности / Г. Эмерсон // Управление это наука и искусство. — М.: Республика, 1992. — 349 с.

В) Mualliflar jamoasi uchun

2.1.43. Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2003, 6-b.

2.1.44. Abdullaev Yo., Ibrohimov A., Rahimov M. Iqtisodiy tahlil. — T.: Mehnat. 2001. — 159-161-betlar.

2.1.45. Алексеева А.И., Васильев Ю.В., Малеева А.В., Ушвицкий Л.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: Учеб.пособие. — М.: Финансы и статистика, 2006. — 672 с.

2.1.46. Асаул, А.Н. Управление затратами в строительстве / А.Н. Асаул, М.К. Старовойтов, Р.А. Фалтинский. — СПб: ИПЭВ, 2009. — 392 с

2.1.47. Бендигов М.А, Сахарова И.В., Хрусталева Е.Ю. Финансово-экономическая устойчивость предприятия и методы ее регулирования // Экономический анализ: теория и практика. - 2006. - № 14 (71). - с. 5-14

2.1.48. Бухонова С.М., Дорошенко Ю.А., Бендерская О.Б. Комплексная методика анализа финансовой устойчивости предприятия / С.М. Бухонова, Ю.А. Дорошенко, О.Б. Бендерская // Экономический анализ: теория и практика. - 2004. - № 7 (22). - с. 8-15.

2.1.49. Губерт, Т. Финансовый контроллинг в европейском

аэрокосмическом и оборонном концерне Airbus Group S.A.S. / Т. Губерт, С.Г. Фалько // Контроллинг. – 2015. – № 55. – С. 3–9.

2.1.50. Ibragimov A.K. va boshq. Moliyaviy va boshqaruv hisobi., O‘quv qo‘llanma. Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2008. 480 bet.

2.1.51. Изучение и оценка степени устойчивости региональных социально-экономических систем [Текст]: отчет о НИР / исполн. Т.В. Ускова [и др.]. – Вологда, 2010. – 100 с.

2.1.52. Клейнер Г.Б., Тамбовцев В.Л., Качалов Р.М. Предприятия в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. – М.: Экономика, 1997. – 288 с.

2.1.53. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2-х т. / Пер. с англ. 13-го изд.: Учеб – Т.1. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 974 с.

2.1.54. Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. T.: “Akademiya”, 1999. – 192 b.

2.1.55. Pardaev M. Q., Xasanov B.A., Isroilov J.I., Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: TDIU va SamISI, 2011. - 138 bet.

2.1.56. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil (Uslubiy ko‘rgazmalar va tavsiyalar albomi). – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999. – 234 b.

2.1.57. Петрова, А.Т. Контроллинг как инновационный элемент системы управления: понятие и этапы развития / А.Т. Петрова, Т.В. Живаева // Вестник Сибирского университета потребительской кооперации. – 2013. – № 3. – С. 19–28.

2.1.58. Погостинская Н.Н., Погостинский Р.Л., Жамбекова Р.Л. [и др.]. Экономическая диагностика: теория и методы. - Нальчик: Эльбрус, 2000. - 319 с.

2.1.59. Савинская Н.А., Багиева М.Н. Риски и устойчивость предприятия. – СПб.: Издательство СПбГУЭФ, 1999. -104 с.

2.1.60. Саховская, К.А. Стратегический контроллинг как инструмент эффективного управления предприятием / К.А. Саховская, Н.А. Цаплина //

Современные тенденции в экономике и управлении. - 2014. - № 24. - С. 54-58.

2.1.61. Совершенная конкуренция: исторический ракурс // Вехи экономической мысли. Теория фирмы. Т.2. Под ред. В.М.Гальперина.- СПб.: Экономическая школа. 1999. – 299 с.

2.1.62. Xasanov B.A, Ibragimov A.K, Rizaev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. T.:“Moliya”. 2013.

2.1.63. Xasanov N., Najbiddinov S. Korxonona moliyaviy holatini baholash. - T.:“Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999. – 224 b.

2.1.64. Хруцкий В.Е., Сизова Т.В., Гаманенов В.В. Внутрифирменное бюджетирование: Настольная книга по постановке финансового планирования. - М.: Финансы и статистика, 2002. – 400 с.

2.1.65. Ortiqov A. «Sanoat iqtisodiyoti». O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006 – 85 bet.

2.1.66. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: Darslik. – T.: Tafakur Bo‘stoni. 2011. – 336 b.

2.1.67. Kattakishiev B., Mamayusupov I. Strategik menejment fanidan praktikum. – T.: Fan va texnologiyasi, 2008. – 232 bet.

2.1.68. Nurimbetov R.I., Ahmedov S.I. Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Talqin, 2008. – 112 bet.

2.1.69. Ulashev I.O., Atamurodovlar Sh.A. Korxonona iqtisodiyoti va mehejment: darslik // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Tafakur Bo‘stoni, 2013 – 232 b.

3. Journallardagi maqolalar, konferensiya ishlariga havolalar

3.1. Барнгольц С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. – М.: Финансы и статистика, 1984. – 214 с.

3.2. Бороненкова С.А. Управленческий анализ. // Ж.: Финансы и статистика, 2001. – 384. 4-б.

3.3. Валеева Ю.С., Исаева Н.С. Диагностика производственно финансового потенциала промышленного предприятия // Экономический

анализ: теория и практика. – 2007. – №1(82). – С. 38-43

3.4. Выборова Е.Н. Диагностика финансовой устойчивости субъектов хозяйствования // Аудитор. 2002. № 12. С. 37-39.

3.5. Гурков И., Авраимова Е. Стратегия выживания промышленных предприятий в новых условиях. // Ж.: Вопросы экономики. - 1995. - №6 - с.22-31.

3.6. Доклад «Альтернативные источники энергии: возможности использования в Узбекистане», ЦЭИ, 2011. – С.8

3.7. Jamolov X., Abdullaev X. Korxonalarining to'lovga qodirligi va rentabelligi. J.: Bozor, pul va kredit. - 2001. - №1, 56-58 b.

3.8. Jo'raev N., Abdinazarov B. Nomoddiy aktivlar hisobi. // J.: Bozor, pul va kredit. - 2002. - №8, 72-75 b.

3.9. Кувшинов Д.А. Рейтинговая оценка финансового состояния предприятия / Д.А. Кувшинов, П.И. Половцев // Экономический анализ: теория и практика. - 2007. – № 6. – С. 25-28.

3.10. Mamatov Z. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobga olish. // J.: Bozor, pul va kredit. - 2002. - №6, 51-54 b.

3.11. Материалы аналитического отдела по контролю и финансовому мониторингу (каталог № 1-0233.89 от 5 декабря 2004 г.), 2014. – С. 23–69.

3.12. Мерки для баланса // Секрет фирмы. – 2005. – № 9. – с. 56-59.

3.13. Muxammadiev M. Korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichlar. - // J.: O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001 y., № 6, - 29 b.

3.14. Muxammadiev M. Korxonalar moliyaviy barqarorligining omilli tahlili. - // J.: O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2002 y., №12, - 20-21 b.

3.15. Pardaev M., Isroilov B. Korxonalar rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. - // J.: O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001 y., №6, 22-23 b.

3.16. Pardaev M., Isroilov J. Qiyosiy tahlil koeffitsientidan foydalanish. // J.: O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001 y., №12, 42-43 b.

3.17. Pardaev M., Ochilov I. Xususiy korxonalar iqtisodiy salohiyati samaradorligi. // J.: Bozor, pul va kredit. - 2005. - №11, 60-63 b.

3.18. Rahmonov K. Korxonalar rentabellik ko'rsatkichlari tahlili. // J.: Bozor, pul va kredit. - 2002. - №6, 77-76b.

3.19. Романова А.И. Экономическая устойчивость предприятия: постановка проблемы / А.И. Романова // Известия вузов: Строительство - 2002 - №7 – С. 62–72.

3.20. «Совершенствование отраслевого управления в интересах стимулирования процессов модернизации повышения конкурентоспособности экономики» Аналитический доклад. ЦЭИ, 2014/02.

3.21. Справочник по внешнему и внутреннему аудиту хозяйствующих субъектов на территории Узбекистана: для аудиторов, руководителей, бухгалтеров, работников налоговых органов. Библиотека газеты “Норма”. 3/2007. – 101 с.

3.22. Uralov E. Korxonalar balansini likvidligi tahlili. - // J.: O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2002 y., №9, 58-59 b.

3.23. Xamroev O., Shodmonov E. Bankrotlik mexanizmi va uning iqtisodiy muvozanatni ta'minlashdagi roli. // J.: Bozor, pul va kredit. - 2002. - №11-12, 77-79b.

3.24. Худякова, Т.А. Внедрение контроллинговых технологий как способ повышения эффективности деятельности предприятия / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2016. – Т. 10. – № 4. – С. 30–36.

3.25. Худякова, Т.А. Принципы определения эффективности затрат на внедрение системы контроллинга на промышленном предприятии / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ. Серия: Экономика и менеджмент. – 2014. – № 4 (8). – С. 135–138.

3.26. Худякова, Т.А. Принципы оценки уровня финансово-экономической устойчивости предприятия на основе применения вероятностно-статистических моделей / Т.А. Худякова // Вестник ЮУрГУ.

Серия «Экономика и менеджмент». – 2015. – Т. 9. – № 3. – С.41–43.

3.27. Цыгичко А. Сохранение и приумножение производственного потенциала страны. // Ж.: Экономист, №7, 1992 г. 10-б.

3.28. Чупров С.В. Развитие научных воззрений об устойчивости экономических систем в исторической ретроспективе / С.В. Чупров // Историко-экономические исследования. – 2013. – Т. 14, № 1-2. – С. 15–32.

3.29. Шмален Г. Основы и проблемы экономики предприятия. // Ж.: Финансы и статистика, 1996. С. 31.

3.30. Яруллина, Г. Р. Динамическая модель мониторинга устойчивого экономического развития промышленного предприятия / Г. Р. Яруллина // Аудит и финансовый анализ. - 2012. - № 6. - с. 195-202.

3.31. Qurbanov Z.N., Isaev F.I. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil – 1-8 betlar.

4. Xorijiy adabiyotlarga havolalar

4.1. The Pricewaterhouse Cooper’s bulletin №2. – London, 2002. – 43 r.

4.2. Bundesministerium fuer Wirtschaft und Technologie, 2013.
<http://www.bmwi.de>

4.3. Curran L. Forecasting the Trade Outcomes of Liberalization in a Quota Context - What Do We Learn From Changes in Textiles Trade After the ATC? // Journal of World Trade. 2008. Vol. 42(1). P. 129-150

4.4. Ernst C., Ferrer A.H., Zult D. The End of the Multi-Fibre Arrangement and its Implications for Trade and Employment // Employment Analysis Unit. 2005. Vol. 16. http://ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_emp/---emp_elm/documents/publication/wcms_114030.pdf

